

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**“TARIX” KAFEDRASI**

**«ARXEOLOGIYA»  
FANIDAN O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

**Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar soha**

**Ta'lif sohasi: 120000 – Gumanitar fanlar**

**Ta'lif yo'nalishi: 5120300 – Tarix (jahon mamlakatlari bo'yicha bo'yicha)**



Fanning o`quv-uslubiy majmuasi O`zbekiston respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi tomonidan 2022 yil 30-avgustdagি buyruq asosida tasdiqlangan fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: Qudratov S.S.- “Tarix” kafedrasи dots., t.f.n.

Taqrizchi: To`ychiboyev B.B.- “Tarix” kafedrasи mudiri., t.f.n.

O`UM GulDU Ilmiy – uslubiy Kengashining 2022 yil “\_30\_\_\_”  
08\_\_\_\_\_dagi “\_1\_\_\_” – sonli majlisida tasdiqlangan

GulDU Ilmiy – uslubiy Kengashi raisi: b.f.d. J. Karshiboev.

©GulDU

## **MUNDARIJA**

1. O'quv materiallari	
1.1. Ma'ruza mavzulari bo'yicha o'quv materiali.....	4
1.2. Seminar mashg'ulotlari mavzulari .....	64
1.3. Adabiyotlar ro'yxati.....	71
2. Mustaqil ta'lim mavzulari .....	73
3. Glossariy.....	78
4. Ilovalar	
4.1. Fan dasturi.....	93
4.2. Ishchi fan dasturi.....	103
4.3. Tarqatma materiallar.....	114
4.4. Testlar.....	126
4.5. Baholash mezonlarini qo'llash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar.....	134

## I. O'QUV MATERIALLAR

### I.1. MA'RUZA MAVZULARI BO'YICHA O'QUV MATERIALLARI

#### 1-MAVZU: ARXEOLOGIYA FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI

##### Reja:

1. Arxeologiya fanining rivojlanish tarixi
2. Arxeologiya fanining maqsad va vazifalari.
3. Arxeologik tadqiqot turlari va usullari
4. Arxeologiya fanining boshqa fanlar bilan bog`liqligi

##### Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Arxeologiya, yodgorliklar, manbalar, ekofakt, artefakt, moddiy madaniyat, davrlashtirish, tosh davri, paleolit, mezolit, neolit, eneolit, bronza, temir, shurf, raskop, transheya, madaniy qatlam, stratigrafiya, tadqiqot turlari, tadqiqot usullari, etnografiya, antropologiya, geologiya, paleontologiya, numizmatika, epigrafika, sfragistika, lingvistika, metallografiya, geofizika, spektroskopiya.

##### 1-savolning bayoni:

Arxeologiya – ijtimoiyfanlar ichida ancha yosh hisoblansa-da, uning ildizlari juda uzoqdavrلarga borib taqaladi. Yozma manbalardan ma'lumki, mil. avv. VI asrda Yangi Bobil podshosi Nabonid (Nabunaid, Nabonagid, mil. avv. 555-538 yy.) saroy va ibodatxonalar poydevor qismida qadimgi podsholar tomonidan qoldirilgan yodgorlik yozuvlarini topish maqsadida qazuv ishlarini olib borgan. Ayni paytda Britaniya muzeyida Nabonid tomonidan topilgan yozuvli taxtacha saqlanmoqda.

“Arxeologiya” atamasinining o`zi ikkita yunon so`zidan iborat bo`lib, “arxayos”» - qadimgi va “logos” - fan - bilim ma'nosini anglatadi. Dastlab bu atamaniqadimgi yunon faylasufi Platon (m.a. 427-347 yy) o`zining “Gippiy”diologida (“Katta Gippiy bilan suhbat”), qadim zamon haqidagi fanni nazarda tutib, juda keng ma'noda ishlatgan. Platon dan so`ng bu atamani mashhur qadimgi tarixchi Galiqarnaslik Dionisiy o`z asarlarining birida qo'llagan. Galiqarnaslik Dionisiy Rim tarixini Puni urushigacha bo'lgan davrini “Rim arxeologiyasi”deb atagan. Xuddi shunga o'xshash iborani yunon yozuvchisi Diodor Sitsiliyskiy (mil. avv. 80-29 yy.) ham qayd etgan. Ya'ni Troya urushigacha bo'lgan davr ellinlar nazarida “Ellinlar arxeologiyasi” hisoblangan.

Ushbu fanning mohiyati turli davrlarda turlicha talqin qilingan. Qadimgi yunon muarrixlari nazarida bu atama ibridoiv davr va qadimgi davr tarixini qamrab olgan. Rim imperiyasining mualliflari “qadimiyat” – antiquit atesatamasini qo'llaganlar. O'rta asrlarda “arxeologiya” atamasi “qadimiyat” atamasi tomonidan siqib chiqarilib, ancha vaqtgacha yodga olinmaydi.

Yevropa Uyg'onishi davrida arxeologiya tushunchasi ostida ko'pincha qadimgi Rim va Gretsiya tarixi, xususan san'ati tushunilgan. Amalda arxeologiyaga bu davrda muzey-antikvar ishining bir qismi sifatida qaralgan va u antik haykallar va idishlar to'plamini to'ldirishga xizmat qilgan.

1767 yilda Gettingen universiteti prof. Kristian Gottlib Geyni “arxeologiya” atamasiga “Yunon va rimliklarning qadimgi san'ati arxeologiyasi” kursi bo'yicha

ma’ruza o’qib, uni qaytadan muomalaga kiritadi. Lekin bu yunonlarning “arxeologiya” ga bergen ta’riflari singari keng qamrovli bo’lmay, faqat klassik san’at yodgorliklarini ta’riflash va klassifikatsiya qilish bilan cheklangan. Bugungi kunda ham dunyo amaliyotida arxeologiyaning predmeti va vazifalariga doir tushunchalarda yakdillik yo’q. Ayrim mamlakatlarda arxeologiyaga inson haqidagi fan – antropologiyaning bir qismi sifatida qaraladi, ayrim mamlakatlarda esa arxeologiya qadimgi dunyo tarixini anglatadi.

Arxeologiyaning fan sifatida rivojlanishida XVIII asr boshlarida Vezuviy vulqonining otilishi natijasida halok bo’lgan Pompey va Gerkulanum shahar xarobalarining o’rganilishi muhim ahamiyatga ega bo’ldi. Ushbu shaharning qoldiqlari ilk bor XV asr oxirida topilgan edi. Qazish ishlari esa 1748 yilda, R.Dj. Alkuberre rahbarligida boshlangan. Pompeydagi qazishmalar chog’ida 1600 yil avval halok bo’lgan odamlarning hayotini tiklashga muvaffaq bo’lindi va qazishmalarni olib organ olimlar ilk bor kundalik hayot ashyolarini o’rganish qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligini tushundilar.

Napoleon harbiy yurishlari Misr qadimgi tarixini o’rganishda muhim voqeа bo’ldi. Napoleonning Misr yurishi vaqtida 1799 yilda fransuz askarlari tomonidan “Rozett toshi” ning topilishi arxeologiya tarixidagi eng muhim voqealardan biri bo’ldi. Aynan shu tosh fransuz olimi J.F.Shampalyonga 1822 yilda Misr iyerogliflari sirini ochish imkoniyatini berdi.

Ammo bu kabi yakka holatlar hali fanning yuzaga kelganligini bildirmas edi. Arxeologiyaning fan sifatida uzil-kesil shakllanishiga XIX asrda boshlangan yirik ko’lamdagи qazishmalar ta’sir ko’rsatdi. Bu davrda Ikkidaryo oralig’i va Misrning qadimgi sivilizatsiyalari kashf etildi. Masalan, 1845 yilda G. Leyyard tomonidan Ossuriya poytaxti Nineviyani o’rganilishi ajoyib natijalar berdi. Arxeologlar 1849 yil dunyoga Oshshurbanipalning kutubxonasidan 20 mingdan ortiq mixxat matnlarini taqdim etdi. Misrda birinchi muntazam arxeologik tadqiqotlar boshlandi.

Arxeologiya tarixida 1871-73 yillarda nemis havaskor arxeologi G.Slimman tomonidan Kichik Osiyodagi Troya shahrining, 1876 yilda Mikenaning o’rganilishi muhim voqeа bo’ldi. 1900 yildan boshlangan arxeologik qazishmalar tufayli ingliz arxeologi A.Evans tomonidan Kritdahi Minoy sivilizatsiyasining kashf etilishi esa anntik davr tarixini o’rganish va bu boradagi ayrim muammolarni hal qilishda katta ahamiyatga ega bo’ldi.

XX asrda arxeologiya fani taraqqiyoti yangi bosqichga ko’tarildi va jahon xalqlari tarixinining moddiy asoslarini o’rganishda muhim fanlardan biriga aylandi. Xususan, 1922 yilda ingliz arxeologi G.Karter boshchiligidida Misr firavni Tutanxamon maqbarasining ochilishi juda katta shov-shuvga sabab bo’ldi.

O’rta Osiyo xalqlarining moddiy va madaniy yodgorliklarini o’rganish XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. Shu davrdan o’lkadagi dastlabki arxeologik qidiruv va qazish ishlari boshlanadi. 1895 yil 11 dekabrda V.V. Bartoldning taklifi va bevosita rahbarligida Turkiston arxeologiya havaskorlari to’garagi tuzildi.

V.V.Bartold, V.A.Jukovskiy, N.I.Veselovskiy kabi mashhur sharqshunoslar hamda A.L.Kun, V.L.Vyatkin, I.T.Poslavskiy, N.P.Ostroumov va boshqa havaskorlarning O’rta Osiyo arxeologiyasi va tarixini o’rganishdagi xizmatlari kattadir. Jumladan, 1908 yilda V.L.Vyatkin boshchiligidida Samarqandning

Cho'ponota mavzesida Ulugbek rasadxonasi qoldig'inining qazib ochilishi olamshumul kashfiyat edi.

O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston hududidagi arxeologik tadqiqotlar XX asrning 30-yillaridan boshlab avj oldi. Bu ishni sobiq SSSR Fanlar akademiyasining O'rta Osiyo respublikalaridagi filiallari, Leningrad va Moskvadagi ilmiy tashkilotlar, alohida Moddiy madaniyat tarixi akademiyasi (hozirgi Rossiya Fanlar rakademiyasining Arxeologiya instituti), Sharq madaniyati muzeysi kabi tashkilotlar olib borgan.

Sho'rohokimiyatiyillarida O'rta Osiyo arxeologiyasiri vodjlanishida S.P.Tolstov, M.E.Masson, M.M.Dyakonov, A.P.Okladnikov, M.M.Gerasimov, V.G.Grigurev, A.Yu.Yakubovskiy, Ya.G'.G'ulomov, M.P.Gryaznov, A.N.Bernshtam, A.I.Terenojkin, B.A.Latinin, A. M. Belenitskiy, V.A.Shishkin, V.M.Masson, B.A.Litvinskiy, G.A.Pugachenkova, M.A.Itinasin garimashhurar xeologlarning xizmatlaribe qiyosdarajada kattadir. 1970 yilda O'zRFA Arxeologiya institutining tashkiletish har xeologik tadqiqotlarning ko'lami niyanadakengaytirdi.

XX asrdavomida O'rta Osiyo arxeologlarining kattaguruhi yetishibchiquanbo'lib, ular jumlasiga A.Asqarov, A.Muhammadjonov, U.Islomov, P.I.Albaum, Yu.F.Buryakov, R.X.Sulaymonov, N.Ne'matov, V.A.Ranov, I.Ahrorov, V.I.Sarianidi, K.Akishev, X.Oltmishboev, A.V.Vinogradov, V.N.Igodin, O.K.Berdiev, M.R.Qosimov, T.Mirsoatov, E.V.Rtveladze, M.Jo'raqulov, E.B.Bijanov va boshqalarnikiritish mumkin.

Mustaqillikyillarida arxeologiyafa nitaraqqiyotiyangibosqichgako'tarildi. Tarixiyobidalarda arxeologik qazishishlar kengmiq yosda olib borildi, ularning natijalar iesari solalar, maqolalar tarzida keng jamoatchili ke'tiborigahavo laqilindi. Arxeologlar chet ellik hamkasblari bilan hamkorlikda ish olib bormoqdalar.

## 2-savolning bayoni:

Ma'lumki, tarix fani ikki xil manbalarga tayanib ish ko`radi – yozma va moddiy. Tarixning eng qadimgi davriga oid yozma manbalarning yo`qligi arxeologiyaning fan sifatida alohida ajralib chiqishiga sabab bo`lgan.

Arxeologiya faniga bir xil, mukammal ta'rif berish qiyin. Qisqacha Oksford lug'atida yozilishicha, arxeologiya – bu "insoniyatning qadimgi tarixini, ayniqsa tarixgacha bo'lgan davrini asosan qazishmalar asosida o'rganish". Xalqaro Webster lug'atiesa arxeologiyafa tarixiy xalqlar madaniyati bosqichlarini suyak qoldiqlari va yerdan opilgan insonlarfaoliyatining ob'ektlari orqali ilmiy tadqiq qilish, deb ta'rif beradi. Arxeologiyaga yana bir qancha ta'riflar berilgan: "Arxeologiya antropologiya fani bo'lib, insoniyat o'tmishini uning moddiy qoldiqlari orqali tadqiq etadi"; "Arxeologiya – insonlarning qazilma qoldiqlaridan antropologiya yoki san'at tarixi kabi boshqa fanlar muammaolarini yechishda foydalanish" va h.k.<sup>1</sup>

<sup>1</sup>Peter L. Drewett. Field Archaeology: An Introduction. – London: USL Press, 1999. –P. 1

Xullas, arxeologiya insoniyat o'tmishini asosan qazishmalar orqali qo'lga kiritiladigan moddiy manbalar asosida o'rganadigan tarix fanidir. Moddiy manbalar, yozma manbalardan farqli ravishda, tarixiy hodisalar haqida to'g'ridan – to'g'ri hikoya qilmaydi va ularga asoslangan tarixiy xulosalar ilmiy rekonstruksiya natijasidir.

Moddiy madaniyat manbalari yozma manbalardan ko`p marta qadimiyroq. Kishilar yozuvni 5000-6000 yillar oldin o`rgangan bo`lsa, tosh va boshqa ashyolardan qurol yasash bundan oldingi 2,5-3 mln yillarga borib taqaladi. Demak, kishilik jamiyati tarixining juda katta davri arxeologik manbalarga tayangan holda qayta tiklab talqin qilinadi. Arxeologiya o'tmishni yozma manbalar moddiy manbalardan ko`proq ma'lumot berishga qodir bo`lgan davrgacha o`rganadi. Arxeologiyaning o`rganish ob'yekti xronologiyasi XV – XVI asrlardan yuqoriga ko`tarilmaydi. Ammo ba'zi hollarda arxeologiya XX asrga oid yangi ma'lumot berishi ham mumkin.

Hozirgi zamon arxeologiya fanining vazifasi O'rta Osiyoning qadimgi davr yodgorliklarini tekshirishga kata hissa qo'shgan olim M.E.Masson ta'riflaganidek, kishilik jamiyati o'tmishi va faoliyatini xilma-xil izlarga, aksariyat hollarda moddiy yodgorliklarga, imkoniyat bo'lgan joylarda esa yozma manbalarga, til, etnografiya, geologiya, tuproqshunoslik, antropologiya, zoologiya, botanika va boshqa fanlarning yutuqlariga tayanib o`rganishdir.

Arxeologiya ibtidoiy davr odamlari ishlatgan tosh quollar, qazilma hayvon suyaklari, ilk sopol buyumlar, taqinchoqlar, qurol-yarog`lar, tanga pullar, qadimiy arxitektura inshootlari, haykallar, yozuvsular, suratlar, xullas inson mehnati bilan yaratilgan barcha ashyolarni o`rganadi. Arxeologiya bu manbalar asosida tarixiy jarayonni tiklaydi.

Arxeologik manbalarning ko`pchilagini yerdan qazib olinishini nazarda tutgan holda, arxeologiyani ko'pincha belkurak bilan qurollangan fan deb atashadi. Qadimgi buyumlarni o`rganish arxeologiyaning birdan – bir maqsadi emas. Topilmalar tarixiy tadqiqotlar uchun faqat material sifatida ilmiy qimmatga ega bo`ladi, xolos. Arxeologlar qazib olingen buyumlarni ta'riflash, ularning yoshini, qaysi davrga mansubligini va shu kabilarni aniqlash bilan ham cheklanib qolmaydilar. Arxeologiyaning asosiy maqsadi aniqlangan manbalar vositasida o'tmish tarixining barcha qirralarini tiklashdan iborat. Arxeologiyani o`rganish o'tmish va bugungi kunni uzviy birligini tushunishga imkon beradi, tarixiy jarayonning, jahon tarixining fundamental, teran muammolarinining qonuniyatlarini ochib beradi va insoniyatning hamda jahon madaniyatining umumiyligi, jahon sivilizatsiyasining ilk ildizlari haqidagi qarashlarni shakllantiradi.

Arxeologiya jamiyatning iqtisodiy taraqqiyoti o`zgarishini ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlari asosida emas, aksincha ishlab chiqarish usullari va qurollarining o`zgarishi asosida baholashga harakat qiladi. Hozirgi kunda arxeologik tadqiqotlar yer sharining barcha hududida davom ettirilmoqda. Jumladan, O'zbekistonda ham so`nggi yillarda arxeologiya fani sohasida ko`pgina yutuqlar qo'lga kiritilmoqda. Arxeologiya fani oldida bugungi kunda ba'zi muammolar ham ko`ndalang turibdi. Rivojlanish jadal sur'atlarda borayotgan bugungi kunda ko`pgina arxeologik yodgorliklar buzilib ketmoqda. Arxeologlar oldidagi vazifa insonlar yoki

tabiat kuchlari faoliyati natijasida yo`q bo`lib ketish xavfi ostida turgan yodgorliklarni birinchi bo`lib o`rganishdir.

### **3-savolning bayoni:**

Arxeologiya insoniyatning o`tmish tarixini o`rganishda arxeologik ekspeditsiyalar natijasida topilgan ibridoiy makonlar, qishloqlar, shaharlar, mudofaa va suv inshootlari, qoyatosh rasmlari hamda boshqa moddiy manbalarga suyanib ish ko`radi. *Arxeologik manbalarshartli ravishda* 2 turga bo`linadi:

1. Tabiiy manbalar(*ekofakt*) - inson va hayvon suyaklari, o'simliklar qoldiqlari va geologik qatlamlardan iborat bo`lib, ularni asosan zoologlar va botaniklar o`rganadi.

2. Sun'iy yoki inson tomonidan yaratilgan manbalar(*artefakt*) - mehnat qurollari, yarog'-aslahalar, sopol idishlar, san'at va zeb-ziynat buyumlari, qoyatosh rasmlari, yozuv hamda uning manbalari va hakozolar.

*Arxeolgik ekspeditsiyalar* deyilganda viloyat, shahar, tuman, qishloq va boshqa joylarda moddiy madaniyat yodgorliklarini dala – tadqiqot yo`li bilan o`rganish usuli tushuniladi. Arxeologik ekspeditsiyalar va otryadlarning ish uslubi uch pog`onali bo`lib, arxeologik qidiruv, sinov va qazish ishlarini amalga oshirishdan iborat. Uning vazifasi yodgorlikning paydo bo`lish davri, qancha yashagani va boshqa xususiyatlarini aniqlash hisoblanadi.

*Qidiruv* jarayonida quyidagi vositalardan foydalilanadi: piyoda yurish - yer ustidagi ashylarni o`rganish; transport yordamida - yirik arxeologik yodgorliklar xaritaga tushiriladi; havodan kuzatish - samolyot yordamida aerofotosurat olish orqali qadimiy suv inshootlari va mudofa devorlari kuzatiladi; suv osti arxeologiyasi - ko`pincha okean va dengizlarda suv ostida qolgan yodgorliklar o`rganiladi.

Arxeologik qazishmalar arxeologik qidiruv va sinov natijasida qo'lga kiritilgan ma'lumotlarga tayanib, mazkur joyda yodgorlikni to'liq qazib ochishdan va yodgorlik haqida xulosalar chiqarishdan iborat bo`ladi. *Qidiruv* (arxeologik razvedka) va arxeologik qazuv davridayoq arxeologik manbalarni o`rganish boshlanadi. Qidiruv va qazuv chizmalar chizish, suratga tushirish va kundalik yuritish bilan qat'iy hujjatlashtirib boriladi.

Shuni ta'kidlab o`tish kerakki, arxeologik yodgorliklarning bir qismi yer ostida va boshqa xillari yer ustidadir. Bu yodgorliklarni qazish jarayonida arxeologlar madaniy qatlama duch keladilar. *Madaniy qatlam* deyilganda insoniyatning turmushi, xo`jaligi va g`oyaviy faoliyatining izlari saqlanib qolgan tuproq qatlami tushuniladi. Chunonchi, g`or – makon, ochiq manzilgoh, qishloq va shahar madaniy qoldiqlarining jamiyat rivojlanishi bilan bog`liq holda joylanishi madaniy qatlamni ifodalaydi. Arxeologik yodgorliklar bir yoki bir necha o'n madaniy qatlamdan iborat bo`lib. Ularning qalinligi bir necha santimetrdan 30-35 metrgacha borishi mumkin. Bu esa mazkur joyda odamlar qancha vaqt yashaganligiga bog`liq bo`ladi.

Qazish jarayonida «shurf», «raskop», «transheya» kabi kesma chuqur xandaqlar kovlanib, ular asosida yodgorlikning davrini belgilovchi madaniy qatlamlar aniqlanadi. *Shurf* aslida nemischa so`z bo`lib, «qazimoq» degan ma'noni anglatadi. Shurf solish deganda yodgorlikdagi madaniy qatlam qalin-sayozligini o`rganishga qaratilgan dastlabki qazish ishlari tushunilib, shurf tashlashdan asosiy maqsad

stratigrafiyani aniqlash va yodgorlik haqida dastlabki ma'lumat olishdir. Shurf ko'pincha kvadrat va to'g'ri to'rburchak shakllarida bo'lib ( $16\text{ m}^2$ dan katta emas), chuqurligi va kengligi madaniy qatlamga qarab har xil bo'lishi mumkin.

*Stratifrafiya* (lot. "strato" – qatlam, "grafo" - yozaman) – yodgorlikda madaniy qatlamning ketma-ket joylashishi. Stratifrafiyani aniqlash ko'pqatlamli yodgorliklarning nisbiy yoshini, shuningdek, topilmalar majmuining bir davrga mansubligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Ulk bor stratigrafiya nazariyasi Dj.Xatton tomonidan Edinburgda nashr etilgan asarida ilgari surilgan. Biroq o'sha davrda ko'pchilik arxeologlar geologiyaning stratigrafiya tushunchasini arxeologiyada qo'llashning nazariy ahamiyatini ko'ra olishmadi. Stratigrafiya tushunchasining amaliy imkoniyati amerikalik olim A.Kidder va ingлиз arxeologlari M.Uiler hamda K.Kenonlarning tadqiqotlariga qadar keng tan olinmadı<sup>1</sup>.

Keng ko'lamdagi qazish natijasida madaniy qatlam to'la ochilib, inson faoliyatining izlari bo'lмаган yergacha kavlab tushiladi. Arxeologiyada u "materik" – bezovta qilinmagan yer deb ataladi.

Madaniy qatlamlardan topilgan buyumlar ibridoiy va qadimiy tarixni o`rganishda muhim manbalardir. Arxeologiyada qo'llaniladigan «yodgorlik» va «manba» so`zlari bir ma'noni anglatadi. Arxeologiyada mustahkamlangan turar joylar – «shahar xarobalari»; mustahkamlanmagan qadimiy turar joylar – «qishloq xarobalari», juda qadimgi xarobalar esa «makonlar» deb ataladi.



Qazish jarayoni



Transheya

Olingan ashyoviy dalillar belgilangan mahalliy joyda raqamlanadi va maxsus laboratoriyyada tadqiqot qilinadi. Tadqiqot jarayonida arxeologik davrlar bosqichi aniqlandi. Olingan ashyolar o`rganilib, unga xronologik jadvali ishlab chiqiladi. Xronologiya bu turar joyning, birorta qabriston yoki ashyoning paydo bo`lgan davrini aniqlanishidir. Bundan tashqari geologik, biologik, ximiyaviy, fizikaviy uslublar yordamida ham xronologik tashxis qo'yiladi.

*Arxeologiyada davrlashtirish* masalasi nihoyatda muhim hisoblanadi. Shu o'rinda qadimgi rim faylasufi va shoiri Lukretsiy Karni (tax. m.a. 99-55 yy) eslab o'tish joiz. U o'zining "Narsalarnig tabiatи" asarida insoniyat tarixini mehnat qurollari

<sup>1</sup>Peter L. Drewett. Field Archaeology: An Introduction. – London: USL Press, 1999. –P. 11

yasalgan materialga asoslanib uch davrga: tosh, mis (bronza) va temir davriga bo'lishni taklif etgan. Bu bilan u zamonaviy arxeologiyaning muhim qarashlarini deyarli o'n to'qqiz asr oldin "ko'ra oldi".

1813 yilda daniyalik tarixchi V.Simonsen qadimgi davr - tosh, bronza va temir davriga bo'linishini taklif qilgan bo'lsa-da, o'z nazariyasini arxeologik jihatdan isbot qilib bera olmagan. XIX asrning birinchi yarmida daniyalik arxeolog, Kopengagen muzeyining direktori X. Tomsen (1778-1865 yy) qiyosiy tahlil metodini qo'llagan holda insoniyat tarixining uchta davrga - tosh, bronza va temir davrlariga bo'linishi haqidagi fikrni ilmiy asoslab berdi.

1862 yilda D.Lebbok lord Evbyuri insoniyatning eng qadimgi tarixini ikki qismga: paleolit va neolitga ajratishni taklif qildi. Shved arxeologi Gildebrand, Germaniyadagi Shverin muzeyi direktori Fredrix Mel, daniyalik arxeolog I.Ya.Vorso, fransuz arxeologi G.Mortilyelar o'z tadqiqotlari bilan arxeologik davrlashtirishni rivojlantirdilar. Shu tariqa arxeologiyaning asosiy tushunchalaridan bo'lgan insoniyat tarixini davrlashtirish asoslari yaratildi.

Arxeologik davrlashtirish asosan mehnat qurollari rivojlanishi va ularni yasalish texnologiyasiga qarab amalga oshiriladi. Bugungi kunda arxeologik davrlashtirishda quyidagi bosqichlar ajratiladi :

- a) Tosh davri (paleolit, mezolit, neolit)
- b) Bronza davri (eneolit, bronza)
- v) Temir davri.

Ushbi davrlarning ichki bosqichlari to'g'risida olimlar orasida yakdil fikr yo'q.


### **3-savolning bayoni:**

Arxeologik tadqiqotlarda ko`pgina boshqa fanlarning ma'lumotlaridan foydalilaniladi. Masalan, arxeologik manbalarning yoshini aniqlashda tabiiy fanlarning o`rni beqiyos. Tosh davriga oid yodgorliklarning yoshini aniqlash uchun *geologiyaga* murojaat qilinadi. Geologiya tekshirishlari bilan aniqlanadigan iqlim o`zgarishlari arxeoliya xronologiyasi uchun juda muhimdir. Bunda arxeologlarga geologik qatlamlar sanasi yordam beradi. Ba'zi hollarda davrni aniqlashda *paleontologiya* ma'lumotlari yordamga keladi. Agar manzilgohda qirilib ketgan hayvonlar suyagi topilsa, uning turi va yashagan davrini bilgan holda yodgorlik yoshini aniqlash mumkin bo`ladi. Ba'zan esa *paleobotanika* ma'lumotlaridan foydalilaniladi. Tuproqda saqlanib qolgan o`simlik qoldiqlari yordamida davrni aniqlash imkonи bo`ladi. Chang analizi usuli bu ishda yordam beradi. Qadimgi o`simliklar changi torfda yaxshi saqlanadi, ularni tuproqdan ham tekshirib aniqlash mumkin. Qadimgi qatlamlardagi changlarni mikroskopda ko`rib o`rganish natijasida har bir qatlAMDAGI o`simlik turlarining miqdor nisbati, ya'ni tekshirilayotgan qatlamda aksini topgan o`sha davrning o`simliklar tarkibi aniqlanadi.

Tabiiy va aniq fanlar yordamida xronologiyani aniqlashning arxeologiyada keng qo'llaniladigan boshqa usullari ham mavjud. *Radiokarbon usuli* hayvon yoki o`simlik organizmida to`plangan uglerodning parchalanishiga asoslangan. Juda ham qadimgi yodgorliklar yoshini aniqlashda *kaliy – argon usuli* qo'llaniladi, bu usul ushbu elementlar izotoplarining parchalanishini aniqlashga asoslangan. Arxeologiyada shuningdek, *arxeomagnit, trek usullaridan* ham foydalilaniladi.

Topilmalarning yoshidan tashqari, ularning ishlab chiqilgan joyini aniqlash ham muhim. Bunda arxeologiyaga *spektografiya*, *metallografiya* kabi usullar qo'llaniladi. Qadimgi metallurgiyani o'rghanishda ham metallografiya va spektral analiz usullaridan foydalaniladi. Yodgorliklarning yoshini aniqlashda qo'llaniladigan tabiiy-ilmiy usullar arxeologik tadqiqotlarni olib borishda juda katta ahamiyatga ega.

Arxeologik qidiruvlarni olib borish jarayonida ham turli fanlar yordamga keladi. Turli yodgorliklarni qidirishda *geomagnit razvedka usuli* qo'llaniladi. Bunda yerning magnit maydoni kuchini o'lchash orqali kulolchilik o'choqlari, devorlar, temir buyumlar, yo'llar va boshqalarni topish mumkin. Arxeologlar yer qatlamlarining turlicha elektro'tkazuvchanlik xususiyatidan ham foydalanishadi. Tosh qurilishlar elektr to'lqinlarini qiyinroq o'tkazadi. O'rganilayotgan hududdagi qatlamlarning elektro'tkazuvchanligini o'lchash natijasida qazishdan oldinroq qadimgi inshootning chizmasini olish mumkin. Qadimgi inshoot chegaralarini tuproqning ximiyaviy analizi orqali ham aniqlash mumkin. Qadimda chirigan organik moddalar yerni fosfat bilan boyitgan. Tuproqdagi fosfat miqdoriga qarab madaniy qatlam tarqalgan chegaralarni aniqlash imkonи bor. Bugungi kunda arxeologik qidiruv jarayonida hattoki kosmosdan turib kuzatish usullari qo'llanilmoqda.



Tanzaniyadaga Laetolidan topilgan insonning oyoq izlari. Kaliy - argon usulida aniqlangan yoshi- 3,5- 3,8 mln. yil.


Arxeologiya *antropologiya* va *lingvistika* fanlari bilan ham yaqindan hamkorlik qiladi. Arxeologik topilmalar orasida eng qadimgi odamlarning suyaklari uchraydi. Bu topilmalarni baholash esa odamlar qiyofasi, kelib chiqishi va rivojlanishini o'rGANUVchi antropologiyaning zimmasidadir. Arxeologlar ayniqsa *etnografiya* fani ma'lumotlarga ko'p murojaat qilishadi. Qadimgi odamlar turmushini yaxshiroq o'rGANISH uchun ba'zi bir hozirgi xalqlarning ham hayotini tadqiq etish lozim bo'ladi. Hanuzgacha ibridoiy munosabatlar qoldiqlari saqlanib kelayotgan qabila va xalqlarga oid ma'lumotlar ba'zi muammolarni oydinlashtirishda yordam beradi. O'z navbatida, xalqlarning urf – odatlari, xo'jaligi va madaniyatini o'rGANISHDA etnograflar ham arxeologiya ma'lumotlaridan foydalanishadi. Bu ikki fan ko'p jihatdan bir – biriga bog'liq.

Arxeologik tadqiqotlarda yuqorida aytib o'tilganidek, turli maxsus tarix fanlari bilan aloqadorlikda ish ko'radi. Bularga numizmatika, epigrafika, sfragistika kabi fanlar ham misol bo'ladi.

*Numizmatikatangalar* haqidagi fan bo'lib, u tangalardagi rasmlarni, yozuvlarni, izohlarni, ularning og'irligi, o'lchami, sifatini, kim tomondan zarb

etilganini o`rganadi. Insoniyatning tarixini va madaniyatini o`rganishda tangalarning ahamiyati katta. Xususan, tangalar tarix, siyosat, iqtisod, san'atshunoslikning vujudga kelishi bilan bog`liq bo`lgan bir qancha muammolarni yechishda muhim rol o`ynaydi. Arxeologik qazilmalar davomida topilayotgan imoratlar, qabrlar, madaniy qatlamlar va qolaversa, turli arxeologik topilmalarning "yoshini" aniqlashda arxeologlar ko`pincha tangalarga asoslanadilar.

Moddiy manbalarning o`ziga insoniyat tarixi haqida to`liq ma'lumot berishga kamlik qiladi. Shu sababli yozma manbalarning o`rni bu borada beqiyosdir. Tarixiy fanlar tizimidagi *epigrafika* fani insoniyat tarixining turli davrlarida yozuvning shakllanishi va rivojlanishi tarixini o`rganadi. Turli davrga oid yodgorliklardagi bitik va yozuvlarni tadqiq etish, bu yozuvlarning kelib chiqish tarixini, eng muhim yozuv turlarining rivojlanishi masalalarini o`rganish epigrafikaning vazifasi hisoblanadi. O`rganilayotgan davr bizning zamonga qanchalik yaqinroq bo`lsa, yozma manbalarning mazmuni shunchalik boy va to`liq bo`ladi. Yozma manbalardan foydalanishda ularni moddiy manbalar bilan birlashtirish zarur.



Jarqo`tondan topilgan belgi-yozuvli sopol parchalari

Ma'lumki, tarixda davrlashtirish va *xronologiya* muhim o`rin tutadi. Insoniyat tarixi bir – biridan tubdan farq qiluvchi davrlarga bo`linadi. Turli tarixiy voqealar vaqtini aniqlash xronologiyaning vazifasidir. Xronologiya ko`pincha arxeologik ma'lumotlarga asoslanadi.

Arxeologiya fani sfragistika fani bilan ham yaqindan hamkorlik qiladi. *Sfragistika* (yunoncha sphragis - muhr) tarix fanining muhrlarni o`rganadigan sohasi. Sfragistika materiallari amaliy san'at, geraldika, onomastika va shu qatorda arxeologiyani o`rganishda muhim manbadir. Arxeologik topilmalar orasida uchraydigan muhrlar, shuningdek hujjatlardagi muhrlar ba'zi arxeologik yodgorliklarning xronologiyasini oydinlashtirishda yordam beradi.

Arxeologiya fani bilan hamkorlik qiladigan fanlardan yana biri geraldikadir. *Geraldika* gerblar haqidagi fan bo`lib, muayyan bir davrda, ma'lum davlatlarning ramziy belgilari haqida ma'lumot beradi. Geraldika fani o`tmishda mavjud bo`lgan gerb, tamg'a, muhr va nishonlarni o`rganadi. Ma'lum bir davrda mavjud bo`lgan davlatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy ahvolini ochib berish, hukmdorlar, sulolalar, shaxslarni davrlashtirishda geraldika arxeologiya bilan hamkorlik qiladi. Arxeologik qazishmalar O`zbekiston hududida qadimdan muhrlar, tangalar va buyumlarga, urug` yoki hunarmandchilik uyushmalarining gerb suratlarini tushirish keng tarqalganligini ko`rsatadi. Ular ajdodalarimizning iqtisodiy va ijtimoiy hayotini, turmush madaniyati

va san'atini o'rghanishga, davlat va sulolalar tarixini oydinlashtirishga xizmat qiluvchi manbadir.

### **Nazorat savollari:**

1. Arxeologiya fanining ma'lumotlari jahon xalqlari o'tmish tarixini yoritish uchun yetarlimi?
2. Kishilik jamiyatiniñ yuzaga kelishi haqidagi arxeologik ma'lumotlarni yakuniga yetgan tadqiqot deb hisoblash mumkinmi?
3. Arxeologiyaning boshqa tarixiy fanlardan farqli tomonini ko'rsatib bering?
4. Arxeologiya fani qanday manbalar asosida ish ko`radi?
5. Arxeologik tadqiqot nimalarni ifoda etadi?
6. Topilgan ashylarning davri qanday aniqlanadi?
7. Arxeologiya fani bilan bog`liq boshqa fanlarni sanab bering?

### **2-MAVZU: ANTRHOPOGEN DAVRI**

#### **Reja:**

1. Antropogen haqida umumiyl tushuncha
2. Insoniyatning taraqqiyotbosqichlari.

### **Mavzugaoitdaryanchtushunchavaiboralar:**

Arxey, proterozoy, paleozoy, mezazoy, kaynazoy, to`rtlamchidavr, pleystotsen, eopleystotsen, neogen, dunay, gyunts, mindel, riss, vyurm, golotsen, monosentrizm, polisentrizm, gominidtriada, pramat, driopitek, ramapitek, antroplar, arxantrop, paleoantrop, neoantrop, avstrolopitek, zinjantrop, sinantrop, neandertal, kromanyon, Homohabilis, Homoerектus, Homoergaster, Homosapiens.

### **1-savolning bayoni:**

Olimlarning ilmiy farazlariga ko'ra, biz yashab turgan Yer sayyorasi 5 milrd. yil muqaddam paydo bo'lib, dastlab unda hech qanday hayot bo'lmas. Geologik jihatdan olimlar Yerqobig`ining paydobo`lgan davridan boshlab toho zirgikunga qadar bo`lgan taraqqiyotini 5 eraga - arxey, proterozoy, paleozoy, mezazoy, kaynazoy, gabob`ladilar. Arxeyer asidayersharihal qizib turgan bo`lib, faqatshueraningo xiri dagine dastlabki juda oddiy organizmlar paydobo`lgan.

Paleozoyer asibesh davrgabob`linadi: kembriy, silur, devon, toshko`mir, vapermdavrлari. Budavrda suvdavaquruqlik dayashovchi hayvonlar paydobo`ladi. Mezozoyer asibesh davrgabob`linadi: trias, yuravabo`rdavrлari. Bu davrda sudralib yuruvchilar paydo bo`ladi

Kaynazoy - yangi hayot erasi deb nomlanadi, bu davrda sut emizuvchi hayvonlar tarqaladi. Kaynazoy erasi ikki qismga ajratiladi. Uning umumiyl davri 60-70 million yilni tashkil etadi. To`rtlamchi davr kaynazoy erasining ikkinchi bosqichi bo`lib, 3 - 3,5 mln. yilni o`z ichiga oladi. *Antropogen* (grekcha «antropos» - inson, «genezis» - tug`ilish) yoki to`rtlamchi davr odamning kelib chiqishi va rivojlanishi bilan bog`liq. «Antropogen» atamasini birinchi bo`lib 1922 yilda rus olimi A.P. Pavlov fanga kiritgan.

To`rtlamchi davr boshlarida iqlim hozirgiga nisbatan issiqroq bo`lib, Pireney yarimorolidan Xitoygacha bo`lgan maydonlar subtropik, Osiyoning janubi va Afrikaning katta qismi esa tropik mintaqalar edi. Antropogenning davrlashtirilishiga iqlim o`zgarishlari asos bo`lgan. Antropogen eopleystotsen, pleystotsen va golotsen bosqichlariga bo`linadi.

Quyida biz antropogen davr bosqichlarini tosh asri arxeologiyasining bosqichlari bilan qiyosiy jadvalini keltiramiz:

	To`rtlamchi davr bosqichlari	Tosh asri sanasi (ming yil hisobida)	Qadimgi tosh asri davrlari
Pleystotsen (muzliklar)	Golotsen	10            10	
	Vyurm	-80            35	So`nggi paleolit
	Riss – vyurm	-120            -100	Muste
	Riss	-200            -300	O`cta va so`nggi ashel
	Mindel-riss	-350	Qadimgi ashel
	Mindel	-500	
Eopleystotsen	Gyunts-mindel	-700            -700	
	Gyunts	-1000	Olduvay
	Dunay	-2000            -2600	
Neogen			


Antropogenez jarayonining boshlanish vaqtihaqidaturlich qarashlarmavjud. Keyingiyillardagi tadbirkotlarin soniyatning yoshiniyanada uzaqtirmoqda. Ba'zi olimlarning fikricha, antropogen davrning quyicheckerasini 3-3,5 mln. yil oldingasingiljiti shzarur.

Ilmiyanatomikma'lumotlarda insoniyatning kelibchiqishasoslari ilk primatlardan va ularning hozirdayo`qbo`lib ketgan avlodlari avstrolopiteklargaborib qala diegan fikrb ayonetiladi. Avstrolopiteklar janubmay munihisoblanib, uningajdodlar parapitek, propliopitekvadriopiteklar hisoblanadi. Avstrolopitek miyaqutisi ninghajmi 500-600 sm<sup>3</sup> bo`lib, uikkioyoqdatikyurgan. Homo — odamning yuzaga kelish jarayoni haqidajudako` pilmiytalqinlarmavjud bo`lib, ular keyingisahifalar dayoritiladi.

Odamning kelib chiqishi va rivojlanishi masalasi bilan *antropologiya* fani shug'ullanadi. Antropologiya uch asosiy bo`limga bo`lib o'r ganiladi: 1) *morfologiya*; 2) *antropogeniya* yoki *antropogenez*; 3) *irqshunoslik* yoki *etnik antropologiya*.

*Morfologiya* odamning jismoniy tuzilishidagi belgilarning yosh, jins, kasb va tashqi sharoitga qarab o`zgarishini o'rganadi; *antropogeniya* (*antropogenez*) odam jismoniy qiyofasining shakllanishi, mehnat faoliyati, tili, shuningdek jamiyatning dastlabki rivojlanishi jarayonini o'rganadi; *irqshunoslik* qirlarning sinfiy tasnifi, irqlarning geografik jihatdan tarqalganligi, irqlarning shakllanish tarixi bilan shug'ullanadi.

*Paleoantropologiya* qadimgi odam qoldiqlarini o'rganib, muayyan davrdagi odam-larning fiziologik tiplari haqida tasavvur hosil qilishda, mazkur fiziologik tiplarning o'rgarishida turli ijtimoiy va tabiiy sharoitlarning ta'siri masalalariga oydinlik kiritadi. Umuman olganda, bugungi kunda olimlar odamning paydo bo'lishini ilk paleolit davridan boshlab, so'nggi paleolitga kelib odamning antropologik va tarixiy rivojlanishi nihoyasiga yetib, zamonaviy qiyofadagi odamning (*Homo Sapiens*) qaror topishi bilan tugagan.



Odamning paydo bo'lishi tarixiga qiziqish qadimdan, antik davrdan boshlanganligini ko'rish mumkin. Aristotel mazkur masalani yechishga harakat qilgan olimlardan biridir. Aynan "antropologiya" atamasini ham Aristotel ilk marta odamning kelib chiqishini o'rganuvchi fanga nisbatan ishlatgan.

## 2-savolning bayoni:

Biz fan tomonidan isbotlangan, odamning hayvonot dunyosidan uzoq vaqt davom etgan rivojlanish jarayoni oqibatida ajralib chiqqanligi haqidagi fikrga yondashamiz. Odamning yuksak darajada rivojlangan maymunlarga mansubligi to`g`risidagi fikrlarni ingliz tabiatshunoslari Ch.Darvin, T.Geksli va olimlardan K.Liney, J. Lamark, A. Rovernov, keyinchalik Ya.Ya. Rogiskiyarlari ishlarida ko`ramiz.

Evolutsion nazariyaning tan olinishi Charlz Darwin (1809-1882) nomi bilan bog'liqdir. Odamning oliy tipdagi maymunsimon ajdodlar bilan bog'liqligi haqidagi g'oya Ch.Darvinga taalluqli bo'lib, u evalyutsion jarayon natijasida odam huddi shu odamsimon maymundan kelib chiqqanligini ta'kidlaydi. Ya'ni, maymunning odamga aylanishida asosiy omillardan biri – tabiiy saralanish va jinsiy tanlanishdir, degan nazariyani ilgari suradi. 1859 yilda Darwin o'zining "*Tabiiy tanlanish yo'li bilan turlarning kelib chiqishi*" asarida antropogenez jarayoni haqida fikr yuritadi. 1871 yilda "*Odamning paydo bo'lishi va jinsiy tanlanish*" asarida esa yanada aniq dalillar bilan vaqt, davrlar o'tishi bilan bosqichma-bosqich odam bugungi ko'rinishga kelganligini ta'kidlaydi. Jamiyatshunos olimlar maymunning odamga aylanishi jarayonida asosiy omillardan yana biri – mehnat ekanligini ko'rsatib o'tadi.



Olduvaydan topilgan zinjantrop qoldiqlariva tosh qurol. Yoshi: 2,1 – 2,6 mln. yil

Birinchi insonning vatani qayerda degan savol hanuzgacha ochiq qolmoqda. Bu boroda monosentristik va paleosentristik qarashlar mavjud. Ko'pchilik olimlarning fikricha odamzodning dastlabki vatani Afrika qit'asidir.

To'rtlamchi bosqich boshlarida hayvonlarning, shuningdek, maymunlarning xilma xil turlari yashagan. Ular orasida odamsimon maymunlar ham bo'lib, ular odamning eng qadimgi ajdodlari hisoblangan. Ular driopitek, ramapitek, avstrolopiteklar bo'lib, shulardan avstrolopiteklar odamga ko'proq o'xshashligi bilan ajralib turgan.

*Driopiteklar* - o'z o'lchamiga ko'ra hozirgi pavianlar va shimpanzelarni eslatuvchi primatlar. Ushbu guruhga xos morfologik belgilar - qoziq tishlarining va diastemaning bir qadar kichrayganligidir. Driopiteklar 15-12 mln yillar ilgari yashagan. Driopitek – «daraxtda yuruvchi odam» deb nomlanadi. 1856 yilda fransuz arxeologi Larte Avstriyaning Yuqori Goranna degan joyidan yer tarixining miotsen yotqiziqlaridan (bundan 5-12 mln. yil burun) eng oliy tipdagi odamsimon «maymun» driopiteklarga tegishli bo'lgan 3 ta tish qoldiqlarini topgan. Driopitek odamsimon maymunlar turiga kiradi.

*Ramapiteklar* ham odamsimon maymunlar turiga mansub bo'lib, uning qoldiqlari Afrika, Hindiston hududlaridan topilgan. Ramapiteklar 12-7 mln. yillar ilgari yashagan.


Janubiy va Sharqiy Afrikadan topilgan, gominidlar oilasining bevosita ajdodlari bo'lgan avstrolopiteklar, parantroplar va pleziantroplar *avstrolopiteklar* oilasiga birlashtiriladi. Ilk bor avstrolopitek qoldig'i R.Dart tomonidan 1925 yilda Janubiy Afrikadan topilgan. Avstrolopitekning afarensis, afrikanus, robustus, boysei kabi turlari mavjud. Miya hajmi ( $550 - 600 \text{ cm}^3$ ). Avstrolopitek odamzodning hayvonlar olamidan odamlar dunyosiga o'tishda qo'yilgan birinchi qadami edi.

1960 yili Tanzaniyaning Olduvay darasida Luis Liki tomonidan odamsifat mavjudot - *zinjantropning* qoldiqlari topilgan. Ularning yoshi 1,75 – 1,85 mln.yil deb belgilangan. Olim topilgan mavjudotni zinjantrop deb atadi va uning yashagan davrini avstrolopitek va pitekantrop oralig'i deb belgiladi. Miyasining hajmi  $657 \text{ sm}^3$ . U tosh yordamida u daraxtdan o`ziga qurol yasardi. Uni*Homo habilis* (ishbilarmoq odam) deb atashadi. Efiopiyyada topilgan prezinjantropning yoshi undan ham katta, taxminan 2,8 mln.yil.



Luis, MerivaRichardLikilar

Eng qadimiy odamlar *arxantroplar* deb ataladi (arxayos - qadimgi). 1891 yil Yava orolida Ejen Dyubua tomonidan arxantropning qoldiqlari topilgan. Dyubuaning 1894 yilda nashr etilgan “Pitekantropus erectus, inson tipining yava formasi” asarida ular pitekantrop deb atalgan (grekcha pitekos -maymun).



Yava orolida Dyubua tomonidan topilgan pitekantrop qoldig'i

1918-1923 yillarda shved arxeologi G. Anderson qazish ishlarini boshlagan Pekin yaqinida, Chjoukoutyan degan joyda kanadalik olim D. Blek va uning assistenti Pen Venchjun tomonidan 1927-29 yillarda Xitoy arxantropining qoldiqlari topilgan. *Sinantrop* deb atalgan (lotincha Sina - Xitoy) bu inson ajdodining miya hajmi 915 – 1225 sm<sup>3</sup> bo`lgan. Sinantrop ham toshdan qurol yasagan. Xitoy sinantropi olimlarning fikricha taxminan 300-500 ming yil avval yashagan. Sinantrop olovdan foydalangan, lekin uni qanday qilib olgani noma'lum. Olduvay g`orlarida esa olov izi topilmagan. Sinantrop ov qilishni bilgan (hayvonlar suyaklarining qoldiqlariga asoslanib), turli o'simliklarni terib yegan.



## Chjoukoutyandagi manzilgoh va sinantrop qoldiqlari

Germanianing Geydelberg shahri yaqinida 1907 yili ishchilar tomonidan arxantropning qoldiqlari (jag' suyagi) topilgan. Ushbu topilma ham pitekantropga mansub. 1848 yilda Ispaniyaning Gibraltar qoyasidan ishchilar odam bosh chanog'ini topib oladilar. Biroq bu topilma haqidagi ilk ma'lumot 1864 yilga kelibgina G. Besk tomonidan matbuotda e'lon qilinadi. Bundan tashqarii Vengriyada, Chexoslavakiyada va Frantsiyada pitekantropga yaqin odamsifat maymun qoldiqlari topilgan.



Geydelberg va Gibraltardan topilgan qadimgi odamlarning qazilma qoldiqlari

Arxantroplardan keyingi bosqich kishilari fanda qadimgi odamlar - *paleoantroplar* nomi bilan ma'lum bo'lib, tadqiqotchilarning fikricha, ular zamonamizdan 100-50 ming yil avval yashaganlar. Qadimgi odamlarning qazilma qoldiqlari dastlab 1948, 1964 yillarda Ispaniyaning Gibraltar bo'g'ozı rayonidan, so'ngra 1970 yilda Germanianing Neandertal vodiysidan topilgan. Joyning nomidan kelib chiqib, bu odamni *neandertal* deb atash rasm bo'lgan. Mehnat jarayonida inson tafakkurining rivojlanishi natijasida neandertal odamlari hozirgi qiyofadagi odamlarga - *neantropga* aylanib borgan. Ular ham aqliy, ham jismonan kamol topib, hozirgi qiyofadagi kishilar vujudga keldi, shu bilan antropogenez jarayoni nihoyasiga yetdi. Huddi shu davrda yevropoid, negroid va mo'g'ul irqlari vujudga keldi.

Neandertal tipidagi odamlarning qazilma qoldiqlari Afrikadan, O'rta Yer dengizining sharqiy qirg'oqlaridan, O'rta Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari hududlaridan, Qora dengiz bo'ylaridan, Sharqiy Yevropadan va Osiyo yerlaridan topilgan. Keyingi topilmalar inson yoshini yanada yoshartirmaqda. 1994 yil may oyida Angliyada 30 m chuqurlikdantosh asrida yashagan qadimiy inson qoldiqlari topilgani. Uning yoshi 500 ming yil bilan belgilangan bo'lib, bundan oldin Yevropada topilgan qoldiqlarning yoshi 100 ming yilga yoshroq.

1994 yil kuzida Efiopiyan dan topilgan inson qoldiqlarining yoshi, 4,5 mln yil. Shunday qilib, zamonaviy odamning ajdodlari Amerika va Avstraliyadan tashqari barcha mintaqalarda yashagan degan xulosaga kelish mumkin.

Demak, «Inson qachon paydo bo'lgan?» - degan savol hanuz ochiq qolmoqda.

### Nazoratsavollari:

1.

Yerning va odamning paydobo'lishito`g`risidako`pchilikdiniya`limotgaishonch bilan qaraydi. Buningsababi nimalar bilan bog`liq?

2.

Kaynazoyerasingo`rtlamchibosqichidaodamzotningpaydobo`lishiuchunqandayshar oitmavjudedi?

3. Odamzotning paydo bo`lishi va qadimgi odamlarning hayotini o'rganishda arxeologik tadqiqotlarning o`rniga baho bering.

4.Ch.Darvin nazariyasiga ko`ra odam maymunlar avlodiga mansub degan fikr yotadi. Shu fikrga munosabatingiz qanday?

2. Qadimiy antroplar faoliyatiga ko`ra «ishbilarmon odam» va «aqlli odam» kabi toifaga bo`lingan. Ularning har bir turiga qanday baho bera olasiz?

#### **4-MAVZU: PALEOLIT DAVRI ARXEEOLOGIYASI**

**Reja:**

1. Qadimgitoshdavriningumumiytavsifi.

2.O`rta Osiyoda paleolit davri.

#### **Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:**

Paleolit, ilk (quyi), o'rta va so'nggi (yuqori) paleolit, Olduvay, ashel, abbevil, mustye, orinyak, solyutre, madlen, cho`qmor, chopper, sferoid, nukleus, uchirma, ibtidoiy to'da davri, levallya texnologiyasi, yorma texnika, ezib retushlash, ov va mehnat qurollari, ibtidoiy san'at.

#### **1-savolning bayoni:**

Kishilik tarixining eng qadimgi davri paleolit deb ataladi. *Paleolit* yunoncha «palayos» - qadimgi va «ditos» - tosh degan ma'noni anglatadi. Arxeologik nuqtai nazardan tosh davri uch qismga bo`lib o`rganiladi:

1. Ilk yoki quyitosh asri

2. O'rta tosh asri

3. Yuqori yoki so'nggitosh asri

*Ilk tosh davri* taxminan 3 mln. yildan 100 ming yilliklar oralig`idagi uzoq davrni o`z ichiga oladi. Ilk paleolit olduvay va ashel davrlariga bo`linadi.

Afrikada shu nomdagi manzilgoh nomini olgan *Olduvay* davriga oid eng qadimgi manzilgoh Homo habilisning eng qadimgi qoldiqlari topilgan Efiopiyadagi Vest-Gonadir (2,8-2,4 mln. yil avval). Keniyadagi Koobi-Fora (2 mln. yil avval) manzilgohida topilgan 139 ashyoning deyarli barchasi lavadan tayyorlangan. Ilk paleolitda arxantroplar yashagan, oddiy termachilik va sodda ovchilik tirikchilikning asosiy vositasi hisoblangan.

Olduvay davri uchun uch turdag'i qurollar xos: *ko`pqirrali qurollar* (sferoidlar), *retush usulida* tayyorlangan qurollar va chopperlar. Bu davrda qo`pol qayroq toshlardan yasalgan *uchirmalardan* qurol sifatida foydalanilgan. Olduvay davri uchun *nukleuslar* xarakterli.



Keniyadagi Turkana ko'lidan sharqdagi Habashistondagi Kada Gona Omodan topilgan kvarts uchirma. manzilgohidan topilgan tosh qurol. Yoshi: 2,1 mln. yil Yoshi: 2,1 – 2,6 mln. yil

XIX asrning 50-yillarida Olduvay (Tanzaniya) dan keyin ikkinchi o'rinda turuvchi qadimgi manzilgoh - Sent Ashel tolpiladi. *Ashel davri* (700 – 150-120 ming yil avval) o'z nomini Fransiyadagi Sent-Ashel makoni nomidan olgan. Bu davrda qo'l cho`qmori va kolun (kliver) kabi olduvay qurollaridan yirikroq qurollar paydo bo`lgan. Qo'l cho`qmorlari universal qurol bo`lib, bodomsimon, tuxumsimon va nayzasimon shaklda bo`lgan va chaqmoqtoshdan yasalgan. O`rta ashellda levallua texnikasi rivojlangan. Ispaniyadagi Torralba, Angliyadagi Klekton, Germaniyadagi Leringen manzilgohlaridan yog`och quollar qoldiqlari topilgan. So`nggi ashel davrida tabiiy vaziyat keskin o`zgargan, muzlik davri boshlangan. Xuddi shu vaqtida odamlar o't chiqarishni bilib olgan. Turar joylarga bo`lgan zarurat tufayli g`orlar egallana boshlangan. Ashel davri makonlaridagi madaniy qatlamlarning qalinligi insonlar jamoasining o'troq hayot kechirganligidan dalolat beradi. O'troqlikning kuchayishi ayollar va erkaklar o`rtasida mehnat taqsimotini keltirib chiqardi.



Ashel davri qurollari

Ilk paleolit davriga oid Abbevil yodgorligi Fransiyaning Sena daryosi qirg'oqlaridan topilgan. U erda 1835 yilda M. Pikar dastlabki tosh quollarini topgan. Keyinchalik Bushe de Pert tadqiqot ishlarini olib borgan. 1932 yildan F.Breyl Fransiyaning ilk paleolit davrini Abbevil davri deb nomlagan. Bugungi kunda Yevropada ilk paleolit davri shell emas, balki *abbevil* deb ataladi.

*O`rta paleolit* - Yevropada mustye davri deb ham yuritiladi. By davri 100 – 40 ming yillarni o`z ichiga oladi. Bu davrda tosh quollar ancha ixchamlashgan bo`lib, S.Barod va F. Bordlar sxemasida 40 dan oshiq tosh quollar turi aniqlangan. Tosh quollar turinngi ko`payishi shundan dalolat beradiki, mustye odamlari, ya'ni neandertallar g`or va qoyatoshlar hamda daryo bo`ylari, buloq atroflarida uzoq vaqtgacha turish imkoniyatiga ega bo`lishgan. Bu esa asta – sekinlik bilan ibtidoiy to`da hayotidan urug`chilikka o`tishga asos bo`la boshlagan.



Mustye davri quollari

Mustye davrida nayzasimon tosh qurol, tosh qirg`ich, o`roqranda paydo bo`lgan, ular uch burchakli tosh parrakchalaridan yasalgan. Qumtosh va ohaktoshdan yasalgan quollar uchraydi. Odamlarni ilk bor dafn etish muste davrida boshlangan. Murdalarni sun'iy kovlangan qabrga ko`mish ancha murakkab g`oyaviy tushunchalar paydo bo`lganidan dalolat beradi. Qrimdagagi Kiyik-Koba, O`zbekistonidagi Teshiktosh makonlaridagi qabrlar bunga misol bo`la oladi. Mustye davrining eng mashhur yodgorliklaridan biri Germaniyadagi Neandertal g`oridir. Neandertal odamlarning suyaklari Yevropa va Osiyodan tashqari Afrika (Rodeziya va Tanganika)dan hamda Falastindan topilgan.




Germaniyadagi Neandertal g`oridan topilgan bosh suyagi

*So`nggi paleolitning orinyak, solyutre va madlen deb atalgan uch davri* (Fransiyadan topib tekshirilgan makonlar nomi bilan atalgan) hammasi bo`lib bundan taxminan 40 ming yildan 14 ming yilgacha bo`lgan davrni o`z ichiga oladi.


So`nggi paleolit zamонавиј antropologik tipdagi odamlarning paydo bo`lishi va urug`chilik tuzumiga qadam qo`yish bilan xarakterlanadi. Shuningdek, mazkur davrda yevropoid, mongoloid va negroid kabi yirik irqlarning shakllanish jarayoni ham sodir bo`lib, odamlar endilikda yer yuzining ancha keng joylariga tarqala boshlagan. Bu davrda tosh quollarni tayyorlash texnikasi yanada takomillashdi. Yorma texnika, ezib retushlash usulidan keng foydalanilgan. Sanivat sulolasida so`nggi paleolit tosh quollari turi 90 dan ortiq bo`lib, ular orasida mayda quollar ham mavjuddir. Arxeologlar ta'rificha, so`nggi paleolit quollari ikki turga bo`lingan:

ov qurollari va mehnat qurollari. Eng ko`p tarqalgan qurollarga tosh keskich va tosh qirg`ich misol bo`la oladi, suyakdan yasalgan qurollar ham ko`paydi. So`nggi paleolitda baliqchilik va to`qimachilik yuzaga kelgan.



So`nggi paleolit qurollari

So`nggi tosh davrida san'at yuzaga kelgan. Yevropadagi Fransiya, Ispaniya, Italiya, Rossiya kabi mamlakatlarda, O`rta Osiyodagi g`or va qoyatoshlarda turli tasvirlar topilgan. Eng qadimgi tasviriy san'at namunalari Boshqirdistondagi Kapovaya g`oridan va Ispaniyadagi Altamir g`oridan topilgan. Bu davrda suyakdan ishlangan ayollar haykallari ko`plab uchraydi, bu urug`chilik ya'ni «ona urug`i» davrining xarakteridir.




Altamir g`ori tasvirlari

ayol haykali

Avstriyadagi Villendorfdan topilgan

*So`nggi paleolit* insoniyat tarixining boshlang`ich davrini yakunlaydi. Insonning zoologik tur sifatidagi taraqqiyoti nihoyasiga yetdi, *Homo sapiens* paydo bo`ldi. Ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishning uzoq yo`lini bosib o`tdi, mehnat vositalari takomillashdi. Inson o`troqlikka o`tdi. Din va san'atda o`z aksini topgan g`oyaviy qarashlar paydo bo`ldi. Paleolit davridayoq insoniyatning notekis iqtisodiy taraqqiyoti sezila boshladi. Paleolitning so`ngida Yevropaning ayrim qabilalarida xo`jalik va madaniy taraqqiyot ancha tezlashdi. Ishlab chiqaruvchi xo`jalikning paydo bo`lishi arafasida turgan Old Osiyo Yevropadan oldinda edi. Afrikada va Hindistonda esa hamon mustye madaniyati mavjud edi.



Paleolit qurollari: 1-4: qiyi paleolit: 1-chopper, 2 – 4 chopqi , 3 – kliver; 5-10 – o’rta paleolit (mustye): 5- nucleus, 6 – chopqi, 7 – o’tkir uchlar, 8 - ikki tomonlama ishlov berilgan nayza uchi, 10 – qirg’ich; 11 - 21 – yuqori paleolit qurollari.

## 2-savolning bayoni:

O’rta Osiyodagi qadimgi tosh davri yodgorliklari va ularning madaniy qatlamlaridan topilgan ashyoviy dalillar bu o`lkaga odamlar juda erta kelib o`rnasha boshlaganliklaridan dalolat beradi. Olimlarning mulohazasiga ko`ra, bu yerga odamlar 400-300 ming yillar muqaddam, hatto undan ham oldin kelib o`rnasha boshlaganlar.

O’rta Osiyohududidan  
topilganibtidoikishilarningengqadimgitoshdavriyodgorliklario’rtava  
so’ngitoshdavriyodgorliklariganisbatankamo’rganilgan. Ilk tosh davriga oid yodgorliklar Ko`lbuloq, Uchtut, Bo`riqazigan, Tandirqazigan, Onarcha, Qizqal’a, Yangaja, Qoratangir, Takali, Kamar, Shabakti, Uchbuloq, Uzunbuloq Qoratog’, Loxutiy I, Havolangva boshqalardir.

Ko`lbuloq makoni Toshkent viloyati Ohangaron rayoni hududida, Chotqol tog`ining janubiy yonbag`rida joylashgan. Ko`lbuloq makoni fanga 1963 yildan ma’lum. Makon dastlab arxeolog M.R. Qosimov tomonidan o’rganila boshlangan. U ochiq tarzdagi ko`p qatlamlı makon bo`lib, undan 41 qatlam ochilgan. Uning yuqori qatlamlari so’nggi tosh va mustye davrlariga oid, quyi qatlamlari ashel’ davriga mansubdir. Topilgan qurollar va suyaklar qoldiqlariga qarab ko`lbuloqliklar ovchilik va termachilik bilan shug`ullangan deyish mumkin.

Ko`lbuloq makonida 2002 yildan tadqiqot ishlari qayta boshlandi. O’zR FA Arxeologiya instituti Toshkent bo’limi, O’zMU olimlari tomonidan olib borilgan

tinimsiz izlanishlar natijasida 10.000 ga yaqin birlamchi va ikkilamchi ishlov berilagn tosh qurollar o'rganildi. 2003 yilning 3 oktyabrida Ko'lbuluoq makoni moddiy manbalari asosida Xalqaro ilmiy konferentsiya o'tkazildi. Hozirgi kunda Ko'lbuluoq makoniga davlat tomonidan muhofaza etiladigan «Tarixiy qo'riqxona» maqomi berilgan.

O'zbekistonning yana ikki yeridan – Janubiy Farg'onadagi Selung'ur va Toshkent viloyatidagi Bolttog`or makonlaridan ashel davriga mansub qo`pol tosh qurollar va boshqa ashyoviy buyumlar chiqqan. Samarqand viloyatida joylashgan Uchtut-Ijond-Vaxsh makonlari ham ilk tosh asriga mansub.

Selung'ur g'ori 1958 yildan ma'lum. Dastlab g'or-makon akademik A.P. Okladnikov tomonidan o'rganilgan va u so'nggi poleolit davriga oid degan fikr bildirilgan. 1980 yilda akademik O.I. Islomov g'orda qayta qazish ishlarini o'tkazib, ko'plab tosh qurollar, hayvon suyaklari qoldiqlarini topadi. O'Ismoilov g'orni ashel davriga mansubligini ilmiy asosda isbotlaydi. Ayni paytda Selung'ur makonining madaniy qatlamlaridan arxantropning tishi va suyak parchalari ham topilgan. O'rta Osiyo, xususan O'zbekiston odamzodning ilk bor paydo bo'lgan mintaqalar qatoriga qo'shildi.

Qozog`iston hududidan ham ko'plab ilk tosh asriga mansub yodgorliklar topilgan, bularga Takali I, II, III, Tandirqazigan, Bo`riqazigan, Kamar va Shabakti joy-makonlari misol bo`ladi. Tojikiston hududidagi Qoratog` joy makonlari, Qirg`izistondagi On Archa yodgorligi, Turkmanistondagi Yangaja, Qora Tanger va Tomchisuv joy-makonlari sham diqqatga sazovordir.

O'rta tosh asri – mustye davri ilk tosh asriga qaraganda yaxshi o'rganilgan. O'rta Osiyoning turli hududlaridan mustye davriga oid 300 ga yaqin yodgorliklar topilgan bo`lib, Teshiktosh, Obirahmat, Xo`jakent, Ko'lbuluoq, Qo`tirbuluoq, Uchtut, Qoratangir va boshqalar shular jumlasidandir. Ulardan ba'zilari xususida umumiyl ma'lumot berib o'tamiz.

Obirahmat g'or-makoni Toshkent shahridan shimoli-sharqda, G`arbiy Tyan-Shan Chotqol tizmasida joylashgan. G`orda 10 metr qalinlikdagi 21 ta madaniy qatlam aniqlangan. Bu yerda ohak toshli chaqmoqtoshdan yasalgan 30 mingdan ortiq turli qurollar topilgan.



Obirahmat g'or-makoni va u yerdan topilgan qazilma odam qoldiqlari

Omonqo`ton g'or-makoni Samarqand viloyatidagi Zarafshon tizmasining g`arbiy yonbag`rida joylashgan. G`ordagi chuqurligi 25 metr chamasidagi madaniy qatlamdan kvarts, diorit va boshqa toshlardan yasalgan qirg`ich, kurakchalar, o`tkir uchli paykon, nukleus, qo'l chopqilar kabi qurollar topilgan.

O'rta Osiyodagi mustye yodgorliklarining eng nodir namunalaridan biri Teshiktosh g`or-makonidir. U Surxondaryo viloyatidagi Boysun tog`ining janubiy yonbag`rida, dengiz sathidan 1500 metr balandlikda joylashgan. G`ordagi beshta madaniy qatlamdan 2859 ta toshdan yasalgan mehnat qurollari, siniq uchrindilar va boshqa ashylar topilgan. Eng muhim topilma 8-9 yoshli bolaning to`liq bo`limgan skleti va bosh suyagidir. Yodgorlik 1938 yildan boshlab arxeolog A.N.Okladnikov tomonidan o`rganila boshlangan.



A.N.Okladnikov

O'rta Osiyoning so`nggi tosh asri yodgorliklari mustye davridagidek ko`p emas. Bu davrda odamlar faqatgina tog`da yashamay, balki vodiylarga, daryo bo`ylariga tushib kelganlar. O'rta Osiyodan Xo`jag`or, Shugnau, Ko`lbuloq, Yangaja 11, Achchisoy, Tuyabo`g`iz, Bo`zsuv, Uchtut, Sariko`l kabi so`nggi tosh asri yodgorliklari topib o`rganilgan. So`nggi tosh asri kishilarining asosiy qurollari qirg`ichlar, keskichlar, teshgichlar, nayza paykonlari va boshqalardir. Samarqand shahri markazidagi Komsomol ko`li makoni nomi bilan ma'lum yodgorlikdan kromanyon qiyofasidagi odamlarning suyak qoldiqlari topilgan. So`nggi paleolit davri kishilari toshdan mehnat qurollari yasashda anchagina muvaffaqiyatga erishib, o`zidan keyingi madaniyatlarinng rivoji uchun shart sharoit yaratdi.



Teshiktosh g`oridan topilgan neandertal bola (M.M.Gerasimov rekonstruksiyasi).

### **Nazorat savollari:**

1. Paleolit davrining olduvay, ashel va mustye bosqichlariga ta'rif bering.
2. So`nggi paleolit makonlaridan ayol haykalchalarining ko`plab topilishini qanday izohlash mumkin?
3. Ilk tosh qurollarning turlarini ta'riflang?
4. Mustye davriga oid tosh qurollar tipi qanchaga boradi.?

5. Yuqori paleolit tosh qurollarning tipologiyasini kim ishlab chiqqan?

## 5-MAVZU: MEZOLIT DAVRI

### Reja:

- 1.Mezolit davrining umumiy xususiyatlari.
- 2.Markaziy Osiyoda mezolit davri yodgorliklari.

### Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Mezolit, azil, tardenuaz, mikrolit, qadama, makrolit, o`roqranda, po`q-yoy, paykon – kamon o`qi, trapetsiyalar, segmentlar, uchburchaklar, qirg`ichlar, keskich, teshgich, uchrindi, nukleuslar, retush, retushsiz, mezolit makonlari, Natufiy madaniyati, Machay.

### 1-savolninig bayoni:

Qadimgi tosh asrining so`nggi bosqichiga kelib yer yuzasidagi ulkan muzliklar chekinishi natijasida bundan 14-12 ming yillar oldin iqlimda yirik o`zgarishlar yuz berdi. Iqlim o`zgarishi yer yuzasidagi hayvonot olami va o`simliklar dunyosiga ta'sir etib qolmasdan, ibridoiy kishilk jamiyatida ham yirik o`zgarishlar bo`lishiga olib keldi.

*Mezolit* so`zi yunoncha «mezos» - o`rta , «litos» - tosh so`zlaridan kelib chiqqan. Mezolit davrining xususiyati, chegarasi va atalishi haqida arxeologlar orasida hozirgacha qizg`in baxslar mavjud. Bir guruh olimlar bu davrga qadimgi tosh asrining alohida bosqichi sifatida qarasalar, boshqalari tosh asridan so`nggi bosqichi deb biladilar. Ammo keyingi tadqiqotlar tosh qurollar shakli, qo'llanilishi va ishslash texnikasidagi o`zgarishlar va yangi xususiyatlarni aniqlashi natijasida tosh davrining o`rta bosqichi ekanligi e'tirof etildi.

Mezolit davrining quyi va yuqori chegarasini belgilashda ham turli fikr va mulohazalar mavjud. Ko`pgina olimlar mezolit davrining chegarasini aniqlashda geografik muhitga suyansa, boshqalari toshni ishslash texnikasiga asoslanadilar. Uchinchi guruh olimlar esa bu masalada ho`jalik mashg`ulotlarini birinchi o'ringa qo'yadilar.

O`rta tosh davri taxminan m.a. 12 mingdan 7 ming yilgacha davom etgan. Mezolit davrining eng katta kashfiyoti va yutuqlaridan biri – *kamonning kashf* etilishi edi. Kamon inson kashf etgan eng dastlabki murakkab moslama bo`lib, u insoniyatning uzoq davom etgan mehnat tajribasi va zakovatining natijasi edi.

Bu davrda tosh qurollarni qayta ishslash, ularni takomillashtirish uchun shart-sharoit vujudga keldi. Bu hol ancha mayda tosh qurollar, ya`ni *mikrolitlarning paydo bo`lishiga* olib keldi. Mikrolitlar o`q uchi - *paykon* va qadama vazifasini bajargan. Suyak yoki yog`och qurolga qator qilib qadalgan chaqmoqtosh parchalari tizmasi qurolning tig`ini hosil qilgan. Qadamalar dastalarga bitum - qatron bilan yopishtirib mustahkamlangan yoki qayish bilan bog`langan. Shu bilan birga mezolit davriga oid makonlarda chaqmoqtosh va suyakdan ishlangan boshqa xil o`q uchlari ham uchraydi. Mikrolit qurollar juda mayda, ba`zilari hatto bir santimetrga yetar-yetmas bo`lib, yirikroqlari kamdan – kam uchraydi. Mikrolitlar turli geometrik shaklda bo`lgan – uchburchak, romb, trapetsiya, segment shakllarida.

Mazkur davrda mayda quollar qatorida yirik va uzun tosh quollar – *makrolitlar* ham keng ko’lamda qo’llanilgan. Boltasimon tosh quollar shular jumlasidandir.

Xo’jalikdagi o’zgarishlar odamlar jamoasining maydalanishiga olib keldi. Mezolit davri makonlari maydonining kichikligi ham bunga dalildir. Bu davrda odamlar kengroq hududlarga tarqala boshladi, muzlikdan bo’shagan yangi yerlar o`zlashtirila boshlangan.

Mezolit davriga oid yodgorliklarga Fransiyadan topilgan Azil va Tardenuaz makonlari, Daniyadan topilgan Lingbi, Maglemoze makonlari, Qrimdan topilgan Shayton-Koba, Fatma-Koba, Murzak-Koba g`or-makonlari, Estoniyadagi Kunda makoni misol bo`ladi. Mazkur davrga mansub bo’lgan dastlabki yodgorlik 1887 yilda fransuz arxeologi D.Pet tomonidan Maz-d Azil g’oridan topib, o’rganilgan.

Mezolit davrining eng katta yutuqlaridan biri *domestikatsiya* - turli hayvonlarning qo`lga o’rgatila boshlanishi edi. Old, Yaqin va O`rta Osiyodagi arxeologik tadqiqotlar ishlab chiqaruvchi xo’jalikka o’tish bu yerda mezolit davridayoq sodir bo`lganligini ko`rsatadi. Natufiy madaniyati vakillari ilk bor termachilikdan boshqoli ekinlar etishtirishga o’tishgan. *Natufiy madaniyati* Falastin va Suriyada tarqalgan mezolit davri madaniyati bo’lib, m.a. 12500-9200 yillarda mavjud bo’lgan. Ilk bor 1928-1932 yillarda ingliz olimasi D.Gerrod tomonidan Iordan daryosi vodiysida Vadi-an-Natuf qirg’og’idagi Shukbana g’orida o’rganilgan. G’orlarda va yarim yerto'lalarda yashagan natufiyaliklar mikrolitlar, qadama o’roqlar, yorg’uchqolar, suyak quollardan va tuyaqush tuxumidan yasalgan idishlardan foydalanishgan hamda ovchilik, baliqchilik, termachilik bilan shug’ullanishgan.

Ishlab chiqaruvchi xo’jalikka o’tish jarayoni ba’zi joylarda ancha erta, boshqa joylarda bir oz kech sodir bo’lgan bo’lib, bu ishlab chiqaruvchi kuchlarning qay darajada rivojlanganiga bog`liq edi. Dastlab odamlar tabiatda mavjud bo’lgan tayyor mahsulotlardan foydalanib, termachilik va ovchilik bilan shug`ullangan bo`lsa, keyinchalik ular o’z mehnat faoliyati bilan tabiatga ta’sir etib, ilg`or unum dorlik xo’jaligiga – chorvachilik va dehqonchilikka o’ta boshlaganlar. Bu hol chorvachilik va dehqonchilikning ilk kurtaklari bo’lib, asl ma’nodagi dehqonchilik va chorvachilik keyinchalik qaror topdi.

Mezolit davrida baliqchilik katta ahamiyat kasb etdi, buni ko’plab arxeologik topilmalar ham isbot etadi. Bu davrda birinchi qayiq va eshkaklar paydo bo`ldi.

Mezolit davri san’ati namunalari asosan qoyatosh suratlaridan iborat. Mezolit davriga oid qoyatosh rasmlariga O’zbekistondagi Zarautsoy tasvirlarini misol keltirish mumkin. Zarautsoy darasidagi Zarautkamar g’oridagi mezolit suratlari qizil bo`yoq bilan chizilgan bo’lib, unda ov manzaralari tasvirlangan.




### Zarautsov tasvirlari

#### 2-savolning bayoni:

O'rta Osiyoda mezolit davri nisbiy holatda XII – VI ming yillikni o'z ichiga oladi. Mezolit odamlarning yer yuzi bo'y lab keng tarqalish davri bo`lib, ular shimol tomonga ham, Pomir kabi baland tog`li rayonlarga tarqala boshlaydilar. Kaspiy bo`ylaridan Tyanshan – Pomirgacha, Markaziy Qozog`istondan Turkman – Xurosan tog`larigacha bo`lgan yerlardan mezolit davri yodgorliklarining eng ajoyib namunalari topib o`rganilgan. Shuningdek, bu davrga mansub bo`lgan bo`yoq bilan ishlangan tasvir va manzaralar O'rta Osiyoning ko`pchilik tog`li o`lkalaridan topilgan. Mezolit davri tosh quollaridagi o`zgarish, san'at nodir turlarining paydo bo`lishi, xo`jalikda hayvonlarning qo`lga o`rgatilishi va boshqa xossalari bilan oldingi davrlardan keskin ajralib turadi.

O'rta Osiyoning ko`p yodgorliklaridan mezolit davriga xos trapetsiyalar, segmentlar, uchburchaklar, qirg`ichlar, o`roq - randalar, nayza va kamon o`qlarining uchlari, keskich, teshgich va har-xil shakldagi uchrindi va nukleuslar topilib, ular orasida nayza va kamon o`q uchlari – paykonlar ancha keng tarqalgan. Ayni vaqtida mezolit makonlaridan tosh quollar bilan birga suyakdan yasalgan quollarning topilishi diqqatga sazovordir.

Biz quyida O'rta Osiyo hududidan topib o`rganilgan ba'zi yodgorliklarning tavsifiga to`xtalib o`tamiz.



O'rta Osiyo m.a. X-V m.y.

**1-Kaspiybo'yi mezoliti yodgorliklari; 2- Joytun madaniyati yodgorliklari; 3- boshqa yodgorliklar**

Machay g`or makoni Hisor tizmasining tarmoqlaridan biri - Ketmonchopti tog`ining janubiy yon bag`rida, Yuqori va O'rta Machay qishloqlari o`rtasida joylashgan. G`orning kengligi 20 m. chuqurligi 11 m, balandligi esa 3,5 – 5 metrga tengdir. Machay ko`p madaniy qatlamlı yodgorlik bo`lib, ulardan jami 870 ta toshdan yasalgan qurol va buyumlar kovlab olingan. Ular har xil shakldagi nukleuslar, tosh pichoqlar, arrasimon quollar, keskich, tosh sandonlar, yo`ng`ichrandalar, nayza va o`q uchlari va boshqa quollardan iborat.

Machay topilmalari Tojikistonning Vaxsh havzasidagi Markaziy Farg`ona, Toshkent vohasidagi, Turkmaniston, janubiy Qozog`iston va Yaqin Sharq mamlakatlaridagi mezolit davri quollariga o`xshaydi.

Machayda qazish davrida antropologik materiallar - odam bosh suyaklari, tishi, jag`i va boshqa a'zolari qoldiqlari topilgan. Bu topilma katta amaliy va ilmiy ahamiyatga ega. Makonning madaniy qatlamlaridan, shuningdek, ko`plab paleontologik materiallar ham topilgan.

Farg`ona vodiysi va uning janubidagi tog`lik rayonlaridan mezolit davriga oid makonlar ko`plab topilgan. Bularga Obishir I va Obishir V g`or-makonlarini kiritish mumkin. Ular Qatron tog`ning janubiy yonbag`rida joylashgan. Obishir V g`or-makonidan tosh quollar va boshqa buyumlar qatorida baliq tutishda ishlatiladigan gruzila - qadoq toshlar ham topilgan. Obishir makonlaridan topilgan ashyolarga asoslanib, Haydarkon – So`x vohasidagi mezolit davrining ibridoiy qabilalari baliqchilik, ovchilik va termachilik bilan shug`ullangan deyish mumkin. Markaziy Farg`onadagi Ittak qal'a, Sho`rko'l, Achchiko'l, Yangiqadam, Bekobod, Zambar, Toypoqko'l, Damko'l, Bosqum kabi joy-makonlar ham diqqatga sazovordir. Bu makonlarning deyarli barchasi qadimgi ko'l yoqalaridan topilgan bo`lib, aftidan bu joylar qadimda yashash uchun barcha qulayliklarga ega bo`lgan. Makonlardan turli rangdagi chaqmoqtosh, slanets va boshqa tosh navlaridan yasalgan turli quollar

topilgan. Bu makonlarda yashagan qabilalarning xo`jalik hayotida ovchilik, termachilik bilan bir qatorda baliqchilik ham juda katta rol o`ynagan.

Mezolit davri makonlari Toshkent viloyatidagi Bo`zsuv anhorining sohillaridan ham topilgan. Bo`zsuv mezolit yodgorliklariga Qo`shilish makoni misol bo`ladi. Qo`shilishdan topilgan qurollar geometrik shaklda ishlangan. Mazkur yodgorlik m.a. XI-X ming yilliklarga mansub. Bu yerda istiqomat qilgan aholi asosan ovchilik va termachilik bilan shug`ullangan.

Shimoli - g`arbiy Ustyurtning Aydabol va Jayron quduqlari atrofida ham ko`plab mezolit makonlari aniqlangan. Mazkur makonlardan tosh qurollar bilan birgalikda qo`lda ishlangan sopol idishlarning bo`laklari, taqinchoqlar va bezak buyumlari ham topilgan.

Tojikiston hududidan Oshxona, Chil – chor chashma, Shugnau, Darai Sho`r kabi makonlar topib o`rganilgan. Pomirdagi Oshxona, Qoratumshuq, Alichur, va Markansuv daryolari havzasidan ko`plab mezolit davri yodgorliklari topilgan. Tog`li o`lkalarda yashagan qabilalar va urug`lar yaratgan madaniyat Vaxsh madaniyati nomini olgan.

Tog`li o`lkalarda yashagan aholi asosan ovchilik, termachilik bilan shug`ullangan. Dasht va tekisliklarda, dengiz, ko`l va daryo sohillarida yashagan mezolit qabilalari esa asosan ovchilik, baliqchilik va termachilik bilan shug`ullangan.

### Nazorat savollari:

1. Mezolit quollarining turlari?
2. Kamon – o`q - yoyning paydo bo`lishiga sabab?
3. Mezolit odamlari nima uchun ko`proq ochiq maydonda yashaganlar?
4. Mezolit davriga oid turli madaniyatlarga misol keltiring.

## 6-MAVZU: NEOLIT DAVRI

### Reja:

1. Neolitdavriningo`zigaxosxususiyatlari.
2. O`rta Osiyo neolit davrida.

### Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

O`zlashtiruvchi xo`jalik, ishlab chiqarish xo`jaligi, neolit davri inqilobi, kulolchilik, silliqlash, arralash, burg`ulash, yorg`ichoq, to`qimachilik, Ierixon, Cheyyunu Tepasi, Chatal Guyuk, Jarmo va Zagros madaniy birligi, Mergar, Yanshao, Lunshan, Dzyomon madaniyati, Joytun, Kaltaminor, Hisor madaniyatlari.

### 1-savolning bayoni:

Neolit davri uzoq davom etgan tosh asrinining so`nggi va yakunlovchi bosqichidir. *Neolit* so`zi «neos» - yangi va «litos» - tosh degan yunon so`zlaridan iborat bo`lib, yangi tosh davri degan tushunchani bildiradi. Arxeologiya faniga bu tushunchani ingliz olimi *Djon Lebbok*(1834-1913) olib kirgan.

Bu davr turli hududlarda turli davrda boshlangan va tugagan. Neolit davrida iqlim hozirgiga ancha yaqin bo`lgan, u davr kishilari yer yuzi bo`ylab ancha keng tarqala boshlaganlar. Ular turli tabiiy sharoitga moslasha boshlaganlar va alohida

madaniyatni yaratganlar. Turli geografik muhit va shart – sharoitdan kelib chiiqib, ularning mehnat qurollari, uy – ro`zg`or buyumlari, turar joylari va xo`jaliklari ham har xil shaklga ega bo`lgan. Bu esa xo`jalikning notekis rivojlanishiga sabab bo`lgan. Janubiy o`lkalarining serhosil joylarida yashagan kishilar xo`jalikning dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik shakllarini rivojlantirib borganlar. Shimoldagi o`lkalar esa tabiiy sharoitning noqulayligi tufayli uzoq vaqt orqada qolib kelgan.

Neolit davri qabilalari aksariyat hollarda daryo sohillari va tarmoqlari yoqasida, ko`l bo`ylarida yashab, tabiiy imkoniyatlardan kelib chiqqan holda baliqchilik va ovchilik yoki dehqonchilik va chorvachilik, ayni vaqtida qisman hunarmandchilik bilan shug`ullanganlar.

Neolit davrida mehnat qurollari - parrakchalar, qadamalar, nayza va kamon o`qlarining uchlari, pichoq, teshgich, parma, qirg`ich, yorma toshlar, o`roq - randa va boshqalar ancha takomillashgan. Ilk neolitda makrolitlar rasm bo`lgan. Odamlar chaqmoqtoshdan katta va og`ir qurollar yasay boshlaganlar. Bu davrga kelib mezolitning so`nggi bosqichida kashf etilgan tosh boltalar ancha keng tarqalgan. Neolit davrida qurollar tayyorlash chaqmoqtoshdan tashqari yashma, nefrit kabi toshlardan ham foydalanilgan. Neolitda toshga ishlov berishning eski usullari saqlanib qolgan holda yangicha usullar – *silliqlash*, *arralash* va *burg`ulash*dan keng foydalanilgan. Silliqlangan qurollar mehnat sohasida unumdorlikni ancha oshirgan. Qurollar maxsus tosh ustida, odatda qumtosh taxtasida silliqlangan. Tosh taxta ustiga sepilgan ho`l qum silliqlovchi modda bo`lgan. Silliqlangan qurollar neolit oxiriga kelib ba'zan teshilgan. Suyak parma vazifasini bajargan. Parmalangan qurolga yog`och dasta o`rnatish mumkin bo`lgan, dastali qurol bilan ishlash ancha qulay bo`lgan.

Neolit davri kishilarining eng katta yutuqlaridan yana biri *kulolchilik* bo`lib, ular loydan har – xil idishlar yashashni va ularni olovda pishirishni o`rgandilarki, bu o`sha zamon uchun juda katta kashfiyot edi. Kulolchilikning paydo bo`lishi ovqat tayyorlash va saqlashda odamlarga yangi imkon bergan. Neolit idishlari dag`al va chala kuydirilgan bo`lib, ularning tagi dumaloq bo`lgan. Bu idishlar maxsus chuqurchalarga o`rnatilgan. Sopol idishlarga naqsh berilgan.

Neolit davrida iqtisodning yangi shakllari eng avvalo sharqiy mamlakatlarda taraqqiy etgan. Saxiy janub tabiatni ham bu mamlakatlarda ishlab chiqaruvchi xo`jalikka o`tishga imkon yaratdi. O`zlashtiruvchi xo`jalikdan ishlab chiqaruvchi xo`jalikka o`tilishi «*neolit inqilobi*»(G.Chayld) deb nom olgan.

Ilk neolit davrida ba'zi joylarda *yorg`uchqolar* uchraydi. Donni yormalash uchun ishlatiladigan tosh asbob shu nom bilan ataladi. Kattaroq tosh ustiga sepilgan donni kichikroq tosh bilan ishqalab yanchganlar. Bu sodda asbobdan dehqonlar bir necha ming yillar davomida foydalanib kelganlar.

Neolit davrida odamlar rangli va oddiy metallar bilan tanishganlar. Ammo ushbu davr uchun metall tasodifiy holdir. Bu davrda o`zaro buyum almashinushi rivojlandi. To`qimachilikning kashf etilishi ham neolit davrining tortig`i bo`lgan.

Neolit davrida ibridoiy san'at ham gullab – yashnagan. Neolit davri makonlaridan ibridoiy san'atning ajoyib namunalari topilgan. Bu davrda idishlarga har xil rangdagi bo`yoq bilan turli – tuman naqshlar, odam va hayvon suratlarini



chizish keng tarqalgan edi. Shu bilan birga loydan yasalib, pishirilgan ayol haykalchalari neolit davri san'atining nodir namunalaridir.

Neolit davrida Yevrosiyoning janubiy viloyatlarida ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakli qaror topgan bo'lib, uning bir qancha markazlari mavjud bo'lgan.

Yaqin Sharqdagi ilk dehqonchilik markazining shakllanishida Ierixon madaniyati muhim rol o'ynagan. Quddussdan 22 km. shimoli sharqda, Iordan daryosi vodiysida joylashgan Tell-as-Sulton tepaligim.a. 10-2 ming yilliklarda mavjud bo'lgan, bir necha bor vayron etilib, qaayta qurilgan *Ierixon* manzilgohining qoldig'idir. Ilk bor 1868 yilda Ch.Uorren tomonidan o'rganilgan. 1908 yilda nemis olimlari Zellin, Langen-Egger va Vatsingerlar, 1929 va 1935-36 yillarda ingliz olimi D. Gersteng, 1952-1958 yillarda K.Kenon rahbarligida qazishma ishlari olib borilgan. Ierixonning sopolsiz neolit A va bronza davri qatlamlari o'rganilgan.

Kichik Osiyo ham ilk dehqonchilik madaniyati rivojlangan alohida markaz bo'lib, Cheyyunu Tepasi va Chatal Guyuk ushbu markazning eng muhim yodgorliklaridan sanaladi. Hozirgi Turkiyaning sharqidagi sopolsiz neolit makoni bo'lgan *Cheyyunu Tepasida* m.a. VIII ming yillikda (m.a. 7250-6750 yy) tosh poydevorli, xom g'ishtdan qurilgan ikki qavatlari uylardan iborat manzilgoh paydo bo'lgan, aholisi ovchilik, ziroatchilik, chorvachilik bilan shug'ullangan rivojlangan. Bu yerdan mis metalluriyasining eng qadimgi izi – malaxit (mis rudasi) parchalari, sof mis va mayda mis buyumlar topilgan.

Kunya vodiysida m.a. 7500-5700 yillar oralig'ida mavjud bo'lgan sopolli neolit va eneolit davri manzilgohi *Chatal Guyuk* 1961-1963 yillarda ingliz arxeolog D.Mellart tomonidan o'rganilgan. Aholi chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullangan. Chatal Guyukda san'at va farovonlik taraqqiy etganligini uylarning jihozlari, buyumlarda ko'rish mumkin.



Chatal Guyukning rekonstruksiya qilingan ko'rinishi va topilmalar

Ilk dehqonchilik madaniyatlarining yana bir markazi Shimoliy Mesopotamiya va G'arbiy Eronning unga tutash viloyatlari bo'lgan. Bu yerda m.a. VII-VI asrlarda Jarmo madaniyati rivojlangan. Bu madaniyat yodgorliklari qatoriga Kurddiston tog'larida 1948 yilda ochib o'rganilgan Jarmo manzilgohining o'zini (m.a. 6750/47500), Iroqdagi Mosul shahri yaqinida aniqlangan Xassun (m.a. VII-VI m.y.), shuningdek Zagros tog'ining Iraq hududida topilgan Tell-Shamshir, Eron hududidan topilgan Sarob Tepa va Gurjan Tepalarni kiritish mumkin. Bu hududlar aholisi o'troq

dehqonchilik bilan shug`ullangan, tosh poydevor ustida barpo etilgan xom g`ishtli mustahkam uylar fikrimiz dalilidir. Alovida manzilgohlar minorali mudofaa istehkomlari va darvozalarga ega bo`lgan. Ularning aholisi bug`doy, arpa, no`xat va yasmiq etishtirgan, shuningdek echki, qo`y va cho`chqalar boqishgan. Sopol idishlardan tashqari ular turli tosh idishlardan ham foydalanishgan.

Shimoliy Belujistonidagi (Pokiston, Hind daryosi vodiysi) Suilsymon tog`I etagida joylashgan Mergar manzilgohi m.a. 3300-1700 yillarga oid bo`lib, 1974 yilda aniqlangan. Ushbu madaniyatga xos belgilar: paxsa imoratlar, to`rtburchak shakldagi turar-joylar, murdalarning bukchaytirib uy poli ostifa dafn etilishi, tosh kosalar, bitum bilan suvalgan loy savatlar, tosh o`g`ir va kelidastalar, sopoldan yasalgan hayvon va ayollar haykalchalari. Aholisining asosiy mashg`uloti – dehqonchilik va chorvachilik. Bu yerdan Orolbo`yiga xos qurollar va Kaspiybo`yiga xos nirrolitlar topilgan.

Xitoy neolitining asosiy yodgorliklari Yanshao (m.a. V-III m.y.) va Lunshan (m.a. III m.y.) madaniyatiga oid.

## 2-savolning bayoni:

Neolit davrida O`rta Osiyoning janubiy yerlari, xususan, Kopetdog` etaklarida sug`orma dehqonchilik va ilk chorvachilik qaror topib, dashtlarda, katta – kichik daryo va ko`llarning sohilida ovchilik va baliqchilik rivoj topa boshlaydi. O`rta Osiyoning baland tog`lik rayonlarida esa boshqacha neolit madaniyati shakllanadi.

O`rta Osiyoda yashagan neolit qabilalari xo`jalik shakllariga ko`ra Joytun, Kaltaminor va Hisor madaniyatlariga bo`linadi. Bu madaniyatlar sanasining yuqori chegarasi m.a. VI mingyillik, quyi chegarasi esa IV – III mingyilliklar bilan belgilanadi. Ularning har biri alovida geografik muhitga ega bo`lgan yerlarda joylashgan.

Kaltaminor madaniyati nomi bilan mashhur yodgorliklar asosan O`rta Osiyoning g`arbiy va shimoli – sharqiy tomonidagi yerkarda keng tarqalgan. Kaltaminor madaniyatiga asos solgan kishilar tabiiy sharoitdan kelib chiqib, asosan ovchilik, baliqchilik, qisman chorvachilik bilan shug`ullanganlar. Bu madaniyatga mansub kishilar yog`och va qamishdan tayyorlangan chaylalarda yashaganlar, loydan har – xil idish yasab, ularni olovda pishirgan, demak, kulolchilik hunarini bilganlar.

O`rta Osiyoning sharqiy hududlarida, asosan Hisor – Pomir tog`laridan topilgan neolit davri makonlari Hisor madaniyati nomi bilan ataladi. Hisor madaniyatiga mansub yodgorliklar m.a. V - II mingyillikkarga borib taqaladi. Hisorliklar sopol idishlar yasab, asosan chorvachilik, ovchilik, qisman dehqonchilik va termachilik bilan shug`ullanganlar.

Joytun madaniyati O`rta Osiyodagi eng qadimgi dehqonchilik markazlaridan biri hisoblanadi. Joytun madaniyatiga asos solgan qabilalarning mashg`ulotlari dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bo`lgan. Ovchilik xo`jalikning asosini tashkil qilmagan.

Amudaryo etaklari va Xorazm hududida ham neolit makonlari ko`plab topilgan. Bular orasida Kaltaminordagi Yongboshqal'a degan joydan topilgan makon diqqatga sazovordir. Yonboshqal'adagi chayla shaklidagi makondan o`choq qoldiqlari, neolit davri uchun xos qurollar, sopol idishlarning parchalari topilgan. Bu makonda yashagan kishilar asosan baliqchilik, ovchilik va termachilik bilan

shug`ullangan. Bunday makonlar majmuasi Kaltaminor madaniyati deb ataladi. Bu madaniyatga mansub yodgorliklarga Mohonko`l, Katta, Kichik Tuzkon, Qorong`i Sho`r, Daryosoy kabi ko`l va daryo sohillaridan topilgan makonlar misol bo`ladi (m.a. IV – III mingyilliklar).

Zarafshon etaklarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Katta va Kichik Tuzkon, Gujayli va Mohandaryoning qadimiy o`zanlari sohillaridan 45ta neolit davriga oid joy – makonlar topib o`rganilgan. Katta Tuzkon ko`li sohillaridan topilgan Darvozaqir I va II makonlari Buxoro viloyatida joylashgan. Bu yerdan silliqlangan tosh bolta, turli tosh q-uollar, to`lqinli chiziqlar bilan bezatilgan sopol buyumlari, taqinchoq va hayvon suyaklari qoldiqlari topilgan.

Quyi Zarafshon va Qashqadaryo etaklaridagi Darvozaqir I,II, Katta va Kichik Tuzkon, Qorong`i Sho`r, Qizilqir I va Poykent makonlaridan topilgan ashyolar ularning Kaltaminor madaniyatiga mansubligini ko`rsatadi.

Qizilqumdagagi Daryosoyning qurib qolgan o`zani sohillaridan ham ko`plab neolit davriga oid makonlar topib o`rganilgan. Chinkeldi, Echkiliksoy, Xo`ja Gumbaz, Qopraqat makonlari shular jumlasidandir.


Shimoli – g`arbiy Ustyurtdagi Jayronquduq va Aydabol qudug`i atroflaridan mezolitga mansub makonlar bilan birga neolit davri yodgorliklari ham topilgan. Mazkur makonlardan topilgan ashyolar bu yerda yashagan aholi baliqchilik, ovchilik va termachilik bilan shug`ullanganidan darak beradi. Janubiy – sharqiy Ustyurtdan topilgan Kasanjol neolit qabristoni ham diqqatga sazovordir. Qoraqalpog`istonning Shumanay tumanida joylashgan bu yodgorlikdan bir necha qabrlar topilgan.

Markaziy Farg`ona cho`llaridan ham 80 dan ortiq neolit davri makonlari topilgan bo`lib, ular fanda Markaziy Farg`ona madaniyati deb nom olgan. Bu yodgorliklar jumlasiga Zambar 1,3, Yangiqadam 12,14,16,19,23,35, Dorozko`l 1,2, Sariqsuv, Mingbuloq, Uzunko`l 1,5, Toypoq 2,4,6,7,8,9,10,11,12, Yangisuv, Go`rtepa, Sigirchilik, Damko`l, Madyor, Boskum I –IV kabi joy-makonlarni kiritish mumkin. Bu makonlardan chaqmoqtosh, xaltsedon va loyli chaqmoqtoshdan yasalgan turli quollar, bezak buyumlari topilgan. Ammo bu yerlardan negadir sopol idishlar parchalari topilmagan.

Turkmanistondan topilgan neolit makonlari orasida Joytun makoni mashhur. U Ashxobod shahridan 25 km. shimolda joylashgan. Bu ibridoq qishloq har birida 5-6 kishidan iborat oila yashagan 30 ga yaqin uydan iborat bo`lgan. Joytun xarobalaridan bug`doy, arpa izlari, yorma tosh, tosh boltalar, parrakchalar, o`roqlar, qurol sifatida ishlatilgan o`tkir uchli toshchalar, teshgich parmalar, qirg`ichlar, paykonlar va boshqa ashyolar topilgan. Bu yerda loydan ishlanib, pishirilgan haykalchalar va sopol parchalari ham topilgan. Joytunliklar m.a. VI-V mingyilliklarda yashab, asosan dehqonchilik, chorvachilik, qisman esa ovchilik bilan shug`ullanganlar. Joytun – O`rta Osiyodagi ilk dehqonchilik madaniyatining eng qadimgi va eng nodir yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Turkmaniston hududidan topilgan Qadimiy tepe, Nayzatepa, To`g`oltepa kabi yodgorliklar ham Joytun madaniyatiga mansub ilk dehqonchilik madaniyatining dastlabki markazlaridandir.

Kaspiy dengizining sharqiy sohillarida ham tosh asri makonlari uchraydi. Bularga Chig`anoqtepa, Xo`jasuv, Janak, Qirq sakkiz, va Chagil makonlarini misol

keltirish mumkin. Topilgan mehnat qurollari turlariga qaraganda mazkur makonlarda yashagan kishilar baliqchilik, ovchilik bilan kun kechirgan.



### **Joytun makonining rekonstruksiya qilingan ko'rinishi va topilmalar**

Qozog`istonda topilgan neolit makonlari o`z xususiyatiga ko`ra 4 xildir: ular buloqbo`yi, daryobo`yi, ko`lbo`yi va g`or makonlaridir. Bu neolit makonlarining o`ziga xos xususiyatlaridan biri ularning ochiq holda bo`lishidir. Qozog`istondagi neolit makonlarining eng mashhurlari Burgutli, Uchbuloq, Qoraungur, Inkardaryo, Jalpoq, Saksovul I, Vagispe, Kosmala va boshqalardir. Bu makonlarda yashagan kishilar asosan ovchilik, termachilik, baliqchilik va chorvachilik bilan shug`ullanganlar.

Tojikistonning daryo vodiylari, tog`oldi va tog`lik hududlaridan 200 dan ortiq neolit davri makonlari topilgan. Bular Tutqovul, Soy Sayyod, Darai Sho`r, Gaziyontega, Ko`hna Boy, Tangi Tavri, Guyoni poyon kabilar bo`lib, ular Tojikiston uchun xos bo`lgan Hisor madaniyati nomi bilan ataladi. Hisor madaniyatiga mansub neolit makonlaridan tosh qurollar, hayvon suyaklari va boshqa buyumlar topilgan. Bu topilmalarning xususiyatlariga qarab, bu makonlarda yashagan kishilar termachilik, ovchilik va chorvachilik bilan shug`ullanganlar, degan xulosaga kelish mumkin.

### **Nazorat savollari:**

1. Neolit necha davrga bo`linadi?
2. Old Osiyo neoliti haqida nimalarni bilasiz?
3. Neolit davri madaniyatlarining geografik hududlarga bog`liqligini izohlang.
4. Joytun, Kaltaminor va Hisor madaniyatlarining o`xshash va farqli jihatlariga baho bering.

## **7-mavzu: ENEOLIT DAVRI ARXEOLOGIYASI**

### **Reja:**

1. Eneolit davrining umumiy ta'rfi.
2. O`rta Osiyoda eneolit yodgorliklari.

### **Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:**

Mis-tosh davri, xalkolit, metallurgiya, ilk shahar – davlatlar, dehqonchilik, chorvachilik, sug`orma dehqonchilik, rangdor sopol buyumlar, qabrlar , muqaddas olov, devor naqshlar, Anov, Nomozgoh.

### **1-savolningbayoni:**

Metalldan foydalanishning birinchi davrini eneolit («enus» – grekcha mis, «litos» – lotincha tosh) deb atashadi. Mis davriga o`tilishi ishlab chiqaruvchi kuchlar yanada yuksalganligini ko`rsatadi. Misdan ishlangan qurollar tosh qurollarga qaraganda ancha takomillashgan bo`lsa – da, lekin mis kuchli va og`ir qurollar yasash uchun yaroqsiz bo`lgan. Shu sababli bu davrda tosh qurollardan keng foydalanilgan. Shuni aytib o`tish kerakki, neolit va eneolit deyarli bir vaqtida bo`lgan. Bu ikki davr m.a. IV – III ming yilliklarga bab – baravar mansub bo`lib, xronologik jihatdan emas, balki madaniy darajalari bilan farq qiladi.

Mis qurollar dastlab yerdan sof holda topilgan misdan yasalgan. Bu qurollarning eng qadimgilari metall qizitilmasdan sovuq holda urib yasalgan. O`sha davrlarda odamlar misni toshning bir xili deb bilishgan. Nihoyat metallning qimmatli xususiyatini: kuchli olovda suyuqlikka aylanishini va har xil shaklga kiritilib, sovigandan so`ng shu shaklni saqlab qolishini bilib olganlar. Shunday qilib, metallurgiya vujudga kelgan. Eng dastlabki mis buyumlar Anatoliyadan Xuziston (Eronning janubi - g`arbidagi tarixiy viloyat)gacha bo`lgan hududdan, Chatal Guyuk va Cheyyunu tepasi manzilgohlaridan topilgan. Bu topilmalar m.a. VIII-VII ming yilliklarga oid. Yevropada dastlabki mis buyumlar V va IV ming yilliklar chegarasida paydo bo`lgan.

Bu davr makonlaridan rangdor sopol makonlari deb nom olganlari eneolit uchun juda xarakterlidir. Ular Xitoydan Dunaygacha tarqalgan bo`lib, hamma joyda ijtimoiy taraqqiyotning bir xil bosqichi kuzatiladi. Beshta umumiy alomat ularni birlashtiradi: 1) xo`jalikning boshqa hamma turlaridan ko`ra motiga bilan qilinadigan dehqonchilikning ustunlik qilishi; 2) chaqmoqtosh qurollari juda ko`p bo`lgani holda mis qurollarning paydo bo`lishi; 3) katta ibridoiy jamoa birlashmalarining katta – katta paxsa uylari; 4) urug`ga asos solgan hayvonlarning loydan yasalgan va onalik urug`iga xos bo`lgan haykalchalari; 5) rangdor sopol buyumlarining bo`lishidir. Rangdor sopol makonlari dastlab Ikki daryo oralig`i va Misrda vujudga kelgan. Yuqorida aytib o`tilgan alomatlar Xitoy, Eron, O`rta Osiyo (Turkmaniston Anovida),

Ukraina (Tripolye), Ruminiya, Bolgariya, Yugoslaviya, Gretsiya va h.k.larda topilgan makonlarda borligi aniqlangan.

Ammo shuni ham aytib o`tish lozimki, ba'zi eneolit makonlarida rangdor sopol mutlaqo uchramaydi. Chunonchi, Germaniya, Fransiya va Yevropaning yana bir qancha mamlakatlarda bu davrda rangdor sopol buyumlar yo`q, holbuki bu mamlakatlarda ham eneolit makonlari bo`lgan. Ulardagi makonlarda tasma sopol buyumlar, ya'ni naqsh tasma – tasma qilib o`yilgan sopol buyumlar rasm bo`lgan. Zakavkazening ana shunday makonlaridagi sopol buyumlar rangli ham emas, tasmali ham emas.

Ikki daryo oralig`I (Mesopotamiya) va Old Osiyoda mis – tosh davri ilk davlat – shaharlarning yuzaga kelishi bilan xarakterlanadi. Miloddan avvalgi IV ming yillikning ikkinchi yarmiga kelib, Qadimgi Sharqning yuqori madaniyat o`choqlari va ilk quldorlik davlatlarida misdan ishlangan qurollar va zeb – ziynat buyumlari keng tarqaldi. 1922-1934 yillarda ingliz arxeologi L.Vulli tomonidan Basradan 160 km. g'arbda joyloashgan Tell-Mukayir tepaligidan Ubayd madaniyatiga oid Ur shahri (m.a. VI asr – 400 y) xarobalari o`rganilgan. Bu yerdan topilgan 16 ta hukmdorlarning boy dahmalaridagi oltin, kumush, turli toshlardan yasalgan buyumlar, jumladan Meskalamdugning oltin dubulg`asi metallsozlik va badiiy hunarmandchilikning yuksak taraqqiyotidan dalolat beradi. Bu yerdan aniqlangan zikkuratning umumiy balandligi 21 m., bo`lgan.

Eneolit davri yodgorliklariga Moldaviya va O`ng sohil Ukrainasi hududlarida keng tarqalgan Tripolye madaniyatiga mansub makonlarni misol keltirish mumkin. Bu madaniyat Kievdan janubroqda topilgan Tripolye qishlog`i nomi bilan ataladi. Tripole qishlog`i o`rtasi maydon va maydon atrofida joylashgan bir qancha turar joylardan iborat.

Tripolyeliklar dehqonchilik bilan shug`ullangan. Buni topilgan ashyolar: yorg`uchchoqlar, don, chaqmoqtoshdan yasalgan egri o`roqlar, motigalar ham isbotlaydi. Chorvachilik dehqonchilik bilan mahkam bog`liq bo`lgan. Tripolyeda ko`plab topilgan ayollar haykalchalari bu jamiyatda matriarxat hukm surganligini tasdiqlaydi.



Tripolye madaniyatiga oid topilmalar

So`nggi eneolit ona urug`i – matriarxat tuzumidan patriarxat – ota urug`iga o`tuvchi davr deb hisoblanadi, lekin ota urug`i hukmronligi faqat bronza davrida o`rnatilgan.

Eneolit davridajanubiyashimoliyhududlarqabilalarimadaniy-iqtisodiytarraqqiyotiningnotekisligi tabiiy-geografik sharoit blan ham bog`liq. Janubiy hududlarda dehqonchilik madaniyatları gullab-yashnagan vaqtida Yevrosiyodashtlarida Drevneyam (qadimiy chuqur) va Afanasyevkabi madaniyatlar mavjud bo`lgan.

## **2-savolning bayoni:**

Eneolit davrida O`rtal Osiyo aholisining madaniyati bir bosqich yuqoriga ko`tariladi. Lekin bu yerdagi qabilalarning madaniy va ijtimoiy taraqqiyoti bir xil darajada bo`lman. Arxeologik tekshiruv ishlari natijalari O`rtal Osiyo aholisi orasida ham notekis rivojlanish bo`lganligidan dalolat beradi. Unumdor xo`jaliklarga asoslangan qabilalar tezroq rivojlangan, qo`shimcha xo`jaliklar bilan mashg`ul bo`lganlari esa orqada qolgan.

Madaniy notekislik jarayonlari bilan bog`liq ravishda O`rtal Osyoning turli viloyatlarida neolit bilan eneolit bir vaqtida bo`lgan. Turkmanistonning janubida mis – tosh davrining boshlanishi m.a. IV ming yillikka mansub bo`lsa, xuddi shu davrda O`rtal Osyoning shimoliy dasht va sharqiy tog`lik rayonlaridagi qadimiy qabilalar asosan ovchilik, baliqchilik va chorvachilikning ilk shakllari bilan shug`ullangan.

Unumdor xo`jaliklar asosida rivojlangan Turkmaniston aholisi Qadimgi Sharqdagi yuqori madaniyatli hududlari bilan mahkam aloqada bo`lgan. Bu hududda neolit davrida vujudga kelgan Joytun madaniyati asosida Anov I-II va Nomozgoh I-III davrlariga mansub eneolit madaniyati keng tarqaladi.

B.A.Kuftin va V.M.Massonning Janubiy Turkmanistonda libborgan arxeologik tadqiqotlari asosida eneoliti uch davrga bo`lingan: ilk eneolit (Anov I, Nomozgoh I); rivojlangan (Anov II, Nomozgoh II) va so`nggi mis-tosh davri (Nomozgoh III)ga bo`linadi. Keng darajada tekshirilgan yodgorliklardan Anovtepa, Nomozgohtepa, Qoratepa, Chaqmoqlitepa, Yassitepa va Geoksyurtepa mashhurdir.

Eneolitning ilk bosqichida aholi bir-biriga zinch qilib qurilgan birxonali ylardan iborat qishloqlarda istiqomat qilganlar. Uylar tor, kvadrat shaklida xom gishtdan qurilgan bo`iib, xona devorlari somonli loy bilan suvalgan. O`rtal bosqichida esa qishloqlarning markaziy qismi mudofaa devori bilan o`ralib, ko`p xonali uylar ham uchraydi. Ularning orasida doira shaklidagi xonalar hamb o`iib, tadqiqotchilar fikricha, bu ibodatxona bo`iib, ular bu yerda olovgasiginishgan. Eneolitning so`nggi bosqichida qishloqlar hududikengayadi va ko`p xonali uylarning soni oshadi. Ularda dahlizlarva hovlilar vujudga keladi. Hovlilami birlashtiruvchi tor ko`chalarrasmiylashgan va ulaming hammasi qishloqning markazidagimaydonga chiqqan. Har bir uyda xo`jalik kompleksi-omborxonalarini bo`lgan.

So`nggi bosqichda qishloqlar yiriklashib, shaharlar qiyofasigao`ta boshlagan. Shu jihatini inobatga olib, arxeologlar uni shaharlargacha (protoshahar) bo`lgan davr madaniyati belgilari deb hisoblaydilar.

Arxeologik qazishlardan chiqqan ilk eneolit Anov I va Nomozgoh I davriga oid uy-joylar xom g`ishtlardan qurilgan. Moddiy topilmalar orasida mis qurollar kam

uchraydi. Sopol idishlar rangdor bo`lib, naqshlar ichida egri chiziqlar va uchburchak geometrik suratlar uchraydi. Yassitepada olib borilgan arxeologik qazishlar natijasida ibtidoiy ibodatxonaning qoldiqlari topilgan. Qadimgi inshootning devorlari gemitrik naqshlar bilan bezatilgan. Markaziy xonadan topilgan katta o`choq ehtimol o`tga sig`inishning dastlabki ko`rinishidan darak beradi.

Rivojlangan eneolit davriga oid yodgorliklar Geoksyur vohasida keng ravishda o`rganilgan. Bu yerdan topilgan qadimiylar qoldiqlari, tosh va mis qurollar, don qoldiqlari va boshqa ashyolar geoksyurliklar asosan dehqonchilik bilan shug`ullanganligini ko`rsatadi. Ularda uy chorvachiligi ham muhim ahamiyatga ega bo`lgan. Anov II madaniyatini yaratgan qadimgi dehqonlar atrofi devorlar bilan o`ralgan qishloqlarda, paxsa yoki g`ishtlardan qurilgan uylarda yashaganlar. Mullalitepada o`tkazilgan qazishlar chog`ida qadimgi mudofaa devorlari qoldiqlari topilgan. Makonlardan topilgan guldar sopol buyumlar kulolchilikning ancha rivojlanganidan dalolat beradi.



Anov tepaligi va ushbu madaniyatga oid topilmalar

So`nggi eneolit davriga oid Nomozgoh III, Qoratepa kabi yodgorliklardan rangdor sopol buyumlar, ayol va erkak haykalchalari, mis pichoqlar, tosh qurollar va boshqa uy - ro`zg`or buyumlari topilgan. So`nggi mis – tosh davrida kulolchilik yuksak darajada rivojlangan. Eneolit sopol buyumlari qadimgi hunarmandchilik kasbini o`rganishda g`oyat qimmatli manba hisoblanadi. Bu davrdagi qurilishlarda rejalahtirishga amal qilingan. Ko`chalar, maydonlar va katta jamoat binolari tartib bilan qurilgan. Geoksyur vohasida so`nggi eneolit davriga oid qadimgi qabriston qazib ochilgan.

Janubiy Turkmaniston hududida eneolit zamoniga mansub 32 ta qadimgi makon – tepe o`rganilgan. Ularning asosiy qismi Ashxabodga yaqin joyda va Geoksyur vohasidan (Quyi Murg`ob va Tajon daryolari orasida) topib tekshirilgan.

O`zbekiston hududida eneolit davri yodgorliklari u qadar yaxshi o`rganilmagan. M.a. IV – III ming yilliklar boshlarida Amudaryo va Zarfshon quyi oqimlarida Kaltaminor madaniyati tosh qurollari, sopol idishlari va uy – joylari keng tarqaladi. O`rta Osiyoning shimoli – sharq dashtlarida va Orol dengizi sohillarida ibtidoiy ovchilik, baliqchilik va ilk chorvachilik xo`jaliklariga asoslangan qabilalar yashagan.

Arxeologlar fikricha, Buxoro viloyatining Lavlakon, Beshbuloq mavzelarida va Zamombobo 1 qabristonida topib tekshirilgan moddiy manbalar eneolit davriga oiddir. Quyi Zarafshonning Kaptarni qumi va Kattatuzkon mavzelari atrofida to`rt

joydan eneolit davriga oid yodgorliklar tekshirilgan. Yuqori Zarafshonning Panjikent shahridan 15 km. g`arbda 1976 yilda topilgan va 1977 yildan boshlab tojil arxeologi A.Isoqov boshchiligida o'rganila boshlangan Sarazm qishlog`i xarobasi muhim arxeologik yodgorlikdir. Keyinchalik bu erda fransuz va amerikalik olimlar hamhamkorlikda tadqiqot ishlarini olib bordilar. Sarazm qishlog`i xarobasi 90 hektar maydonda joylashgan 10 ta tepalikdan iborat. Bu madaniyat 4 bosqichda rivojlangan bo`lib, uning I va II bosqichlari eneolit davriga to`g`ri keladi.

### **Nazorat savollari:**

1. Eneolit davrida rangdor sopollarning barcha xududlarda uchramasligiga qanday sabab mavjud?
2. O`rta Osiyo hududida topilgan eneolit manzilgohlariga ta'rif bering.
3. Eneolit davrida O`rta Osiyo xalqlarining rivojlanishidagi madaniy notejislik sabablarini ko`rsating.
4. Sopol buyumlar arxeologik tadqiqotlarda qanday ahamiyatga ega?

### **8-mavzu: BRONZADAVRI**

#### **Reja:**

1. Bronzadavriningo`zigaxosxususiyatlari.
2. O`rta Osiyo bronza davrida

### **Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:**

Mis - qalay qotishmasi, mehnat taqsimoti, patriarchal munosabatlar, shahar qurilishi usuli, shahar tipidagi madaniyat, ibodatxonalar, zikkurat, kulolchilik charxi, Zamonbobo, Tozabog`yob, Chust madaniyati.

### **1-savolning bayoni:**

Bronza davri milloddan avvalgi III ming yillikni o`z ichiga oladi. Bronza bu mis bilan qalay qotishmasidir. U o`z xususiyatlari bilan misdan ustun turadi. Ma'lumki mis yumshoq metall bo`lib, undan ishlangan qurollar uncha chidamli bo`lmaydi. Bronza misga qaraganda qattiq va pishiqroqdir. Undan tashqari bronzani eritib quyish oson, chunki erish harorati pastroq. Misni eritish uchun esa harorat juda yuqori bo`lishi zarur bo`lgan. Bu o`rinda shuni ta'kidlab o`tish kerakki, butun bronza davrida tosh metall bilan muvaffaqiyatli ravishda raqobat qilib kelgan.



Bronza davri qurollari va bronza eritilgan o'choq

Bronzaning ilk vatani Kichik Osiyo va Ikki daryo oralig`i bo`lgan. Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Kichik Osiyo va Eronning janubi – g`arbida miloddan avvalgi III – II ming yillikning boshlarida quldorlik jamiyati keng ravnaq topgan.

Bronza davrinining xo`jalik sohasida erishgan eng katta muvaffaqiyatlaridan biri qadimgi dehqonchilikning keng yoyilishi va m.a.II ming yillikning ikkinchi yarmida chorvachilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishidir. Bronza davri deyarli barcha mamlakatlarda chorvachilikning rivojlanish davridir. Mazkur davrda ishlab chiqarish munosabatlari tez rivojlanib, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarga ta'sir ko`rsatdi. Ishlab chiqarishning o`sishi natijasida moddiy madaniyat ham yangi asosda taraqqiy etdi.

Bronza davriga oid yodgorliklar barcha mamlakatlarda keng o`rganilgan. Ularga Yerevan hududidan topilgan Shengavit makoni va Urartu davriga oid Teyshebaini qal'asi xarobalari, Ozarbayjondagi Mingechaur makoni va Qizil Vank qabristoni, Gruziyadagi Kolxida yodgorliklari va Trialeti mozor qo`rg`oni misol bo`la oladi. Shimoliy Kavkazda keng tarqalgan Maykop madaniyati ham bronza davriga oid (III ming yillikning ikkinchi yarmi). Maykopda qazib ochilgan mozor qo`rg`on bronza davriga oid bo`lib, juda boy topilmalari bilan mashhur. Bu qo`rg`on misolida mulkiy tabaqlanishning kuchayganligini ko`rish mumkin.

Yevropadagi ibridoiy davr qo`rg`onlarining deyarli hammasi-dan bo`yalgan va bo`ymagan skletlar topilgan. Skletlar yerda yonboshlab, oyoqlari bukilgan holatda yotishadi. Bu odad keng yoyilgan. Hatto Sharq, Markaziy Osiyo hududlarida ibridoiy qabilalar tug'ilguncha odam ona qornida qanday holatda bo`lsa, o`lganidan keyin yer bag`rida shu taxlitda yotadi deb o`ylaganlar. Arxeologlar tomonidan murdani bo`yab, bukchaytirib ko`mishning 3 davri ajratib o`rganilgan:

1. Qadimgi chuqur, mozor-qo`rg`onlari (eneolit davriga mansub).
2. Katakomba mozor-qo`rg`onlari.
3. Yog`ochband mozor qo`rg`onlari.

Katakomba mozor-qo`rg`onlari go`rlari yon tomoniga o`yib qazilgan alohida lahad shaklidagi qabrlardir. Bu mozor qo`rg`on-lardan bronza, mis-pichoqlar, to`g`nag`ichlar, bigiz, buyumlar topilgan. Katakomba mozor-qo`rg`onlarida tosh quollar silliqlangan tosh boltalar va chukmorlar, chaqmoqtosh, nayza, o`q va pichoqlar, sopol idishlar ko`plab topilgan, bu sopol buyumlarning aksariyatini tagi tekis va hatto boshqa shakllari ham uchraydi. Bu davrdagi mozor qo`rg`onlarda erkaklar bilan ayollarning birga ko`milganligi patriarchal munosabatlarning taraqqiy etganligidan darak beradi. Bronza davri chorvador qabilalarining mozor qo`rg`onlarida bu odatni ko`rish mumkin. Eneolit davriga mansub qadimiy chuqur davrida bu holat sira bo`lmajan.

*Katakomba* davri miloddan avvalgi III ming yilning oxirlarida II ming yillikning I-yarmiga bo`lgan davrni o`z ichiga oladi. Katakomba mozor-qo`rg`onlaridan erkaklar va ayollar murdalari topilgan. Ko`plab kollektiv qabrlar ham uchraydi.

Miloddan avvalgi II ming yillikning o`rtalarida katakomba davri o`rniga yog`ochband davri keladi. Yog`ochband-yog`och qabr, MDH hududlarida, Shimoliy Yevropada ko`plab tarqalgan. Go`rlar-ning ichiga murdalar yog`och tobutda qo`yilgan. Shuning uchun ham bu qabrlar yog`ochband qabrlar deb ataladi.

*Yog`ochband* davri miloddan avvalgi II ming yillikning o`rtalariga to`g`ri keladi. Bu davrda dastali, teshikli boltalar keng tarqalgan. Dastlab ular Sharq

mamlakatlaridagi yodgorliklardan topilgan. Yog'ochband davrida metallurgiya va chorvachilikning, rivojlanishi boyliklar to'planishiga va parbiy to'qnashuvlarning kuchayishiga olib keladi. Jamiyatda moddiy boyliklarning ayrim kishilar qo'lida to'planishi jarayoni boshlanadi.

Bronza davriga oid bo'lgan qo'rg'onsiz qabrlar ham ko'p uchraydi. Unda murdalar kuydirilgan. Bunday xolat xarbiy Evropada so'nggi bronza davri uchun xarakterlidir.

Sibirda bronza davri Afanasyev, Andronova va Qorasuq davrlariga bo`linadi. Bulardan Andronova davri bevosita O'rta Osiyo bilan aloqadorki, bu haqda biz keyinroq to`xtalib o`tamiz.

## 2 – savolning bayoni:

Bronza davrida O'rta Osiyo hududida ham ishlab chiqaruvchi kuchlar ancha taraqqiy topgan va janubiy rayonlarda qadimgi sharq madaniyatlariga mansub madaniy xo'jalik tiplari tarqalgan. Bronza davrida dehqonchilik va chorvachilik O'rta Osiyo madaniyatining asosiy sohalari bo'lgan. Tez taraqqiy etib borgan iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot tufayli O'rta Osiyo cho'llarida yashagan qabilalar boshqa aholidan ajralib chiqqan va asosan chorvachilik bilan mashg`ul bo`lgan. O'rta Osiyo shimoliy va sharqi hududlarida mavjud bo`lgan bronza yodgorliklari madaniyati janubiy o'troq bronza yodgorliklaridan ajralib turadi.

Turkmaniston bronza davri madaniyati ikki xronologik bosqichga bo`linadi: 1) ilk (Nomozgoh IV-V) va rivojlangan bronza davri (m.a. III ming yilliklarning o`rtalari – II ming yilliklarning birinchi yarmi); 2) so`nggi bronza davri (Nomozgoh VI, m.a. II ming yilliklarning ikkinchi yarmi).



Nomozgoh V topilmalari

Turkmanistonbronzadavriyodgorliklariga Nomozgohtepa, Anovtepa, Oqtepa, Oltintepa, Tekkemtepa, Gonurtepa, Tog`oltepa, Elkantepa, Yangiqal'aqabristonikabilarnimisolkeltirishmumkin. Kulolchilik charxi O'rta Osiyoda birinchi bor Turkmaniston janubida topilgan. Oltintepa yodgorligini qazish chog`ida paxsa va xom g`ishtdan ishlangan zinapoyali minora – ibodatxona ochilgan. Bunday ibodatxona – zikkuratlar Ikkidaryo oralig`ida Uruk davrida paydo bo`lgan. Bronza davrida Turkmaniston janubi O'rta Osiyoning eng muhim madaniy markazlaridan biri bo'lgan. Bu hududda dehqonchilik sug`orish – irrigatsiyaga asoslangan. Janubiy Turkmaniston qabilalarini Qadimgi Sharq quzdorlik davlatlari bilan madaniy aloqalar va savdo yo'llari birlashtirgan.

O'zbekiston hududidagi bronza davri qabilalari bir xilda taraqqiy topgan emas. Bu bosqichda Surxondaryo, Zarafshon vohasi va Xorazmdan iborat uchta o'lkada eng qadimgi makonlar topilgan. Har qaysi o'lkaning madaniy taraqqiyotida o'ziga xos xususiyatlar bo'lgan. Bu madaniyatlar dehqonchilik, uy chorvachiligi va chorvachilik – dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi qabilalarga mansubdir. Ular bir – biridan ajralgan holda taraqqiy qilgan emaslar va qabilalar o'rtaisida keng madaniy aloqalar bo'lgan.

Janubiy O'zbekiston (Surxondaryo) muhim o'troqlik o'choqlaridan biri hisoblanadi. Bronza davri yodgorliklari qadimgi sug`orma rayonlar – Ulonbuloqsoy, Sherobod, Bandixon va Mirshodida topib tekshirilgan. Qadimgi dehqonlar atrofi devorlar bilan o'ralgan qishloqlarda yashaganlar. Bronza davri aholisi soyalar bo'yalariga tarqalib sug`orma dehqonchilikda ularning suvlaridan foydalanganlar. Mahalliy sug`orish tajribasida soylardan kanal va ariq chiqarish katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Surxondaryo issiq iqlimli o'lka bo`lib, shimol, shimoliy - g`arb va sharqda Xisor, Kuxitog`, Bobotog` janubda Amudaryo bilan chegaralangan. Qadimgi sug`orish yerlari tog` tizmalariga yaqin joylashgan. 1968 yilda Termizdan 70 km shimoliy - g`arbdagi Sopollitepa topib tekshirildi. To`rt gektar joydan iborat tepalikning markaziy qismida to`rburchakli istehkom qazib ochildi. Uning hamma tomoni 82 metr. Istehkum ichida turar joylar ro`zg`or va xo`jalik xonalari hunramandchilik ustaxonalari inshootlari topildi.

Sopollitepadagi uy – joy devorlari tagida qadimgi qabrlar tekshirilgan. Ularning 125 tasiga yakka jasad qo'yilgan, 13 ta jasad kollektivli go'r vazifasini bajargan. O'liklar sopol idishlar, quroq – yaroqlar va zeb – ziynat buyumlari bilan birga qo'yilgan. Erkaklar qabrlaridan 104 ta bronza buyumlar, bilakuzuklar, jez oynalar va munchoqlar topildi. Sopol idishlar kulolchilik charxida yasalgan, asosan naqshsiz va to`g`ri simmetriyalı buyumlardan iboratdir. Moddiy manbalar Sopollitepada metallchilik yuksak darajada rivojlanganligidan dalolat beradi.

1973 yilda Sheroboddaryo vohasida joylashgan Jarqo`ton bronza davri yodgorligida arxeologik tekshiruv ishlari boshlangan. Jarqo`ton 100 gektar maydonda joylashgan uy-joylar va qadimgi qabristonlardan iborat. Jarqo`tondan bronza idishlar, xanjarlar, pichoqlar, zeb-ziynat buyumlari, sopol idishlar va chaqmoqtoshdan ishlangan nayza paykonlari topilgan. Surxondaryodan topilgan Mullalitepa, mullali qabri, Qiziljartepa, Qizilsuv va Bo`yrachi 1 tepalari ham bronza davriga oid yodgorliklardir.

Bronza davriga oid moddiy madaniyat yodgorliklari Xorazmda ham topib tekshirilgan. Bu madaniyat Tozabog`yob madaniyati nomi bilan mashhur. Bu madaniyatga mansub makonlar Amudaryoning Oqchadaryo deltasida joylashgan. Bu yerda 50 ta qadimgi makon topib tekshirilgan. Qavat 3, Ko'kcha 3, Ko'kcha 15 makonlari shu madaniyatga mansub. Xorazmda tekshirilgan so`nggi bronza davri yodgorliklari Amirobod madaniyati nomi bilan ataladi. Amirobod madaniyati m.a. IX –VIII asrlar bilan sanaladi.

Zarafshonning quyi oqimidagi Zamonbobo ko`li yaqinida, Farg`ona vodiysida va Samarqand yaqinidagi Mo`minobod qishlog`ida ham Tozabog`yob madaniyatiga

mansub makonlar va qabrlar tekshirilgan. Quyi Zarafshon bronza yodgorliklari Zamombobo madaniyati nomi bilan ataladi.

M.a. II ming yillikning ikkinchi yarmida O`zbekiston dashtlariga chorvador qabilalar kelib o`rnashadi. Ularning moddiy madaniyati Janubiy Sibir va Qozog`iston cho`llarida yashagan Andronova madaniyatiga o`xshab ketadi.

Tojikiston hududidan ham bronza davriga oid yodgorliklar ko`plab topilgan. Bularga Tulkar, Tandiryo`l, Vaxsh, Oyko`l va Qizilsuv qabristonlari, Teguzak va Kangurtut makonlari misol bo`ladi.

### **Nazoratsavollari:**

1. Bronzadavridahamovqurollari, ishqurollaritoshdanishlangan, bunganimasababbo`lganedi.
2. Bronza qurollarining afzallik tomonini ayting?
3. O`rta Osiyoda ikki xo`jalik madaniyatining shakllanishi sabablarini ko`rsating.
4. O`rta Osiyodagi bronza yodgorliklariga qanday baho beriladi?

### **9-mavzu: TEMIR DAVRI ARXEOLOGIYASI**

#### **Reja:**

1. Temir davrining asosiy xususiyatlari.
2. O`rta Osiyo temir davrida.

### **Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:**

Ilk temir davri, ikkinchi mehnat taqsimoti, ko`chmanchi chorvadorlar, mozor - qo`rg`onlar, Anov, Yoztepa, Afrosiyob, Qizilcha, Daratepa, Ko`zaliqir, Dingilja, Arvalitepa, Ko`hnatepa, Uchtepa, Kuchuktepa, Bandixon I, Qiziltepa, Yerqo`rg`on, Chiroqchitepa, Uzunqir, Sangirtepa, saklar, Tagisken maqbarasi.


### **1-savolning bayoni:**

Temir o`ziga xos metall. Uning xususiyatlari boshqa metallarga nisbatan afzalligini belgilaydi. Temir metali tabiatda ko`p uchraydi. Albatta, u tayyor shaklda emas, balki ma`dan shaklida keng tarqalgan edi. Temir ma`danidan ajratib quyuq holatda olingan va sandonlarda toblangan. Bizga ma'lumki bronza buyumlar suyuq holatda qoliplarga quyilar edi. Temirning erish temperaturasi  $1534^{\circ}\text{S}$  bo`lib, undan yasalgan jang va mehnat qurollari o`zining qattiqligi, o`tkirligi bilan avval mavjud bo`lgan qurollarga nisbatan ustuvor xususiyatlarga ega bo`lgan. Temirning yangi metall turi sifatida kashf etilishi o`z zamonasining moddiy madaniyatini o`zgartiribgina qolmay, texnika uchun yangi imkoniyatlar tug'dirdi. Keyingi ming yilliklarda yuz bergen ijtimoiy-iqtisodiy o`zgarishlar uchun zamin yaratdi.

Sof temir bilan odamlar miloddan avvalgi III – II ming yillikdayoq tanishganlar, biroq u amaliy ahamiyatga ega bo`lmagan. Gap shundaki, dastlabki tabiatdagi sof temir faqat meteoritlarda uchragan, nihoyatda kamyob bo`lganligi tufayli u ayrim mamlakatlarda ilohiyashtirilgan.

Temir haqida dastlabki yozma ma'lumotlar Misr fir'avnlari Amenhotep va Exnaton davrlariga to`g`ri keladi. M.a. XIV- XIII asrlarda dastlab Kichik Osiyo, Misr, Ikki daryo oralig`i va Egey dunyosida ishlangan va bizgacha yetib kelgan

buyumlar g`oyat qimmatli noyob zargarlik buyumlaridir. Temir hamma joyda avval zeb-ziynat buyumlari sifatida paydo bo`lgan. Yozma manbalar va arxeologiya ma'lumotlari eng qadimgi temir metallurgiyasi Kichik Osiyodagi Xett podsholigi hududida m.a. XIV-XIII asrlarda vujudga kelganligidan dalolat beradi. Temir buyumlar Eron va Hindistonda m.a. X-IX asrlarda, Italiyada m.a.XII asrda, Shimoliy Yevropada taxminan m.a. X asrda paydo bo`lgan. Temirni ommaviy ko`lamda qo'llanilishining dastlabki tajribalari m.a. IX asrda qilingan. M.a. VIII asrda quldorlik davlatlarida temir bronza o`rnini olgan. M.a.VII asrda butun Yevropada temir yarog`lar rasm bo`lgan.



Temir qurollar

Temir bronzadan ko`ra qattiqroq va o`tkirroq metalldir. Temirning yer yuzida eng ko`p uchraganiga qaramay kech kashf etilishiga sabab, uning yuqori darajada erishidir. Temirning kashf etilishi qadimgi texnika sohasida katta o`zgarish yasadi. Temir qurollar asosiy ko`pchilik mamlakatlarning uzil-kesil dehqonchilikka o`tishiga sharoit yaratdi. Temir boltalarning paydo bo`lishi, yer haydash qurollarining o`zgarishi katta ahamiyatga ega bo`ldi. Ko`pchilik muhim mehnat qurollarining tarixi m.a. I ming yillikdan boshlanadi.

Temir davridagi eng muhim o`zgarishlardan biri ikkinchi mehnat taqsimotining ro`y berishi, ya'ni hunarmadchilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishidir. Barcha mamlakatlarda hunarmandchilikda eng oldin temirchilik kasbi paydo bo`ldi, bu kasb ayirboshlash va jamg`arishni tezlashtirdi. Ishlab chiqarishning va u bilan mehnat unumdorligining beto`xtov o`sib borishi kishining ish kuchi qimmatini oshirib yubordi, qulchilik ijtimoiy tartibning muhim tarkibiy qismiga aylana boshladи.

Qadimiy shaharlarning ko`pchiligi ilk temir davrida qurilgan, mustahkamlangan istehkomlar ko`paygan, urushlar doimiy hodisaga aylangan.

Ilk temir davri xronologik jihatdan m.a. I ming yillikni va milodimiz I ming yilligi boshini o`z ichiga oladi. Bu davrda ba'zi mamlakatlarda quldorlik jamiyatları paydo bo`lgan bo`lsa, ba'zi mamlakatlarda ibridoijy jamoa tuzumi saqlanib qolgan.

Urartu davlati ilk temir davridagi yirik podsholiklardan biri bo`lgan. Urartu so`zi ossuriycha bo`lib, urartcha – Biaynili, Bibliyada – Ararat podsholigi nomi bilan yuritilgan. Erebuni (Yerevan atrofidagi Arin-berd tepaligi) shahri xarobalarida olib borilgan tadqiqot ishlari jarayonida toshda o'yib yozilgan yozuv topiladi, unda: "Xalda xudosi panohidagi Argishti, Menuaning o'g'li, bu qal'anı qurdirib, shaharga Erebuni nomini berdi, Biayna (Urartu) va boshqa mamlakatlardagi shaharlardanda mustahkam. Shahar o'rnida avval hech nima yo'q edi, men bu yerda Xate va Supanidan 6600 askar olib keltirib uni bunyod ettirdim", deb yozilgan. Qadimgi urart

tilidagi Erebuni hozirgi Yerevan nomi bilan bog'liq bo'lib, Armaniston poytaxtining yadrosi sifatida qadimgi shaharlardan biri hisoblanadi.

Teyshebaini Urartu davlatining yirik markazi (mil. avv. VII-VI asrlar) bo'lib, bugungi kunda Yerevan shahridagi Karmir-Blur tepaligida qal'a xarobalari sifatida saqlanib qolgan. Mahobatlari inshoot qoldiqlari (150 ga yaqin xona – ustaxonalar, omborxonalar, don omborxonalar (750 t gacha don saqlangan), vino saqlanadigan yerto'lalar (8 ta) va b.) aniqlangan. Qal'a atrofida to'g'ri rejalashtirilgan shahar joylashgan. Teyshebainidan ko'plab qurol-aslahalar (jumladan Urartu podsholriga tegishli serbezak dubulg'alar, sadoqlar, qalqonlar, qilichlar va b.), san'at buyumlari, taqinchoqlar, mixxat yozuvlari, Teyshebaning bronzadan ishlangan haykalchasi topilgan.



Chertomlikdan topilgan  
kumush idish



Tolstaya Mogila  
oltin pektoralı



Kuloba oltin idishi

Quldorlik jamiyati taraqqiyotini Sharqiy Yevropadagi skiflar hayoti misolida ko`rib chiqishimiz mumkin. Skiflar Qoradengizdanshimoli-g'arbda, Dunay va Don, Dnepr va Dnestr daryolari quyihavzalaridanto Volgaga qadarbo'lghanhududlardayashagan chorvador aholi (mil. av. 7—mil. 3-a.) bo'lib, ularda mulkiy tabaqalanishning bo`lganligini arxeologik topilmalar yaqqol ko`rsatadi. Oddiy qabrular, katta mozor qo`rg`onlar va podsho qabrularidagi topilmalar o`rtasida katta farq bor. Skif podsholarining mozor qo`rg`onlari tengi yo`q zargarlik san'ati asarlari va noyob buyumlari bilan mashhur. Kerchdagagi *Kuloba*, Quyi Dnepr bo`yidagi *Chertomlik* va *Soloxamozor* qo`rg`onlari bunga misol bo`la oladi. Jumladan, Ukrainianing Dnepropetrovsk viloyati Orjonikidze shahri yaqinida joylashgan. *Boy qabr* (*Tolstaya mogila*) qo`rg`oni (mil. av. 4-a.) 1971 yilda B.N.Mozolevskiy tomonidan tadqiq etilgan. Qo`rg`on tagida 2 ta maqbara ochilgan. Ulardan biri (yonboshdagisi) dan aslzoda ayol va uning go'dagining suyak qoldiqlari topilgan. Ular sernaqsh, zarbof liboslar bilan hamda 4 ta xizmatkor hamrohligida dafn etilgan. Markaziy maqbara (talon-taroj etilgan)ga esa skiflarning oliy zodagoni dafn qilingan. Dafn anjomlari orasida qurol-yarog', idishlar, 600 ga yaqin bezak buyumlar saqlanib qolgan. Ko'krakka taqiladigan oltin bezak — pektoral o'zining yuksak badiiy ishlovi bilan alohida qimmatga ega. Maqbara yonida 3 otboqar, 7 ot tilla egar-jabduqlari bilan dafn etilgan.

Ana shunday mozorqo'rg'onlarning ko'pi afsuski qadimda o'g'irlan-gan, qimmatbaho buyumlar talab ketil-gan, ularning qish faslida o'g'irlan-ganlari ichiga suv kirib — muzlab qol-gan va bizgacha shu xolatda etib kelgan. Mil. av. 5—4-a.larga oid Oltoyning *Poziriq mozorqo'rg'onlari* bunga misol bo'la oladi.

## 2-savolning bayoni:

O'rta Osiyoda temirdan ishlangan eng qadimgi buyumlar 22 ta yodgorlikdan topilgan bo'lib, dastlabki mehnat qurollari miloddan avvalgi IX-VIII asrlarga mansub bo'lган yodgorliklardan topilgan. Uarning ko'pchilik qismi esa asosan m.a.VI – IV asrlarga mansub. Temir davri yodgorliklariga Turkmanistondagi Anov, Yoztepa, O'zbekistondagi Afrosiyob, Qizilcha, Daratepa, Ko`zaliqir, Dingilja, Dalvarzin kabilar kiradi.

M.a. I ming yillikning boshlariga oid yodgorliklardan Janubiy Turkmanistonda 46 ta qadimgi qishloq xarobasi ma'lum. Quyi Murg`obdag'i *Yoztepa*, *Arvalitepa*, *Ko`hnatepa*, *Uchtepa*, Kopetdog` atrofida joylashgan *Anovtepa*, *Yelkantepa*, *Cho'rnoq*, *Ulug'tepa* kabi yodgorliklar shular jumlasidandir. Yodgorliklarning eng qadimgi madaniy qatlamlari temir asriga o'tish davriga xosdir. Bu yodgorliklardan topilgan sopol idishlar kulolchilik charxi va qo'lda yasalgan. Ularda bronza va tosh mehnat qurollari ham ko`plab uchraydi. Turkmanistonning janubi - g`arbida joylashgan Doxiston topilmalari shahar va qishloq xarobalaridan iborat. Doxistonning markaziy shahar xarobalari – Madov va Izatquli atrofida qadimgi kanallar izlari yaxshi o`rganilgan.

Temir asri yodgorliklaridan biri *Yoztepa* bo'lib, uning quyi qatlamini Yoz I miloddan avvalgi 900-650 yil bilan sanalanadi. Ushbu davrda yodgorlik 16 ga maydonni egallagan qishloq turar joylaridan va to'g'ri burchakli katta imorat-qo'rg'ondan iborat bo'lgan. Qo'rg'on o'rnida 8 m keladigan xom g'ishtli sahn ustiga qurilgan saroy qoldiqlari topilgan. Xonalar uzun va to'rtburchak shaklda bo'lgan. Yoz I davri sopol idishlarining ko'pchiligi qo'lda yasalgan. Idishlar sariq angob bilan bo'yalgan va angob ustidan jigarrang va qizil bo'yoq bilan geometrik shaklli naqsh solingan.

O'zbekiston hududida ham ilk temir davriga oid bo'lgan ko'plab yodgorliklar topilgan. *Afrosiyob*, *Daratepa*, *Ko`zaliqir*, *Uygarak*, *Chust*, *Dalvarzin*, *Oqtom*, *Kuchuktepa*, *Bandixon I*, *Qiziltepa*, *Yerqo'rg'on*, *Chiroqchitepa*, *Uzunqir*, *Sangirtepa*, *Ko`zaliqiryodgorliklari* shu davrga mansubdir.

Dalvarzin, Daratepa va Quysisoy topilmalari m.a. VII asrga oid. Qalaimir va Daratepada m.a. VI-I ming yilliklarga oid katta patriarxal oila yashagan, g`isht va paxsadan qurilgaen uy – joylar qazib ochilgan. Hozirgi kungacha saqlanib qolgan sug`orish kanali va ariqning quruq o'zanlari hamda arxeologik qazishlar chog`ida topilgan ko'pdan – ko`p xumsimon idishlar, tosh qurollar va boshqalar qadimgi aholining xo`jaligi va madaniyatini o`rganish imkonini beradi. Arxeologik tekshirishlar natijasida topilgan m.a. VI-IV asrlarga mansub moddiy manbalar hunarmandchilik tarixini o`rganishda ham katta ahamiyatga ega.

M.a. II ming yillikning oxirlarida va I ming yillikning boshlarida Farg`ona vodiyida *Chust madaniyati* rivojlandi. Dastlabki yodgorligi 1951 yilda arxeolog M.Ye.Voronev tomonidan Chust shahri yaqinidagi Buvanamozor deb atalgan buloq

yoqasidan topib o'rganiladi. Bu madaniyatga tegishli bo'lган yodgorliklar Namangan, Andijon, Farg'ona viloyatlarida 70 dan ortiq bo'lib, ulardan 10 ga yaqini arxeologlar V.Sprishevskiy, B.Matboboev, Yu.Zadneprovskiyalar tomonidan tadqiq etilgan.

Chust, Dalvarzin, Ashqoltepa, Chimboy, Tergovchi va boshqa yodgorliklardan topilgan yerto'la, paxsa va xom g'ishdan qurilgan uylar, tosh va jez o'roqlar, pichoqlar, tosh yorg`UCHOQLAR hamda arpa, bug`doy, tariq donlari va ular uchun kovlangan o`ralar chustliklar asosan dehqonchilik bilan mashg`ul bo`lganligidan darak beradi. Chust madaniyatiga mansub bo'lган, Andijon viloyatining Oyim qishlog'i yaqinidan topilgan Dalvarzintepa yodgorligida (m.a. 10-8 asrlar) mudofaa devorining qoldig'i qazib olingan. Uning eni 4,6 m, balandligi 2,5 m ni tashkil etadi. Bu madaniyatni yaratgan dehqonlar turmushida metallchilik, kulolchilik va to`quvchilik ham muhim o`rin tutgan. Chust madaniyatiga guldor sopol buyumlar xosdir.

Hozirgi Samarcand, Navoiy, Qashqadaryo va Jizzax viloyatlari hududlarida So'g'diyona deb nomlangan qadimgi dehqonchilik madaniyati markazi shakllangan. Uzoq davom etgan tarixiy jarayonlar bilan bog'liq holda miloddan avvalgi 2,5 ming yillar ilgari (miloddan avvalgi I ming yilliklar o'rtalarida) Markaziy So'g'dda Samarcand shahri - *Afrosiyob* qad ko'taradi. Afrosiyob yodgorligining ilk qatlamlaridan Chust madaniyati tipiga oid sopol parchalari topilgan. Shuningdek, miloddan avvalgi VI asrga mansub mudofaa devorlarining qoldiqlari o'rganiladi.

Qashqadaryo viloyati (janubiy So'g'diyona) hududlaridan ilk temir davriga mansub bo'lган *Yerqo'rg'on*, *Daratepa*, *Uzunqir*, *Qo'rg'oncha* singari yodgorliklar o'rganilgan. Yodgorliklardan xom g'ishtdan va paxsadan qurilgan bino qoldiqlari, metall qurollar, hunarmandchilik buyumlari topilgan.

Surhondaryo viloyatida (Baqtriyaning shimoli) *Qiziltepa*, *Kuchuktepa*, *Talashgantepa*, *Bandixon tepa* singari yodgorliklar topilgan. Ilk temir davriga mansub bo'lган yodgorliklarda arxitektura va qurilish texnikasi, hunarmandchilik rivojlanganligini ko'rsatuvchi moddiy topilmalar o'rganilgan.

Toshkent viloyatida ilk temir davri yodgorliklari Burgulik madaniyatiga aylangan. 1940 yilda arxeolog A.Terenojkin "Burgulik madaniyati" ga mansub bo'lган makonlarni o'rganishni boshlaydi. Burgulik madaniyati miloddan avvalgi VI-IV asrlar bilan belgilanadi. 1972 yilda arxeolog X.Duke chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullangan qabilalarining 14 ta qishloq va 60 dan ortiq yerto'la va yarim yerto'la shaklidagi kulbalarni o'rganadi. Bu makonlardan yorg'o'choqlar, tosh o'g'ir, o'g'ir soplari, tagi yassi qilib ishlangan kosalar, tuvakchalar, xurmachalar, quloqli sopol qozonlar topilgan.

Xorazmda ilk temir davriga oid Ko'zaliqir, Quyisoy, Uygarak, Dingilja kabi ko'plab yodgorliklar mavjud bo'lib, ular miloddan avvalgi VII-V asrlarga mansubdir.

O'rta Osiyoning dasht va tog'li rayonlarida yashagan ko'chmanchi chorvador sak qabilalarining izlari ilk temir davri yodgorliklarida muhrlanib qolgan. Bunday yodgorliklar Pomir, Tyanshan, Quyi Zarafshon, Amudaryo, Orol dengizi atroflarida topilgan bo'lib, ular asosan mozor-ko'rg'onlardir. Saklarning shahar xarobalari topilmagan. Ko'chmanchilarning uy-joylari yerto'la, chaylasimon uylardan iborat bo'lган.

Saklarning mozor-qo'rg'onlarida ot anjomlari, bronza va temirdan ishlangan harbiy qurollar, zeb-ziynat buyumlari, mehnat qurollari va sopol idishlar uchraydi. Quyi Sirdaryo irmog'i bo'lgan Inkordaryo bo'yida *Uygarak qabristoni* topilgan. Yodgorlik xalqa shaklida bo'lib, uning balandligi 1,5-2,0 m, diametri 27-40 m keladi. Kichik mozor qo'rg'onlardagi oddiy qabrlarda sopol idishlar va bronza o'q uchlari uchraydi. Saklarning mozor - qo'rg'onlarida mulkiy tengsizlik ko`zga tashlanadi. Katta mozor-qo'rg'onlardagi saklar va qabila boshliqlarining qabrlarida yarog'-aslaha, ot anjomlari va zeb-ziynat buyumlari topiladi. Fikrimizga Quyi Sirdaryodan topilgan m.a. IX –VII asrlarga mansub Tagisken maqbaralari misol bo`ladi.

Sirdaryodan janubda massaget qabilalari yashagan bo`lib, ular ham ko`chmanchi-chorvador bo`lishgan. Tojikistonda Amudaryo xazinasi deb nom olgan juda boy xazina topilgan. 1877 yilda topilgan, m.a. IV asr oxiridan III asr oxirigacha to`plangan bu xazinadagi buyumlar massagetlar haqida qiziqarli ma'lumotlar beradi.



Amudaryo xazinasi buyumlari

M.a.VI asrning ikkinchi yarmida O`rta Osiyo Ahmoniyalar hukmronligi ostigat tushib qoladi. Bu davrda O`rta Osiyoning turli viloyatlarida Maroqanda, Baktro, Mary, Tuproqqa'l'a kabi katta-katta shaharlar, markazlar ravnaq topdi. Maroqanda, Erqo`rg'on, Uzunqir, Ko`zaliqir va Qiziltepa kabi yodgorliklar mudofaa devorlari bilan o`ralgan bo`lgan.

O`rta Osiyo m.a. VI – IV asrlarga oid moddiy madaniyat yodgorliklariga nihoyatda boydir. O`lkada keng ko`lamda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida qadimiy madaniyat o`choqlari hisoblangan Quyi Murg`ob, Tajan, Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo vohalarida, Xorazm, Farg`ona va Tojikiston vodiylarida temir davriga oid juda ko`p yodgorliklar o`rganilgan. Xorazmdagi «devorlari orasida odamlar yashagan shahar»lar xarobasi shular jumlasidandir. Bu yodgorliklar m.a. VI – V asrlarga oid bo`lib, u yerda odamlar shaharni o`rab olgan qal'aning g`isht devorlari orasida, ravoqli tor yo`laksimon binolarda yashaganlar. Qal'a devorlari xom g`ishtdan urilgan, bunday g`ishtlar O`rta Osiyoda to ilk o`rta asrlargacha asosiy qurilish materiali bo`lib kelgan.



Xorazm va Qoraqalpog'iston dagi shahar xarobalari

Arxeologik tekshirishlar natijasida topilgan moddiy manbalar bu davrda hunarmandchilik yuksak darajada rivojlanganidan darak beradi. O'rta Osiyoda qadimgi davlatlarning vujudga kelish masalasini yoritishda ham arxeologik manbalar muhim o'rinni tutadi.

#### **Nazoratsavollari:**

1. Ilk davlatchilikning vujudga kelishi jarayonida paydo bo`lgan mudofaa qal'alarining turlarini ko`rsating.
2. O'rta Osiyodagi temir davriga oid yodgorliklarga ta'rif bering.
3. Chust madaniyatiga oid yodgorliklarga misol keltiring.
4. Skif mozor - qo`rg`onlari topilmalariga baho bering.

### **10-mavzu: Antik davri arxeologiyasi**

#### **Reja:**

1. O'rta osiyoda antic davrning o'ziga xos xususiyatlari
2. O'rta Osiyo madaniy-tarixiy viloyatlarining yirikshaharmarkazlari
3. Me'morchilik va san'atda ellen hamda budda an'analarining paydo bo'lishi.

#### **Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:**

Antik davr, sharq ellinizmi, Yunon-Baqtriya, Qadimgi Xorazm, Davan (Farg'ona) davlatlari, Dalvarzintepa, Afrosiyob, Yerqo'rg'on, Gyaurqal'a, Niso, Tuproqqa'l'a, Qozoqliyotgan, Tuproqqa'l'a yodgorliklari, Sirdaryo havzasini o'troq dehqonlari va chorvador qabilalari, Kanka va O'tror, Chirikrabot va Babushmulla madaniyatları, haykaltaroshlik, torevtika, amaliy va tasviriy san'at.

#### **1-savolning bayoni:**

O'rta Osiyoda antik davrning boshlanishi yunon-makedonlar bosqini va yunon madaniytining keng hududlar bo'ylab tarqalishlari bilan bog'liqdir. Yunon manzilgohlari turli joylarda barpo etilib, metropoliyalarida bo'lgan antik jamiyat uchun xos bo'lgan quzdorlik tuzumini olib kelishdi.

Markaziy Osiyo hududida qadimgi davrda shakllangan antik davlatlar ham o'z navbatida jahon sivilizatsiyasi tarixida katta o'ringa ega. Sharq sivilizatsiyasini, shahar

madaniyatini Baqtriya, Qadimgi Xorazm, Farg'ona moddiy madaniyatjisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Markaziy Osiyo hududlarining Ahamoniylar imperiyasiga qo'shib olinishi, garchi uning Yaqin Sharq dunyosi bilan madaniy aloqalari kengayishiga sezilarli darajada ta'sir etgan bo'lsada, ammo mintaqada asrlar osha davom etib kelgan moddiy madaniyatning hech bir jabhasida tub o'zgarishlarga olib kelmadi. Ammo mil. avv. 330-327 yillarda Aleksandrning O'rta Osiyoga qilgan harbiy yurishlari oqibatida Parfiya, Marg'iyona, Baqtriya, So'g'diyona xalqlari madaniy hayotida iz qoldi. Lekin ko'zga tashlanarli o'zgarishlar Amudaryodan shimoliy viloyatlarda faqat salavkiylar davridan boshlanadi. Mil. avv. III asr o'rtalariga kelib Baqtriyada Yunon-Baqtriyada davlatining qaror topishi bilan mahalliy madaniyatga ellinizm elementlarining kirib kelishi jadallahshdi. Bu jarayon ayniqsa moddiy madaniyatda, uning me'moriy qurilish jabhalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. O'rta Osiyoning janubiy rayonlarini keng xalqaro munosabatlarga tortilishi, o'lka viloyatlarining qadimgi Sharq va Yunoniston, Makedoniya davlatlari bilan keng madaniy va savdo aloqalarda bo'lishi o'z navbatida uning markaziy va shimoliy viloyatlari – So'g'd, Xorazm, Shosh va Qadimgi Farg'onani ham chetlab o'tmadni. O'sha davr madaniy hayotidagi yuksalishlar Baqtriyada Dalvarzintepada, Eski Termiz, Jondavlattepa: So'g'dda Afrosiyob, Erqo'rg'on, Poykent; Xorazmda Jonbasqal'a, Ayozqal'a, Tuproqqaqal'a; Chochda Qanqa, Shoshtepa, Qovunchitepa; Qadimgi Farg'onada Asxikent, Koson, Marhamat kaba yodgorliklar va yuzlab kichik shaharlar va qishloqlar shaklidagi arxeologik yodgorliklar misolida ko'zga tashlanadi.

Miloddan avvalgi II asrning 2-yarmida O'rta Osiyoning shimoli-sharqidan ko'chmanchi yuechji (tohar) qabilalari Qadimgi Farg'ona, Usrushona, So'g'd orqali Qadimgi Baqtriy yerlariga kirib keladi. Milodiy I asrning boshlarida yuechjilarning guyshan qabilasi boshchiligida Kushonlar davlati tashkil topadi. Uning hududiy chegarasi Hindistonda Hind va Ganga daryolarining havzalarigacha borib yetadi. Qadimgi Farg'onada Davon davlati, O'rta Osiyoning qolgan hududlari (Xorazm va So'g'd) esa Sirdaryoning o'rta havzasida qadimgi davrda qad ko'targan Qang' davlati tarkibida rivojlanishda davom etadi. Mil. avv. III asridan boshlab Kushonlar sultanati inqirozga uchraydi. Shu tariqa O'rta Osiyoning davlatlari quzdorlik munosabatlari tushkunligi bilan bog'liq holda tanazzulga yuz tutadi.

Yunon-Baqtriy Sharqning yirik davlati sifatida 120 yildan ortiq (mil.av. 250-128 yillar) vaqt yashadi. Yunon-Baqtriy davlatining asosini Baqtriy, So'g'diyona, Marg'iyona yerlari tashkil etgan bo'lib, ular iqtisodiy jihatdan to'q, shaharlari ko'p, tabiiy boyliklari mo'l hududlar edi. Yunon-Baqtriyaning ko'plab yodgorliklari qadimgi davrga mansub bo'lib, ularning assosiy qismi arxeologlar tomonidan o'rganilgan. Baqtriyada – (Afg'oniston qismida) Bagram, Baqtra, Oyxonum, Dalvarzin kabi; Qabadshoh, Qayqabod, Ko'hnaqal'a (Tojikiston qismida), Dalvarzintepa, Dunyotepa, Jondavlattepa va boshqa ko'plab qadimgi shahar xarobalari (O'zbekiston qismida) ochib o'rganilgan. So'g'diyonada Yerqo'rg'on, Afrosiyob, Talli Barzu yodgorliklarining shu davrga oid madaniy qatlamlari, Marg'iyonada Govurqal'a kabi shahar qoldiqlari tadqiq etilgan.

Antik davrda Yunon-Baqtriyada dehqonchilik va chorvachili-kdan tashqari kulolchilik sohasi yuksak darajada taraqqiy qilgan bo'lib, bu davrda yasalgan kulolchilik buyumlarining tengi yo'q edi.


Uy-joylarshohona saroylar, ibodatxonalar hamda mudofaa inshoatlari qurilishda bu o'lklar xalqi antik davr olamida yuksalishning yuqori nuqtasiga ko'tarilgan. Bu davrda Baqtriya va So'g'd yozuvlari shakllanadi va rivojlanadi. Tasviriy san'at, me'morchilik, zargarlik san'atida katta yutuqlarga erishiladi.

Antik davr mualliflari Baqtriyani 1000 shaharli mamlakat, deb ta'riflaganlar. Yunon-Baqtriya aholisi zardushtiylik diniy e'tiqodida bo'lib, mahalliy diniy tasavvurlar yunon mifologiyasi obrazlari bilan chatishib ketgan. Suvga, yerga, quyoshga bo'lgan hurmat va e'tiqod ilohlarga bo'lgan (Mitra, Naxid) e'tiqod bilan uyg'unlashib ketgan.

Ko'chmanchi qabilalarning Yunon-Baqtriya yerlariga kirib kelishi uni inqirozga uchratadi. 110 yilda yuechji qabilalari Yunon-Baqtriya yerlariga kirib kelib, o'z hukmronligini o'rnatdi. Guyshan qabilasi yabg'usi Kudzula Kadfiz boshqa qabila yabg'ularini tobe etib, o'zini hukmdor deb e'lon qiladi. Tarix sahnasiga shu tariqa Kushonlar davlati kelib, u uzoq muddat, milodning IV asrigacha hokimiyatga egalik qildi. Uning hududiy chegarasi Amudaryo qirg'oqlaridan janubda Hindistonning janubiy rayonlarigacha tarqaldi. Kushonlar podsholigida shahar qurilishi, me'moriy-monumental, amaliy va tasviriy san'at, haykaltaroshlik rivojlandi. buddaviylik diniy e'tiqodi davlat dini darajasiga ko'tarildi. Buddha va uning sanamlari (badisatva) ni haykallari bilan ibldatxonalarini bezash ruhiy va ma'naviy zaruratga aylandi. Dehqonchilik, uning asosi hisoblangan irrigatsiya inshoatlari barpo etish taraqqiy etdi. Bu ishlarning davlat tasarrufiga olinishi ko'plab moddiy boyliklar yaratilishiga imkon berdi. Kushonlar davrida ichki va tashqi savdo kuchaydi. Buyuk Ipak yo'li g'arb va sharq xalqlarining hayotida katta rol o'ynadi.

## **2-savolning bayoni:**

Kushonlar davrining katta ahamiyatga ega bo'lgan yodgorliklaridan biri milodiy I asr boshlariga mansub bo'lgan «Xolchayon hokimining saroyi» dir. *Xolchayon* saroyining kutish zalini qadimgi haykallar kompazitsiyasi egallagan bo'lib, ularda turli etnoslarning qiyofalari o'z aksini topgan. Shuningdek, saroyda a'yonlar, kurash sahnasi, og'ir gulchambarlarni ko'tarib turgan bolalar haykallari, musiqa asboblari tutgan ayol haykallari topilgan.



Xolchayon topilmalari

Buddaviylik bilan bog'liq bo'lган yodgorliklardan biri *Ayritom* bo'lib, u Termiz yaqinida Amudaryo bo'yida joylashgan. Bu yerdan topilgan me'moriy san'at asarlarida turli xil musiqa asbobi chalayotgan musiqachilar tasvirlangan. Suratlardagi nisbat va harakat yunon haykallarini eslatadi, ishlanishida hind elementlari juda ko'p.




Ayritom barelyeflari

Termiz yaqinida arxeologlar *Qoratepa* yodgorligini topib o'rganganlar. Qoratepa buddaviylik dinining ibodatxonasi bo'lган. Qoratepa tabiiy tepalik bo'lib, uning atrofidan ko'plab haykallar topilgan. *Fayoztepa* esa Qoratepa yaqinida joylashgan yodgorlik bo'lib, u buddaviylarning ibodatxonasi va maktabi vazifasini o'tagan.

Kushonlar davriga oid yodgorliklarning yana biri *Dalvarzintepa* bo'lib, u Surxondaryo viloyatida joylashgan. 1972 yilda Dalvarzintepani qazish vaqtida 34 kg og'irlilikda tilladan ishlangan 115 dona buyum topilgan. Ular bilaguzuklar, uzuk, to'g'nag'ichlar bo'lib, yuksak mahorat bilan yasalgan. Dalvarzintepani qazish vaqtida

60 ta turli xil metal buyumlar topilgan. Metall bilan bog'liq hunarmandchilikning rivoji haqida gap ketganda Dalvarzintepadan topilgan ho'jalik buyumlari quyishga mo'ljallangan tosh qoliplarni ham ko'rsatish mumkin. Metall esa sopol idislarda tigellarda eritilgan. Bu yerdan fil suyagidan yasalgan shaxmat donalari ham topilgan.




Dalvarzintepa oltin buyumlari

Fil suyagidan yasalgan shaxmat donasi

Antik davr yodgorliklari Xorazm hududlaridan ham topib o'rganilgan. Xorazmda bu davrda o'ziga xos madaniyat vujudga kelib, bunda m.a. IV asrda ahmoniylardan mustaqil davlatga aylangan Xorazmning m.a. III – II asrlarda Yunon – Baqtriya va Parfiya tarkibiga kirmay, mustaqilligini saqlab qolganligi muhim omil bo`ldi.

Qadimgi Xorazm tarixi va madaniyati haqida ma'lumot beruvchi yodgorliklardan biri –*Qo'yqirilganqal'*adir. Xorazmning mil. avv. IV – milodning I asriga mansub bo'lgan shaharlaridan biri bo'lgan Qo'yqirilganqal'ada 1951-57 yillarda arxeologik qazish va qidiruv ishlari olib borilgan. Shahar doira shaklidagi qal'adan iborat bo'lib, u tashqi va ichki devorlar bilan o'rabi olingan. Arxeologlar 3 qatordan iborat bo'lgan mudofaa devori bo'lganligini, tashqi devorning yuqori qismida kamonchilar uchun qilingan tuynuklar, aylana shaklida burjlar o'rnini aniqlaganlar. Qal'ada kulolchilik rivojlangan idishlar sirtiga afsonaviy qushlar, urug' totemlari bilan bog'liq hayvonlar rasmi chizilgan.



Tuproqqal'adagi "Jangchilar zali" (rekonstruksiya)

Davrning muhim madaniy yodgorliklaridan biri *Tuproqqal'a* sanaladi. Tuproqqal'a Xorazmshohlar podsholarining markaziy shahri bo'lgan. Yodgorlikda keng ko'lAMDAGI ishlari 1945 yildan S.P.Tolstov tomonidan olib borilgan. Tuproqqal'aning maydoni 17,5 ga bo'lib, u III-IV asrlarga mansub noyob yodgorlik. Yodgorlik markazida 80x80 m hududni podsho saroyi egallagan. Saroyning devorlari haykallar bilan bezatilgan. Saroy xonalari esa har xil maqsadlar uchun mo'ljallangan.

Arxeologlar ularni «podsho zali», «raqqoslar zali» degan shartli nomlar bilan atashgan.

Podsho zalida ko'plab haykallar bo'lib, ularning barchasi loydan ishlangan. Ular qimmatbaho va turli rangdagi liboslarda tasvirlangan. (yaxtak, sholvor kiygan erkaklar, burmalangan ko'lakdagi ayollarning haykallari). “Qizil tanli harbiylar zali”da podsho haykali qo'yilgan, uning ikki tomonida o'ziga xos bosh kiyimdag'i qurolli harbiylar haykali o'rnatilgan. Podshoh saroyining yana bir zalida mayho'rlik bazmi ko'rsatilgan. Tuproqqa'l'a yodgorligidan podsho arxivi topilgan, u 100 ga yaqin hujjat bo'lib, shundan 18 tasi yog'ochga, ko'pchiligi teriga yozilgan, hozirgi kungacha ularning 8 tasi yaxshi saqlangan. 100 ga yaqin hujjatdan 26 tasi o'qishga yaroqli. Tuproqqa'l'a Xorazm davlatining III-IVasrlarda poytaxti bilan bu shahar antik davr shahar madaniyatining yorqin timsolidir.

Toshkent viloyatida, Sirdaryo va Janubiy Qozog'iston yerlarida mil. avv. III asrda yarim o'troq Qang' davlati tashkil topgan. Qang' davlatining hayoti, turmush tarzi va madaniyati haqida Xitoy manbalarida ma'lumotlar uchraydi. Qang'da yashagan qang'uylarning madaniyati va ho'jaligi haqida Qovunchi yodgorligi ma'lumot beradi, Qang' davlatining poytaxti *Qang'diz- Qanqa* (hozirgi Oqqo'rg'on markazida) shahar xarobasi hisoblanadi. Uning umumiy maydoni 150 ga bo'lib, atrofi qalin mudofaa devorlari bilan o'rabi olingan. Shahar xarobasidan arki a'lo, (o'rda), ibodatxona, savdo va hunarmandchilik mavzelari, shahar yo'llari, maydonlar, hovuzlarning o'rni topib o'rganilgan.

Ma'lumki, O'rta Osiyoda mil. avv. III-II asrlarda Farg'ona davlati-*Davan* shakllangan davlat sifatida mayjud edi. U qadimda Parkana, Xitoy manbalarida esa *Davan* deb atalgan. Xitoy manbalarida mil.avv. I asrda *Davan* ko'p aholisi bor, dehqonchilik va hunarmandchilik ho'jaliklari yuksak rivojlangan, shaharlar

Davanda 70 ga yaqin obod shahar bo'lgan. Bu hududda bog'dorchilik, ziroatchilik, to'qimachilik rivojlangan. Farg'onaning samoviy duldurlari-afsonaviy otlari mashhur bo'lgan, *Ershi*, *Aksi*, *Quva* singari shaharlar taraqqiy etgan.

Xulosa qilib shuni qayd etish kerakki, O'rta Osiyo antik davrda shahar madaniyatining uzlusiz rivojlanishi jarayoniga tortilgan bo'lib, bu yerda Qadimgi Sharq sivilizatsiyasiga xos mahalliy shahar qurilishi an'analari shakllanadi. Me'morchiligidagi mudofaa inshootlari, diniy va dunyoviy monumental inshootlarning paydo bo'lishi shahar madaniyati taraqqiyotini belgilab beradi. Moddiy madaniyatning barcha jabhalarida originallik, amaliy va tasviriy asarlarida yuksak did va mahorat ruhi antik madaniyatni mazmun va mohiyatini belgilab beradi.

## 11- mavzu: O'rta asrlar arxeologiyasi.

### Asosiy savollar:

1. O'rta Osiyo tarixida o'rta asrlar
2. So`nggi o'rta asrlar O'rta Osiyoarxeologik yodgorliklari

### Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Yeregaligimunosabatlari, yirik va mahalliy kichik davlatlarningqarortopishi, Marv, Buxoro, Samarqand, Panjikent, o'rta asr shaharlari, me'morchilik, hunarmandchiliklurtlari, haykaltaroshlik, rangtasvir.

### **1- savolning bayoni:**

O'rta asrlarda yerga egalik munosabatlarning shakllanishi jamiyatda tubdan o'zgarishlarga olib keldi. O'zbekiston tarixida o'rta asrlar davrimil. V-XVIII asrlarni o'z ichiga olgan, Rivojlanishi jihatidan 3ta bosqichga bo'linadi:

1 bosqich-ilk o'rtaasrlar, mil. V-IX asrgacha davom etgan.

2 bosqich - rivojlangan o'rta asrlar, IX-XVI asrgacha davom etgan.

3 bosqich – so'nggi o'rta asrlar, XVI-XVIII asrlarni o'z ichiga oladi.

Ilk o'rta asrlarda yer egalining vujudga kelishidehqonchilikningrivojlanishiga, ko'plab yangi hududlarni o'zlashtirilishiga va aholiningyirik yer egalari atrofida to'planishiga, ya'ni ko'plab qishloqlar bunyodqilinishiga olib keldi. Yirik yer egalari - dehqonlar *ko'shkardaiste*'qomat qilganlar. Bu yangi davming yangi me'moriy binosi bo'lgan. Bugungi kunda ko'shklarning harobalari butun O'zbekiston bo'ylab, tuproq-qo'rg'onlar tarzida uchraydi. Alovida yer egasining turar joyi bo'lgan ko'shklar ko'pincha to'g'ri to'rburchak shaklida, baland platforma ustiga qurilib, atrofi xandaq bilan o'ralgan va mustahkam mudofaa devori bilan o'rabi olingan.

Ilk o'rta asrlarda hunarmandchilik va savdo aloqalari rivojlandi. Bu o'z navbatida qadimi shaharlarning yanada taraqqiy etishiga vayangi shaharlarning bunyod etilishiga imkon yaratdi.

Ilk o'rta asrlardagi shaharlар yozma manbalarda 3 qismdan iborat deb berilgan bo'lsada, arxeologik tadqiqotlar ularning 2 qismdan ark vashahristondan iborat ekanligini ko'rsatadi

Ilk o ita asrlarda shahar hunarmandchiligi keng rivojlangan. Choch, Samarqand, Buxoro, Poykent va janubiy So'g'd shaharlari o'shakezlardayoq yirik savdo-sotiq markazlari hisoblangan. Bu shaharlardahunarmandchilikning kulolchilik, shishasozlik, metallurgiya va to'qimachiliksohalari yuksak darajada rivojlangan boiib, ular ko'p hollardatasqi savdo uchun mahsulot chiqarganlar.

Toshkent ahahrida da bu davrga oid yozma manbalarida "Madinat ash-Shosh", "Choch", "Dje- She" va "Shi" nomi bilan tilga olingan Mingo'rik (I-XIII asrlar) yodgorligi o'rganilgan. Mingo'rikda dastlab 1896 yil E.T.Smirnov, N.S.Likoshin tomonidan, 1912 yilda esa Turkiston arxeologiya xavaskorlar to'garagi a'zolari tomonidan arxeologik tadqiqot ishlari olib borilgan. Keyinchalik 1920yillarda M.E.Masson, 1968 yillarda Toshkent arxeologik ekspeditsiyasitadqiqot ishlarini davom qildirganlar. Toshkent shahridagi Chilonzor Oqtepasi (IV-XI asrlar), Yunusobod Oqtepasi (V-VIII asrlar) ham o'rta asrlarga oid muhim yodgorliklar sanaladi.

Shoxruxiya shahri Toshkent viloyati Oqqa'rg'on tumani S.Segizbaev jamoa xo'jaligi hududida Sirdaiyoning o'ng qirg'og'idajoylashgan. U dastlab 1876 yilda D.K.Zacepin va N. Pandusovlar tomonidanqayd qilingan. 1934 yilda M.E. Masson, 1970-1980 yillardan Yu.F.Buiyakov tomonidan keng arxeologik tadqiqot ishlari olibborilgan. Tadqiqot natijasida shaharda 3 ta shahriston borligi, ilk

madaniyqatlamlari Qovunchi 1 va Qovunchi 2 davrlarida shakllanganligianiqlangan. Shoxruxiya m.a. III—IIasrlarda vujudga kelgan boiib, XVIIIasrlargacha shaharda hayot davom etgan. Umumiy maydoni 400 ga.


Ilk o‘rta asrlarda 0 ‘rta Osiyoda to‘qimachilik rivojlangan. Ayniqsa, ipak mahsulotlariga talab katta bo‘lgan. Ipakchilik So‘g‘diyona va Farg‘ona vodiysida ham keng yoyilgan. VI-VII asrlarda Buxoroning “zandanachi” ipak mahsulotlariga talab katta boigan. Zandanachi ipakmahsulotlarining namunalari Afrosiyob devoriy suratlarida saqlanibqolgan.

Ilk o‘rta asrlarda binolar devoriy suratlar va haykallari bilan bezatilgan. Qadimgi davrda binolar asosan haykallar bilan bezatilgan bo’lsa, ilk o‘rta asrlarga ko’proq devoriy suratlar bilan bezatilgan. Ulardan saroylar, dehqon qasrlari, zardushtiylik va buddaviylikibodatxonalarining inter’erlarini bezashda keng qoilanilgan.

Arxeologik tadqiqotlar davomida Bolaliktepa, Varaxsha, Afrosiyob, Panjikentdan devoriy suratlari topilgan. Bu suratlarda ilk o‘rta asrlardagitarixiy voqealari, ajdodlarimizning urf-odatlari, ahloq normalari, xulq-atvorlarimohirona aks ettirilgan. Masalan, Bolaliktepa (V-VI asrlar) devoriy suratlarida moviy osmon fonida bazm tasvirlangan. Undashohona kiyimdagisi erkak va ayollarning qoMlarida oltin va kumushqadahlarni ko’tarib turgan holatlari aks ettirilgan.

Afrosiyob devoriysuratlarida Samarqand ixshidi Varxumanning taxtga kelishi munosabatibilan mamlakatlararo diplomatik munosabatlar, diniy va dunyoviy mavzulardagi syujetlar va o’sha davr madaniy hayoti aniq tasvirlangan. 1948 yilda arxeolog A.I.Terenojkin Afrosiyobning ilk o‘ita asrlarga oid qatlamlarini tekshirdi. Qazish ishlari natijasida VI asrga mansub Tolu Barzu yodgorligi, VIII asrga oid sopol idishlar, sosoniy tangalaritopildi. 1958 yildan buyon Afrosiyobni o‘rganilish ishlari davom etmoqda va hozirgacha turli davrlarga oid bir qancha yodgorliklartopildi.

Tadqiqotlar IV-V asrlar Samarqandning tushkunlikkauchragan davri ekanligigan davri ekanligi aniqlandi. Uning rivojlanishi yangitdan VI asrdan boshlangan. Bu davrda ark yangi devor bilan o‘rab olingan vauzunligi 1,5 km bo‘lgan 4-devor qurilgan. Shahar janubga qarabkengaytirilib, uzunligi 3 km boigan ichki devor qurilgan. VII asrlarda Afrosiyobda maxsus saroy devori quriladi va shahamingto‘rtinchchi tashqi devori butunlay qayta qurilgan. Saroy devorining ichidayirik inshootlar qurilgan.



Varaxsha devoriy surati va ganch o‘ymakorligi namunalari

*Varaxsha*Buxoro hukumdarining qarorgohi boiib, bu yerdansaroy qoldiqlari bilan bir qatorda devoriy suratlar ham topilgan.Mazkur yodgorlik 1938-1953 yillarda tekshirilgan. Varaxshadevorlariga loy suvokdan so'ng elimli rang bilan suratlar solingan.Ularda podsho saroyi hayoti tasvirlangan. Shuningdek, Varaxshadanganchdan ishlangan haykallar ham topilgan.Varaxsha devoriy suratlarida (VII-VIII asrlar) buxorxudodlarninghayot tarzi, ya'ni saroy hayoti, ibodat va ov manzarasi tasvirlangan.

*Panjikent* harobasini tekshirish 1946 yildan buyon olib borilmoqda.Tadqiqotlar natijasida V-VII asrlarga oid boigan turar joylaraniqlangan. Turar-joylar jumlasiga Divashtich saroyi, boy va oddiy shahar aholisi uylari kiradi. Boy xonodon uylari murakkab reja asosidaqurilgan. Bu yerda ham ijtimoiy uylar va 2 ta ibodatxona o'chib o'rganildi.Saroy va yirik binolarning devorlariga hayotiy va diniy mavzudagirasmlar solingan. Samarkand, Varaxsha, Panjikent rasmlari ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda tasviriy san'at yuqori darajada boiganligini ko'rsatadi.



Panjikent shahar xarobasi va devoriy surati

Ilk o'rta asrlarda saroylar haykaltaroshlik namunalari bilan hambezatilgan. Quva ibodatxonasi Buddha haykallari topilgan. Badisatvalar,farishta va jinlar birgalikda tasvirlangan bu Farg'ona haykaltaroshlikmaktabining o'ziga xos tomonlari mavjudligini aks ettiradi. Uningshaklanishida hind ikonografiyası bilan mahalliy, ilohiy sanamlari o'zaksini topgan.Ilko'rta asrlar davri monumentalme'morchiligidida ganchnaqshinkorligi keng qo'llanilgan.

Arxeologik qazish materiallari va tasviriy san'at asarlari ilk o'rtaasrlar davrida *zargarlik*, *torevtika* (metallaga qolda bezak berish yo'li bilan badiiy buyumlar yasash), *koroplastika* (sopol, mum, gipsdan ayollar haykalchasi yasash) *vagliptikasan'ati* (tosh o'ymakorligi) yuksak darajada rivojlanganligini tasdiqlaydi.

VIII asrda O'rta Osiyo arablar tomonidan bosib olindi va Arab xalifaligi tarkibiga kirdi. Bu davr arxeologik topilmalarda o'z aksini topgan. Badiiy san'atda ornament bezakchiligining taraqqiy etishi musulmonchilikda tirik mavjudotlarni tasvirlash ta'qiq etilganligi bilan bog`liq edi. Samarqand va Buxoro devorlaridagi o`yma naqshlar o`zining go`zalligi bilan hayratga soladi. O'rta asr shaharlarida yangi bino turlari vujudga kelgan.Jumladan, masjidlar, minoralar, maqbara, karvon saroy, sardoba, xonaqoh va boshqalar.

IX asr oxiri - X asrda O'rta Osiyoda mahalliy sulola Somoniylar hukmronlik qilgan. Somoniylar davrida hunarmandchilik mahallalari bilan o'ralgan shaharlar o'sib borgan. Masalan, arab tarixchi vaseograflarining ta'kidlashicha, birgina Choch

va Iloqda 50 dan ortiqshaharlar bo‘lgan. Shaharlarda hunarmandchilikning kulolchilik, shishasozlik, temirchilik, yog‘och va terini ishlash hamda to‘qimachilik sohalari rivojlangan.

Somoniylar davrida muhtasham binolar pishgan g`ishtdan ishlana boshlangan. Buxoroda IX asr oxirlarida qurilgan *Somoniylar maqbarasi* mayda to`rt burchakli pishiq g`isht (musulmon g`isht)dan ishlangan bo`lib, ularning ma'lum tartibda terilganligi betakror manzara kasb etadi.

Arxeologik izlanishlar davrida ko`plab numizmatik materiallar ham uchraydi. Afrosiyobda Somoniylar davrida zarb etilgan dirhamlar – kumush tangalarning qolipi topilgan.

XI asrdan boshlab shaharlaming ijtimoiy - iqtisodiy qiyofasi o'zgargan. Shaharlar hunarmandchilik vasavdo-sotiq markaziga aylandi. Ular hunarmandchilikning ma'lum birtarmog'i bo'eyicha ixtisoslashdi. Aholisining soni ham oshib borgan. Shaharlarning tuzilishida ham o'zgarishlar kuzatildi. Ularning maydonikengaydi, ark avvalgidek, alohida istehkom ichida emas, balki shahardevori ichiga quriladigan bo'ldi. Shuningdek, rabotlarda ko`plab karvonsaroylar, ulgurji, tashqi savdo bozorlari boigan.


XII asr binolarida O'rta Osiyoga xos o`yma geometrik naqsh - gerix o`z taraqqiyotining cho`qqisiga chiqdi. Shu bilan bir qatorda islumi, o'simlik va epigrafik naqshlari ham keng tarqalgan. XII asrdan sirlangan koshin va mayolika ishlatish usuli kashfetilgan.

XIII asrda O'rta Osiyoni mo`g`ullar bosib oldi va vayron qildi. Bu hodisa arxeologik topilmalarda ham o`z aksini topgan. Bu davrda sug`orish tarmoqlarining kamayib ketishi, bu davrdagi binolarning saqlanib qolmaganligi bunga misoldir.

O'rta Osiyo xo`jaligi, madaniyati Amir Temur va uning vorislari davrida yana yuksaldi. Amir Temur o'z davlatining poytaxti qilib Samarqand shahrini tanlagach, u yerda obodonlashtirish va qurilish ishlarini boshlab yubordi. 1371-1373 yillarda hozir ma'muriy binolar joylashgan tepalik (Tepa qo'rg'on)da o'z arkini qudiradi. Temur davrida, ark –“shahri darun”, shaharning devor bilan o'ralgan qolgan qismi esa «hisor» deb ataldigan. Samarqand shahrimustahkam va baland mudofaa devori bilan o'rab olingan.

Samarqandni arxeologik jihatdan oiganish ishlari XIX-asrningoxirlarida boshlangan. 1895 yilda sharqshunos olim V.V.Bartoldning tashabbusi bilan tuzilgan “Turkiston arxeoliya havaskorlari to'garagi” a'zolari Samarqanddagi Afrosiyobni ko'p asrlar xazinasi deb qarab, unda keng koiamdagagi arxeologik qazilma ishlarini olib bordilar. V.L. Vyatkin, N.I. Veselovskiyalar o'tkazgan arxeologik qazilmalarnatijasida turli holdagi qadimiy buyumlar topilib, muzeyga berildi.

Bu davrga oid yodgorliklarga Amir Temur maqbarasi – Go`ri Amir, Shohi Zinda, Ulug`bek madrasasi kabilarni misol keltirish mumkin. Arxeologlar tomonidan topib o`rganilgan Ulug`bek rasadxonasi mukammal ilmiy inshootdir. Yulduzlarni nazorat qilib turish uchun ishlangan g`oyat katta, yer tagidagi maxsus shaxtaga o`rnatilgan sekstant bugungi kungacha yaxshi saqlangan.




Go`ri Amir



Ulug`bek madrasasi



Shohi Zinda



Ulug`bek rasadxonasi

## 2-savolning bayoni:

O'rta Osiyoda Shayboniyalar, Ashtarkoniylar hukmronligi davrida Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari vujudga keldi. Ayrim hukmdorlar siyosiy hokimiyatni markazlashtirishga erishdi, ayrim hukmdorlar esa mamlakatdai inqirozni boshlab berdi. Bu davrida Orta Osiyoda uzlucksiz davom etgan o'zaro urushlarga qaramay bu hududda yashagan xalqlarning madaniy hayotida o'ziga xos yuksalishlar bo'lganligini arxeologik tadqiqotlqr natijalari tasdiqlaydi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda me'morchilik sohasidagi taraqqiyotni alohida ta'kidlash joiz. Madrasalar, masjidlar, maqbaralar, ko'priklar, bandlar qurilishiga jiddiy e'tibor berildi.

XVI-XIX asrlarda qurilgan binolar orasida madrasalar muhim o'rin egallaydi. Buxorodagi Mir Arab (1535-1536), Modarixon (1566), Abdullaxon (1588-1590), Ko'kaldosh (1568-1569), Abdulazizzon (1662) madrasalari yuksak badiiy bezaklari va mahobatlari bilan ajralib turadi.

Samarqandda bugungi kungacha o'zining go'zalligi bilan dunyoni lol etib kelayotgan, «Samarqandning yuragi» nomini olgan Registon ansamblidagi Sherdor va Tillakori madrasalari quriladi. O'z davrida Samarqandning hokimi bo'lgan Yalangto'sh Bahodir tomonidan 1619-1636 yillarda Ulug'bek davrida qurilgan xonaqohning o'rnida Sherdor, Mirzoyi karvonsaroyi o'rnida 1646-1647 yillarda Tillakori madrasalari qurdirliladi. Sherdor madrasasi ikki qavatli xujralardan iborat. Peshtoq qismida turli sirli koshin va parchalardan ohuni quvib ketayotgan sher va

uning orqasidan chiqib kelayotgan quyosh tasviri nihoyatda jimjimador qilib ishlangan. Madrasaning ikki tarafida esa uch qavatli minora qurilgan. Bugungi kunda minoralarning faqat pastki qatori saqlanib qolgan. Madrasaning peshtoq qismida binoning buyurtmachi-qurdiruvchisi (Yalangto'sh Bahodir) va me'morning ismi – Abul Jabbor bitilgan.

Tillakori madrasasi ham Ulug'bek va Sherdor madarsalari qurilish uslublarini takrorlagan holda, ichki bezaklari – tilla suvi yuritilgan «kundal» uslubi bo'yicha qurilgan.

Umuman olganda Registon majmuasini qurilish uslubi Buxoro me'morchiligiga xos bo'lib, Chor Bakr me'morchilik ansambliga xos ayrim jihatlarni o'zida aks ettirganligini ko'rish mumkin.

Bu davrda xonaqohlar qurilishiga alohida e'tibor berilgan. Buxorodagi Bahouddin (1544), Karmanadagi Qosim shayx (XVI asrning 80-yillari), Devonbegi (1610-1620), Samarqanddagi Abdiburun (XVII asr) xonaqohlari shular jumlasidandir.

Toshkentda ham bu davrda ajoyib binolar qurilgan edi. Hozirda Chorsuda XVI asrda qurilgan Ko'kaldosh madrasasi bugungi kungacha saqlanib qolgan o'ziga xos qoplamasi bilan ajralib turadi. O'sha yerda Kaffol Shoshiyning maqbara-xonaqosi va hozirgi vaqtda jome' masjid bo'lган Baroqxon madrasasi qurilgan.

Maqbaralar shaklida qurilgan Xevadagi Paxlavon Mahmud, Farg'onadagi Dahmai shoxon, Qo'qondagi Modarixon, Samarqanddagi Abdiberdi binolari imoratlar orasida alohida o'rinn tutadi.

Xevada barpo etilgan ko'pgina madrasalar XVII asrga taalluqlidir. Ular orasida Arab Muhammad (1616), Xo'jaberdibiy (1688), Sherg'ozixon (1719-1720), Muhammadamin inoq (1765), Qutlimurod inoq (1809), Shermuhammadbiy (1810), Polvonbobo (1810) va madrasalar orasida eng kattasi Muhammad Aminxon (1851) madrasasini ko'rsatib o'tish mumkin.

1842 yilda Xeva tevaragida Yangi qal'a devori tiklandi. Uning o'nta darvozasi bo'lib, aholisi zinch yashaydigan rabotlari, shahar atrofi bog'lari va imoratlarini o'ziga qo'shib oldi. Natijada katta xalqa «tashqi shahar» - Dishanqal'a, ichkarida qolgan «ichki shahar» - Ichhanqal'a deb atala boshlandi.

XIX asrning boshlarida Buxoro va Xorazm me'morchiligidagi qadimiy an'analarni saqlagan holda zamon ruhi bilan boyib bordi. Saroy majmualari, madrasa, masjid, hammom, kasalxonalar va boshqa shunga o'xshash davlat va jamoat binolari qurildi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida nafaqat Buxoro va Xorazmda, balki butun Turkiston va Xurosonda ovoza bo'lган Oblaql va Ibrohim Xofizovlar, Mo'minjon Solihov, Shirin Murodov va boshqa ustalar yetishib chiqqan.

Xorazm me'morchilik maktabining sarkori Odina Muhammad Murod, pardoz hamda naqshinkor parchinlarni joylashtirishning sir-sinoatlarini mukammal egallagan usta kulol Nurmuhammad, Abdujabbor, uning o'g'li So'fimuhammad Niyoz va Abdullalardir.

XX asr boshlarida qurilgan Islom Xo'ja minorasi Xevaning dovrug'ini olamga taratib, viqor bilan turibdi. Uning yaratilish tashabbuskori va xomiysi Asfandiyorxonning bosh vaziri Islom Xo'jadir.

Xevadagi yana bir obida Qozi kalon madrasasi bo'lib, uning qurilish xarajatlari, qurilishda ishtirok etgamlarni ovqatlantirish, ularga ish haqi berish ishlarini huquq ilmining bilimdoni shayxulislom – Salimoxun qozi kalon bo'lgan.

Turkiston Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingach o'lkaga yevropacha qurinishdagi me'morchilik uslubi kirib keldi. Milliy an'anaviy uslublar bilan birga rus me'morchiligiga xos uslublar qo'llanila boshlandi. Jumladan, xalq me'morchiligida paxsa, guvala, xom g'isht va yapaloq (musulmon g'ishti) qo'llash bilan birga to'g'riburchak yuzli (salloti) g'isht, faner, tunuka, oyna kabi qurilish ashyolaridan keng foydalanila boshlangan.

Yevropa me'morchiligiga xos bo'lgan ayrim uslublarni o'sha davrda qurilgan Buxoro amirining yozgi saroyi bo'lgan Sitorai Mohi Xosa saroyida ko'rish mumkin. Uni ko'rishda Usta Shirin Murodovning xizmati ayniqsa katta bo'lgan.

Toshkent vohasi va Farg'ona vodiysidagi me'morchilikda asosan «qashqarcha» uslubidan keng foydalanilgan.

So'nggi o'ita asrlarga oid Qarshi shahrida bunyod etilgan me'moriy obidalar alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki Amir Temur davrida bunyod etilgan Odina masjididan tashqari boshqa barcha obidalar ko'rib chiqilayotgan davrga taalluqlidir.

Ko'kgumbaz jome' masjidi Abdullaxon II davrida qurilgan eng yirik me'moriy obida hisoblanadi. Uning peshtoqida saqlanib qolgan yozuvlar M.Ye. Masson tomonidan o'qilganda 1590-1591 yillar (hijriy 999 yil) da Abdullaxonning buyrug'iga binoan Mir Baqo Bahodir ismli me'mor boshchiligida qurilganligi aniqlangan. Binoning balandligi 38,25 m, yon qismlarining uzunligi 14x14,6 m ni tashkil qilgan.

Charmgar masjid majmuasi XIX asr oxiri - XX asr boshlarida xalq orasida Qo'rg'oncha yoki Xonakoh masjidi nomi bilan mashhur. Uning tarkibiga masjid, darvozaxona, sag'ana (qabr), hovuz va minora kirgan. Masjidning g'arbiy qismida joylashgan qabr ustida qo'yilgan marmar toshda yozilishicha bu yerda taniqli shayx Abdurahmon Naqshbandiy dafn etilgan.

Mahallalarda bunyod etilgan guzar masjidlari orasida Chaqar (1860), Qo'rg'oncha (XIX asrning oxiri), Charmgar (XX asr boshlari) masjidlari ham bo'lgan.

Qarshi shahridagi me'moriy yodgorliklar orasida madrasalar alohida diqqatga sazovor. XIX asr oxirlaridagi ma'lumotlarga ko'ra Qarshi shahrida 20 ga yaqin madrasa bo'lgan. Bugungi kunda ulardan atigi Shermuhammad, Sharofboy, Xo'ja Abdulaziz, Qilichboy, Bekmir Qozoq madrasalari saqlanib qolgan, xolos.

Qashqadaryo ustida qurilgan ko'prik (XVI asr) ham Abdullaxon tomonidan qurdirilgan. Ko'prikning uzunligi 122,5 m, eni 8,2 m bo'lib, 14 ta ravoqqa birlashtirilib ustiga tosh yotqizilgan. Ko'prikning ikki tomonida ikkitadan to'rtta gumbazli qubba qurilgan bo'lgan. Lekin vaqt o'tishi bilan ular buzilib ketgan edi. Shaharning 2700 yillik yubileyi arafasida ular yana qayta tiklandi.

Bulardan tashqari Qarshi shahri va uning atrofida sardobalar qurilganki, ular o’z navbatida cho’lli hududlardan o’tuvchi karvon yo’llari ustida qurdirilgan. Bunday sardobalar bugungi kunda Qarshi shahrida, Qamashi qishlog’ida, Maymanoq, Kasbi, Nishon, Chilgumbaz, Surxi kabi joylarda saqlanib qolgan.

Ko’rib chiqilayotgan davrda kulolchilik, shishasozlik, zargarlik, misgarlik, temirchilik, umuman olganda mavjud yirik shaharlarda hunarmandchilikning 32 dan ortiq turi mavjud bo’lgan. Kulolchilikda sirdan foydalanila boshlanib, turli epigrafik tasvirlar bilan birga turli hayvon va qushlarning tasvirlaridan ham foydalanila boshlangan. Kulolchilikda o’ziga xos maktablar – Marv, Niso, Samarqand, Toshkent, Farg’ona, Taroz, Kesh kulolchilik maktablari va markazlari paydo bo’lgan.

Shunday qilib, so’nggi o’rta asrlarda o’zaro ichki urushlarning avj olishiga qaramay O’rta Osiyo madaniy hayotida taraqqiyot davom etganligini ko’rish mumkin.

### **Nazorat savollari:**

1. O’rta Osiyo tarixida antik davr qachon boshlangan?
2. Antik davr yodgorliklariga tavsif bering.
3. O’rta Osiyo hududida topilgan diniy inshootlarga ta’rif bering.
4. O’rta asrlar arxeologiyasining o’ziga xos xususiyatlarni ta’riflang.

## **1.2. SEMINARMASHG'ULOTLARI MAVZULARI**

### **1-seminarmashg'ulot: Arxeologiya - qadimshunoslikfani Ajratalganvaqt- 4 s**

#### **Asosiy savollar:**

1. Arxeologiya fanining maqsadi va uning oldidagi vazifalar.
2. Manbalar, yodgorliklar, arxeologik madaniyat.
3. Arxeologik davrlashtirish va xronologiya.
4. Arxeologiya fanining rivojlanish tarixi.
5. Arxeologiya va etnografiya
6. Arxeologiyada tabiiy fanlarning o'rni.

**Metodik tavsiyalar:** Talabalar arxeologik termin va tushunchalarga alohida e'tibor qaratishlari, arxeologiya fanining rivojlanishida katta rol o'ynagan olimlar faoliyatini kengroq o'rghanishlari lozim. Arxeologik terminlar lug'atini tuzib borish maqsadga muvofiq. Arxeologiyaning zamonaviy bosqichdagi taraqqiyotini yoritish kerak. Talabalar arxeologiya fanining paydo bo'lishi va rivojlanishida muhim o'rin tutgan fanlarni aniqlashlari lozim. Tabiiy fanlarning arxeologik topilmalar yoshini belgilashdagi o'rnnini bilishlari kerak. Etnografiya arxeologik madaniyatlarni yoritishda muhim o'rin tutishini asoslab berishlari zarur. Yordamchi tarix fanlari arxeologik ma'lumotlar asosida jamiyat tarixini to'ldirishga xizmat qilishini ko'rsatish, ularning arxeologiya bilan aloqador jihatlarini ko'rsatib berish, bugungi kunda bu fanlar o'rtasidagi bog`liqlikning kuchayishiga baho berish kerak.

#### **Foydalilaniladigan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Karimov I.A.Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. -T.,1998.
2. Авдусин Д.А. Основы археологии. - М.,1989.
3. Арциховский А.В. Археология асослари. - Т.,1970.
4. KabirovJ.,SagdullayevA. O`rtaOsiyoarxeologiyasi. - T.,1990.
5. Arxeologlarhikoyaqiladi. AsqarovA. tahririostida. – Т.,1970.
6. История первобытного общества. Под ред.В.П.Алексеева. – М.,1979

### **2-seminarmashg'ulot: Antropogen - to`rtlamchidavrар xeologiyasi Ajratalganvaqt- 2s**

#### **Asosiysavollar:**

1. Kaynazoyerasibosqichlari.
2. Antropogendavrning geneologikta'rifi.
3. Odamzotningpaydobo`lishivarivojlanishi.

**Metodiktavsiyalar:** Talabalar odamning paydobo`lishivarivojlanishi – antropogenezbilan bog`liqto`rtlamchidavrningo`zigaxosxususiyatlari haqidatasavvurga egabo`lishlarizarur.

Mavzuniochibberishda antropogendavrningo`zigaxosjihatlarinifarqlash,

insoniyatningrivojlanishbosqichlarigata'rifberish,  
O`rttaOsiyodagiantropogonezjarayoninikengroqyoritishlozim.

### **Foydalilaniladigan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Artsixovskiy A.V. Arxeologiyaasoslari. - Т.,1970.
2. G`ofurov U. Odamning paydo bo`lishi.- Т.,1974.
3. Борисковский П.И. Древнейшее прошлое человечества. – Л.,1979.
4. Ранов В.А. Древнейшие страницы истории человечества. – М.,1988.
5. Алексеев В.П. Становление человечества. – М.,1984.

### **3- seminar mashg`ulot: Paleolit davri arxeologiyasi Ajratalganvaqt4s**

#### **Asosiysavollar:**

1. Paleolitdavriningbosqichlarivaxxonologiyasi.
2. Paleolit davrining o`rganilish tarixi.
3. Afrika paleolit davri yodgorliklari
4. Yevropa paleolit davri iy yodgorliklari

**Metodik tavsiyalar:** Paleolit davrining xarakterli xususiyatlarini ochib berish, paleolit davriga xos madaniyatlarning farqli xususiyatlarini ajrata bilish, jahon paleolitini o`rganishga ulkan hissa qo`shgan olimlar faoliyatini yoritish lozim. Paleolit davri asosiy yodgorliklarining sxematik xaritasini tuzish maqsadga muvofiq.

### **Foydalilaniladigan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Авдусин Д.А. Основы археологии. - М.,1989.
2. Борисковский П.И. Возникновения человеческого общества. Полеолит Африки. – М.1977.
3. Ранов В.А. Древнейшие страницы истории человечества. – М.,1988.
4. Арциховский А.В. Археологияасослари. - Т.,1970.
5. Хлопин И.Н. Лекции по антропогенезу и археологии палеолита.- М.,1987.

### **3.2. - seminar mashg`ulot: O`rta Osiyo paleolit davrida Ajratalganvaqt 4 s**

#### **Asosiysavollar:**

1. O`rtaOsiyohududidagiilkvao`rtapaleolitdavriyodgorliklari.
2. So`nggipaleolitdavrimadaniyatlarivaularningturlari (Qorakamar, Xo`jag`or, SamarqandvaKo`lbuloq)
3. Paleolitdavridagixo`jalikxususiyativashakllari.
4. Paleolitdavrihayvonotvao`simplikolami.

**Metodiktavsiyalar:** Mavzuniochibberishda O`rtaOsiyodagitoshdavriyodgorliklarining tasnifinituzishmaqsadgamuvofiq. Ushbudavrgamansubjoy – makonlargaqisqachata'rifberish, Selungur, Ko`lbuloq, Teshiktosh, ObirahmatvaBo`zsuvyodgorliklaritopilmalarisosidatoshdavribosqichiningdavrlashtir ilishigae'tiborqaratishzarur.

### **Foydalanimadabiyotlarro`yxati:**

1. Kabirov J., Sagdullayev A. O`rta Osiyo arxeologiyasi. - T., 1990.
2. Средняя Азия в эпоху камня и бронзы. Под ред. В.М.Массона, А.Н.Окладникова, И.Н.Хлопина и др. – Л., 1965.
3. Ташкенбаев Н.Х., Сулейманов Р.Х. Палеолит долины Зарафшана. – Т., 1984.
4. Исламов У.И. Культура каменного века Центральной Ферганы. – Т., 1986.
5. Палеолит СССР. Ранний палеолит Азиатской части СССР./ Отв. ред. П.И. Борисковский. – М., 1984.

### **4- seminarmashg`ulot : Mezolit davri Ajratalganvaqt 2s**

#### **Asosiy savollar:**

1. Mezolit davrini xarakterlovchi asosiy omillar.
2. Mezolit davrining o`rganilish darajasi, xronologiyasi va davrlashtirilishi.
3. Mezolit davrining asosiy yodgorliklari.
4. Mezolit davri san'ati.

**Metodik tavsiyalar:** Ushbu mavzuni yoritishda avvalo mezolit davridagi o`zgarishlarning sabablarini tahlil qilish, mezolit davri madaniyatlarining o`ziga xosligi va farqlarini ko`rsatib berish zarur. Mezolit davridagi o`zgarish largatabiiy sharoitningta'siriniko`rsatibo`tishkerak. Mezolit davrimakonlarining umumiyat sifinibershlozim. Surxondaryodagi Mochay, Farg`onadagi Obishir, Toshkent viloyatidagi Qo`shilish makonlari misolida O`rta Osiyo mezolitining o`ziga xos jihatlariga baho berish mumkin. O`rta Osiyo mezolit madaniyatlarining variantlariga alohida to`xtalib o`tish tavsiya etiladi. Mezolit davridagi g`oyaviy qarashlarga e'tibor qaratish lozim.

### **Foydalanimadigan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Artsixovskiy A.V. Arxeologiya asoslari. - T., 1970.
2. Авдусин Д.А. Основы археологии. - М., 1989.
3. Ранов В.А. Древнейшие страницы истории человечества. – М., 1988.
4. Столляр А.Д. Происхождение изобразительного искусства. – М., 1985.
5. Kabirov J., Sagdullayev A. O`rta Osiyo arxeologiyasi. - T., 1990.
6. Исламов У.И. Обиширская культура. – Т., 1980.
7. Исламов У.И. Пещера Мачай. – Т., 1975.

### **5- seminarmashg`ulot: Neolit davri arxeologiyasi Ajratalganvaqt – 2 s**

#### **Asosiysavollar:**

1. Neolit davrining o`ziga xos xususiyatlari.
2. Yangiqtisodiyotshakllaritaraqqiyoti.
3. Neolit davrining moddiyyavamadaniyy yodgorliklari.
4. O`rta Osiyo neolit davri xususiyatlari.

**Metodiktavsiyalar:** Ushbumavzunioritibberishuchuntalabaavvaloneolitdavriningo`z igaxosjihatlarihaqidama'lumotgaegabo`lishilozim.

Neolit davridagi yangiqtisodiyotshakllariningrivojlanishiga alohidaahamiyatberishzaru r. Neolit davrida xo`jalikning notejis rivojlanish sababalariga e'tibor qaratish, shu asosda arxeologik madaniyatlarining o`zaro farqlanishiga baho berish zarur. Neolit davri madaniyatlaridagi farqlar sababini izohlab o`tish kerak. O`rtal Osiyoda dehqonchilikning vujudga kelishi sharoitlari va uning tarqalgan hududlarini aniqlash kerak. Kaltaminor, Joytun va Xisor madaniyatları o`rtasidagi farqli jihatlarni tahlil qilish. O`rtal Osiyodagi qoyatosh rasmlari yodgorliklariga tavsif berib o`tish joiz.

### **Foydalilaniladigan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Artsixovskiy A.V. Arxeologiya asoslari. - T.,1970.
2. Авдусин Д.А. Основы археологии. - М.,1989.
3. Бердиев О.К. Изучение памятников эпохи неолита //КД. – Ашхабад,1968.
4. Kabirov J.,Sagdullayev A. O`rtal Osiyo arxeologiyasi. - Т.,1990.
5. Kabirov J. Sarmishsoyning qoya toshlaridagi rasmlar. – Т.,1976.
6. Виноградов Л.В. Неолитические памятники Хорезма. – М.,1968.
7. Средняя Азия в эпоху камня и бронзы. Под ред. В.М.Массона, А.Н.Окладникова, И.Н.Хлопина и др. – М. –Л.,1965.

### **6- seminarmashg'ulot: Eneolitdavri Ajratalganvaqt – 2s**

#### **Asosiysavollar:**

1. Eneolitdavrixronologiyasivatavsifi.
2. Metallgaishlovberishningkashfetilishi, misquollarningpaydobo`lishi.
3. Xo`jalikvajtimoiysohadagio`zgarishlar.
4. Eneolitdavriningmoddiyyamadaniyyodgorliklari.

**Metodiktavsiyalar:** Ushbumavzunioritishdaneolitvaeneolitdavrlariningxronologikji hatdanemas, balkimadaniydarajasibilanfarqqilishigae'tiborqaratishzarusi. Xo`jalikvajtimoiysohalardagio`zgarishlarniarxeologiktopilmalarasosidaizohlashkerak.

Eneolitdavrimakonlarinifarqlashdasopolbuyumlarningahamiyatigasharhberibotishkerak. Metallgaishlovberishningpaydobo`lishibilanyuzbergano`zgarishlargabahoberish, dehqonchilikmanzilgohlariningxususiyatlarinisharhlashkerak.

### **Foydalilaniladiganadabiyotlarro`yxati:**

1. Artsixovskiy A.V. Arxeologiya asoslari. - T.,1970.
2. Авдусин Д.А. Основы археологии. - М.,1989.
3. Kabirov J.,Sagdullayev A. O`rtal Osiyo arxeologiyasi. - Т.,1990.
4. Энеолит СССР. Энеолит Средней Азии.- М.,1982.
5. Хлопин И.Н. Энеолит Юго-Западного Туркменистана. - СПб, 1997.
6. Архитектурные памятники Туркменистана.- М.,1972.
7. Исаков А.И. Саразм.- Душанбе., 1991.

## **7.1- seminarmashg'ulot: Bronzadavri Ajratalganzaqt – 2s**

### **Asosiysavollar:**

1. Bronzadavriningumumiytavsifi.
2. Qadimgisivilizatsiyalariningshakllanishi.
3. Alohibaqabilalarvamadaniyatlaror`tasidaaloqalarningkengayishi.
4. Bronzadavriningasosiyyodgorliklari.

**Metodiktavsiyalar:** Kishilikjamiyatidagio`zaromunosabatlardayuzbergano`zgarishlar ningbronzadavrimadaniyatlaridaaksetishiniyoritishgae'tiborqaratishlozim.

Dunyoningturlihududlaridatarixiytarraqqiyotningborishinimisollaryordamidayoritishz arur.

Shahartipidagimadaniyatningvujudgakelishjarayoninikengroqyoritishtavsiyaetiladi.

### **Foydalaniladiganadabiyotlarro`yxati:**

1. Artsixovskiy A.V. Arxeologiyaasoslari. - Т.,1970.
2. Авдусин Д.А. Основы археологии. - М.,1989.
3. Массон В.М. Первые цивилизации.- Л.,1961.

## **7.2- seminar mashg'ulot: O`rta Osiyo bronza davrida Ajratalgan vaqt – 4s**

### **Asosiy savollar:**

1. O`rta Osiyoning turli hududlarida tarixiy taraqqiyotning borishi.
2. Asosiy yodgorliklar.
3. Dasht qabilalarining O`rta Osiyo janubiy vohalariga siljishi masalalari.
4. O`troq dehqonchilik, yarim ko`chmanchi va ko`chmanchi chorvador qabilalarning tarqalishi.

**Metodik tavsiyalar:** O`rta Osiyo hududlarida vujudga kelgan qadimgi dehqonchilik madaniyatları ildizlari va taraqqiyotini yoritish lozim. Janubiy Turkmanistonda vujudga kelgan Anov, Nomozgoh madaniyatları misolida bronza davri madaniyatiga ta'rif berish mumkin. O`troq dehqonchilik, yarim ko`chmanchi va ko`chmanchi chorvador qabilalarining o`ziga xos madaniyatlarini Zamonbobo, Tozabog`yob va Chust madaniyatları misolida taqqoslash mumkin.

### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Kabirov J.,Sagdullayev A. O`rta Osiyo arxeologiyasi. - Т.,1990.
2. Аскаров А.А., Ширинов Т.Ш. Ранняя городская культура эпохи бронзы Средней Азии.- Самарканд, 1993.
3. Asqarov A.A. Sopollitepa. – Т.,1973.
4. Аскаров А.А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы Юга Узбекистана. – Т.,1977.

## **8.1- seminarmashg'ulot: Temirdavriarxeologiyasi**

## Ajratilganvaqt – 2s

### Asosiysavollar:

1. Temirdavriningumumiytavsifi.
2. Moddiymadaniyatdagio`zgarishlar.
3. Temirdavrigamansubarxeologikyodgorliklar.

**Metodiktavsiyalar:** Temirdavridera Evropava Osiyoningturlihududlaridavujudgakelgan madaniyatlarino`zarotaqqoslashorqaliularningo`zigaxosjihatlarigabahoberishmumkin. Temirdavridamoddiymadaniyatdagio`zgarishlaromillariniko`rsatibo`tishkerak. Temirdavridagijjtimoitytaraqqiyotniarxeologikma'lumotlarasosidatahlilqilishvatemird avriyodgorliklarigata'rifberishlozim.

### Foydalilaniladiganadabiyotlarro`yxati:

1. Artsixovskiy A.V. Arxeologiya asoslari. - Т., 1970.
2. Авдусин Д.А. Основы археологии. - М., 1989.
3. Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии. // Археология СССР с древнейших времен до средневековья. Отв. ред. Г.А. Кошеленко. – М., 1985.

## 8.2- seminar mashg'ulot: Temir davrida O`rta Osiyo Ajratilganvaqt – 4s

### Asosiysavollar:

1. O`troqdehqonchilikmadaniyatitarqalghanhududlar.
2. O`rta Osiyoningshimoliyviloyatlaridajamiyattaraqqiyotningo`zigaxosligi.
3. Manzilgohlar, arxitektura, san'at.
4. O`rta Osiyodate mirdavrimadaniyatining paydobo`lishimuammolari.

**Metodiktavsiyalar:** Temirdavriga oidarxeologikyodgorliklartasnifinituzish, ularningo`xshashvafarqlijihatlarigata'rifberishtavsiya etiladi. Shimoliyvajanubiyviloatlardagitarixiytaraqqiyotning farqlarini izohlabo`tishzarur. Turlixaqlarvamamlakatlaro`rtasidagimadaniyalоqalarningarxeologiktopilmalardaaks etishigae'tiborqaratishlozim.

### Foydalilaniladiganadabiyotlarro`yxati:

1. Kabirov J., Sagdullayev A. O`rta Osiyo arxeologiyasi. - Т., 1990.
2. Средняя Азия в раннем железном веке. // Археология СССР с древнейших времен до средневековья. Отв. ред. Г.А. Кошеленко. – М., 1985.
3. Дальварзинтепе – Кушанский город на юге Узбекистана. Отв. ред. Л.И. Ремпель. – Т., 1978.
4. Сагдуллаев А.С. Усадьбы древней Бактрии. – Т., 1978.

## 9- seminar mashg'ulot: Antik davr arxeologiyasi Ajratilgan vaqt – 2s

### Asosiy savollar:

1. Antik davr ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari
2. Antik davr shaharsozligi.

3. Antik davr tarixini o'rganishda arxeologiya fanining ahamiyati.

**Metodik tavsiyalar:** Antik davrdagi tarixiy vaziyatning moddiy madaniyat taraqqiyotiga ta'sirini arxeologik materiallar asosida izohlash zarur. Antik shaharlarning madaniyat markazi sifatidagi roliga baho berish. Me'morchilik va san'atda turlicha an'analarning paydo bo`lish sabablarini sharhlab o`tish zarur.

**Foydalaniladigan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Kabirov J., Sagdullayev A. O`rta Osiyo arxeologiyasi. - Т., 1990.
2. Средняя Азия в античную эпоху. //Археология СССР с древнейших времен до средневековья. Отв. ред. Г.А.Кошеленко. – М., 1985.
3. Античные и раннесредневековые древности Южного Узбекистана. Отв. ред. академик АН Уз. Г.А.Пугаченкова. – М., 1972.
4. Сагдуллаев А.С. Усадьбы древней Бактрии. – Т., 1978.

**10- seminar mashg'ulot: O`rta Osiyo o`rta asrlarda  
Ajratalgan vaqt – 2s**

**Asosiy savollar:**

1. O`rta Osiyo ilk o`rta asrlar davrida.
2. O`rta asr me'morchiligi va san'atda mahalliy hamda budda an'analarning paydo bo`lishi.
3. Amir Temur davri arxeologiyasi.
5. XVI-XVII asrlarda qurilish va me'morchilik.

**Metodik tavsiyalar:** Ushbu davrlardagi tarixiy vaziyatning moddiy madaniyat taraqqiyotiga ta'sirini arxeologik materiallar asosida izohlash zarur. Me'morchilik va san'atda turlicha an'analarning paydo bo`lish sabablarini sharhlab o`tish zarur. Shaharlarning madaniyat markazi sifatidagi roliga baho berish. IX – XVII asrlarga oid me'morchilik obidalarining o`ziga xos jihatlarini izohlash lozim. Amir Temurning yaratuvchanlik faoliyati mahsuli bo`lgan yodgorliklar tavsifiga kengroq to`xtalib o`tish kerak.

**Foydalaniladigan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Kabirov J., Sagdullayev A. O`rta Osiyo arxeologiyasi. - Т., 1990.
2. Средняя Азия в античную эпоху. //Археология СССР с древнейших времен до средневековья. Отв. ред. Г.А.Кошеленко. – М., 1985.
3. Античные и раннесредневековые древности Южного Узбекистана. Отв. ред. академик АН Уз. Г.А.Пугаченкова. – М., 1972.
4. Сагдуллаев А.С. Усадьбы древней Бактрии. – Т., 1978.
5. Пугаченкова Г.А. Шедевры Средней Азии. – М., 1986.
6. Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. – Л., 1973.

### **I.3 ADABIYOTLAR RO'YXATI ASOSIYADABIYOTLAR:**

1. Egamberdiyeva N.A. Arxeologiya. –Toshkent; Fan va texnologiya,2011. -172 b.
2. Кабиров Ж., Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси. – Т.: Ўқитувчи,1990.– 160 б.
3. Арциховский А.В. Археология асослари. – Т.: Ўқитувчи,1970. -296 б.
4. Авдусин Д.А. Основы археологии. – М.: Высшая школа, 1989.-335 с.
5. Мартынов А.И. Археология. – М.: Высшая школа, 2005.- 447 с.
6. Археология. Учебник. Под. ред. академика РАН В.Л.Янина. – М.: Из-во Моск. ун-та, 2006, - 608 с.
7. Лунина С.Б. Археология Средней Азии. Учебное пособие. – Т., 1986
8. Борисковский П.И. Древнейшее прошлое человечества. – Л.,1979
9. Борисковский П.И. Возникновения человеческого общества. Палеолит Африки.– Л.,1977.
10. Джуракулов М.Д. Аванесова Н.А. Историография эпохи бронзы Средней Азии. Учебное пособие. -Самарканд: Изд.СамГУ, 1983.
11. Рындина Н., Дегтярева А. Энеолит и бронзовый век. Учебное пособие. - М.,2002.
12. Археология Зарубежной Азии. - М., Высшая школа, 1986
13. Peter L. Drewett. Field Archaeology: An Introduction. – London: USL Press, 1999. -196 p.
14. Colin Renfrew (Author, University of Cambridge), Paul Bahn (Author). Archaeology. Theories, Methods, and Practice. - UK, 2012

### **QO'SHIMCHAADABIYOTLAR**

1. Аннаев Т., Шайдуллаев Ш. Сурхондарё тарихидан лавҳалар. - Т., 1997.
2. Асқаров А.А. Энг қадимги шаҳар. – Т., 2000.
3. Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. – Л.: Наука, 1973.- 388 с.
4. Брей У., Трамп Д. Археологический словарь. - М.: Прогресс,1990
5. Гуломов Я.Ғ. Хоразмнинг сұғорилиш тарихи. – Т., 1959.
6. Еленек Я. Большой иллюстрированный атлас первобытного человека - М., 1982
7. Исламов У.И. Культура каменного века Центральной Ферганы. – Т.,1986.
8. Исламов У.И. Обиширская культура. – Т., 1980.
9. Исламов У.И. Пещера Мачай. – Т., 1975.
10. Ллойд С. Археология Месопотамии - М.; Наука, 1984. – 280 с.
11. Мартинов А.И. Шер Я.А. Методы археологического исследования, -М.: Высшая школа, 2002. – 240 с.
12. Массон В.М. Первые цивилизации. –Л.: Наука, 1989. -274 с.
13. Массон В.М. Средняя Азия и Древний Восток. – М.,Л.: Наука, 1964. -467 с.
14. Матюшин Г.Н. Археологический словарь. -М: Просвещение,1996. - 304 с.

15. Мортимер У. Древний Индостан. Раннеиндийская цивилизация / Пер. сангл. С. В. Меркурова. — М.: Центрполиграф, 2005. - 206 с
16. Средняя Азия в античную эпоху. //Археология СССР с древнейших времен до средневековья. Отв. ред. Г.А.Кошеленко. – М.,1985.
17. Сулаймонов Р.Х. Древний Нахшаб. -Т.: 2000.
18. Толстов С.П. Древний Хорезм. – М.: МГУ, 1948
19. Ўзбекистон тарихи моддий маданият ва ёзма манбаларда. –Т.: Фан
20. Eshov B. Qadimgi O’rta Osiyo shaharlari tarixi. – Т., 2006
21. Qodirova L.B. Arxeologiya. О’УМ. GulDU, 2016

#### **INTERNET SAYTLARI:**

1. <http://macroevolution.narod.ru/pics.htm>Палеонтология
2. <http://www.paleolit.ru/works/gal/gal1008.htm>
  3. <http://www.anth.ucsb.edu/projects/human/>
  4. [https://en.wikipedia.org/wiki/Dawn\\_of\\_Humanity](https://en.wikipedia.org/wiki/Dawn_of_Humanity)
- 5.

## **II. TALABALAR MUSTAQILISHLARI MAVZULARI BO'YICHA METODIK MATERIAL.**

### **1-mavzu: Arxeologiyafaniningdavriybosqichlari – 2s.**

**Reja:**

1. Arxeologikdavrlashtirishdamehnatquollariyasalganmateriallarningahamiyati.
2. Yertarixininggeologikdavrlargabo`linishi.
3. Arxeologikvageologikdavrlarningnisbati.

**Metodiktavsiyalar:** Davrvasanatarixhamda arxeologiyauchunkattaahamiyatkasbetadi. Shusababdantalabalararxeologikdavrlashtirishnipuxtao`zlashtirishlarilozim. Arxeologikvageologikdavrlarnisbatinito`g`rianiqlashuchunqiyosiyjadvaltuzishtavsiya etiladi.

#### **Adabiyotlar va manbalar:**

1. Авдусин Д.А. Основы археологии. - М., 1989.
2. Artsixovskiy A.V. Arxeologiyaasoslari. - Т., 1970.
3. История первобытного общества. Под ред. В.П. Алексеева. – М., 1979
4. Ранов В.А. Древнейшие страницы истории человечества. – М., 1988

### **2-mavzu: O`rtaOsiyoarxeologiyasiningrivojlanishtarixi – 4s**

**Reja:**

1. O`rtaOsiyoda arxeologiktadqiqotlarningboshlanishi.
2. XX asrning 50 -70 yillarida O`rta Osiyoda olib borilgan statsionar tadqiqotlar.
3. Mustaqillik yillaridan so`ng O`rta Osiyo arxeologiyasining taraqqiyoti.

**Metodik tavsiyalar:** Talabalar O`rta Osiyo arxeologiyasining rivojlanishiga ulkan hissa qo`shgan olimlar faoliyatini kengroq o`rganishga e'tibor qaratishlari lozim. Mustaqillik yillarida olib borilgan tadqiqotlar xususida alohida to`xtalib o`tish zarur.

#### **Adabiyotlar va manbalar:**

1. «Moddiy madaniyat tarixi» to`plami. Samarqand. 2000-2006yy
2. «История материальной культуры Узбекистана» Ежегодник. Ташкент. 1961-2000 гг.
3. Arxeologlar hikoya qiladi. –Т., 1974.

### **3-mavzu: Xorazm arxeologiyasi – 2s.**

**Reja:**

1. Xorazm arxeologiyasining rivojlanishi.
2. Xorazmda ibridoiv davr yodgorliklari.
3. Xorazmning qadimgi shaharlari.

**Metodik tavsiyalar:** Qadimdan O`rta Osiyodagi madaniyat o`choqlaridan biri bo`lib kelgan Xorazmning moddiy va madaniy yodgorliklarining o`rganilish tarixini yoritish

lozim. Xorazmda arxeologik tadqiqotlar olib borgan olimlar faoliyatini kengroq o`rganish, ular tomonidan o`rganilgan yodgorliklarni tavsiflash kerak.

**Adabiyotlar va manbalar:**

1. Kabirov J., Sagdullayev A. O`rta Osiyo arxeologiyasi. - T., 1990.
2. Jabborov I.M. Ko`hna harobalar siri. – T., 1968.
3. Tolstov S.P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. – T., 1964.
4. G`ulomov Ya.G. Xorazmningsug`orilishtarixi. – T., 1959.

**4-mavzu: Ibtidoiy davr san'ati yodgorliklari- 2 s.**

**Reja:**

1. Yevropadatopilganibtidoiysan'atnamunalari.
2. O`zbekistondagi qoyatosh rasmlarining namunalari.
3. Ibtidoiy haykaltaroshlik.

**Metodik tavsiyalar:** O`tmish tarixning xilma-xil yodgorliklari orasida qoyatosh rasmlari alohida o`rin egallaydi. Talabalarushbumavzuniyoritishdaburasmlarningishlanishtexnikasigako`rafarqlanishin ibilishlarizarur.

Ibtidoiysan'atnamunalarinita'riflashorqalio`shadavrinsonlarining mashg`ulotlari, g`oyaviy qarashlarivadiniye'tiqodlari haqidama'lumotberish mumkin.

**Adabiyotlar va manbalar:**

1. Artsixovskiy A.V. Arxeologiya asoslari. - T., 1970.
2. Kabirov J., Sagdullayev A. O`rta Osiyo arxeologiyasi. - T., 1990.
3. Kabirov J. Sarmishsoyning qoya toshlaridagi rasmlar. – T., 1976.
4. Кабиров Дж. Древнейшая наскальная живопись Зарагузия. – Н., 1976.

**5-mavzu: OldOsiyodaneolit – 2s.**

**Reja:**

1. OldOsiyoneolitiningo`zigaxosxususiyatlari.
2. Chatal Guyuk yodgorliklari.
3. Hojilar madaniyati.
4. Xassun va Samara madaniyati.

**Metodik tavsiyalar:** Qadimgi sivilizatsiya markazlaridan biri bo`lgan Old Osiyoda neolit davridagi tarixiy taraqqiyotni moddiy manbalar asosida tahlil etish lozim. Turli madaniyatlarni qiyoslash orqali ularning ahamiyatini ochib berish mumkin.

**Adabiyotlar va manbalar:**

1. Авдиев В.И. История древнего Востока. – М., 1970.
2. Заблоцка Ю. История Ближнего Востока в древности. – М., 1989.
1. Афанасьева В.К. и др. Искусство Древнего Востока. – М., 1971.

**6-mavzu: Ibtidoiy davr mozor qo`rg`onlari – 2s.**

**Reja:**

1. Ibtidoiy davr mozorqo`rg`onlarining o`ziga xos xususiyatlari.
2. Qadimiylar chuqur va katakomba mozor qo`rg`onlari.
3. Yog`ochband davr mozor qo`rg`onlari.

**Metodik tavsiyalar:** Ibtidoiy mozor qo`rg`onlarning bir – biridan farqli jihatlariga e'tibor qaratish lozim. Har bir davrga oid topilmalar misolida o`sha davrning iqtisodiy, ijtimoiy, g`oyaviy qarashlarini izohlash mumkin.

#### **Adabiyotlar va manbalar:**

1. Artsixovskiy A.V. Arxeologiya asoslari. - Т.,1970.
2. Авдусин Д.А. Основы археологии. - М.,1989.
3. Диков Н.Н. Археологические памятники Камчатки, Чукотки и Верхней Колымы. – М.,1977.

#### **7-mavzu: Andronova madaniyatining o`ziga xos xususiyatlari– 2s.**

##### **Reja:**

1. Yenisey havzasidagi chorvador qabilalar.
2. Andronova madaniyatining g`arbga tarqalishi.
3. Sirdaryo va Amudaryo quyi oqimlarida Andronova madaniyati namunalari.

**Metodik tavsiyalar:** E.a. II ming yilliklar o`rtalarida vujudga kelib, juda katta hududlarga tarqalgan andronova madaniyatining o`ziga xos xususiyatlarini ohib berish, uning O`rta Osiyodagi namunalariga ta'rif berish lozim.

#### **Adabiyotlar va manbalar:**

1. Artsixovskiy A.V. Arxeologiya asoslari. - Т.,1970.
2. Авдусин Д.А. Основы археологии. - М.,1989.
3. Заднепровский Ю.А. памятники андроновской культуры.// Средняя Азия в эпоху камня и бронзы. – М. – Л.,1966. 214-215 бетлар.

#### **8-mavzu: Skifmozorqo`rg`onlari – 2s.**

##### **Reja:**

1. Skifqabilalarininghayoti.
2. Kulobamozorqo`rg`oni.
3. Soloha va Chertomlik qo`rg`onlari.

**Metodik tavsiyalar:** Ko`chmanchi chorvachilik madaniyatini o`zida yaqqol aks ettirgan skif qabilalarining hayoti haqida ma'lumot beruvchi mozor qo`rg`onlarning tavsifini berish lozim. Arxeologik topilmalar asosida skiflarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotini ohib berish zarur.

#### **Adabiyotlar va manbalar:**

1. Artsixovskiy A.V. Arxeologiya asoslari. - Т.,1970.
2. Авдусин Д.А. Основы археологии. - М.,1989.
3. История Европы. Т-1. – М., 1964

#### **9-mavzu: O`rta Osiyoning qadimgishaharlari – 2 s**

### **Reja:**

1. Bronzadavrida O`rta Osiyodailkshahar monand madaniyat larning rivojlanishi.
2. Temirdavridashahar sozlik.
3. Antikdavrshahar sozligi.

**Metodiktavsiyalar:** Ilkshaharlar paydobo`lishining asoslarini vashart – sharoitlarin ike nengroq yoritish zarur. Harbirdavrningo`zigaxos «shahar» tushunchasi gaizohberib o`tishlozim. Aniqbirshahar misolidahar – birdavrshahar sozligi ningo`zigaxos xususiyatlarini ochib berish mumkin.

### **Adabiyotlarvamanbalar:**

1. Kabirov J., Sagdullayev A. O`rta Osiyo arxeologiyasi. – T., 1990.
2. Eshov B. Qadimgi O`rta Osiyo shaharlari tarixi. – T., 2006.
3. Arxeologiya Srednej Azii. – T., 1990. 93-96 betlar.
4. Uсадьбы древней Бактрии. – T., 1987.

## **10-mavzu: Kushonlar arxeologiyasi – 2s.**

### **Reja:**

1. O`rta Osiyoda Kushonlardavri.
2. Ayirtomyodgorligi.
3. Kushondavridagi buddayodgorliklari.

**Metodiktavsiyalar:** O`rta Osiyodao`rganilgan Kushonlardavriga oidar xeolgi kyodgorlik largata'rif berish, budavrdagime'morchilik vasan'atda paydobo`lgan buddaan'analarini aksetti rganyodgorli klarhaqidakengroqma'lumot keltirish.

### **Adabiyotlarvamanbalar:**

1. Средняя Азия в раннем железном веке. //Археология с древнейших времен до средневековья. Отв. ред. Г.А. Кошеленко. – М., 1985.
2. Дальварзинтепе – кушанский город на юге Узбекистана. Отв. ред. Л.И. Ремпель. – Т., 1978.
3. Пидаев Ш.Р. Поселения Кушанского времени Северной Бактрии. – Т.,

## **11-mavzu: Qadimgi Misrar xeologisi – 2s.**

### **Reja:**

1. Qadimgi Misrar xeologiyasi ning rivojlanishi.
2. Qadimgi Misrning asosiyar xeologik yodgorliklari.
3. Misrtarixinio`rganishda arxeologik topilmalar ningo`rni.

**Metodiktavsiyalar:** Jahonarxeologiyasi ning eng qiziqlisahifalaridan bo`lmish Misrar xeologiyasi ning rivojlanishi tarixini yoritish kerak. Qadimgidavryodgorliklarnita'riflash, ularning Misrtarixini yoritishda qigabahoberish zarur.

### **Adabiyotlarvamanbalar:**

1. Авдиев В.И. История древнего Востока. – М., 1970.
2. Керам М. Боги, гробницы, учёные. Роман археологии. — М., 1986
3. Кацнельсон И. С. Тутанхамон и сокровища его гробницы. — М., 1979
4. Салохуддинов Х. А. Фиръавнлар мамлакати (Қадимги Миср маданияти тарихидан). – Т.: Мехнат, 1992.

5. Косидовский З. Когда солнце было богом. —М., 1970
6. Картер Г. Гробница Тутанхамона / Пер. с англ.— М., 1959

## 12-mavzu: Mezoamerikada arxeologikamaliyot – 2s. Reja:

1. Amerikada qadimgi insoniyat izlari
2. Inklarmadaniyati
3. Atsteklarmadaniyati
4. Irokezlar

**Metodiktavsiyalar:** Amerika qit'asida olib borilgan arxeologik tadqiqotlarni tijalarini tahlil qilish, qadimgimadaniyat larga oidiyodgorliklarni organizhvatara riflashkerak.

### **Adabiyotlar va manbalar:**

1. Всемирная история. — М., 1955, 1956. Т I – II.
2. История США. I том. — М., 1980.
3. Стингл М. Индейцы без томогавков. — М.: Прогресс, 1984
4. Косидовский З. Когда солнце было богом. —М., 1970

### **2- Mustaqil ish: Arxeologik atamalarning izohli lug'atini tuzish.**

Talabalar 20 ta arxeologik atamaning izohli lug'atini ma'lumotlar olingan manbalarni ko'rsatgan holda tuzishlari kerak.

### **3- Mustaqil ish: Berilgan mavzular asosida arxeologik yodgorliklarga va madaniyatlarga tavsif berish.**

Ushbu mustaqil ishni talabalar qo'shimcha adabiyotlar va INTERNET ma'lumotlaridan foydalangan holda bajarishlari kerak.

1. Olduvay
2. Qo'shilish
3. Atapuerka
4. Machay
5. Sent Ashel
6. Zamonbobo
7. Chjoukoutyan
8. Tozabog`yob
9. Arkaim
10. Sel – Ungur
11. Ierixon
12. Natufiy madaniyati
13. Chatal Xyuyuk
14. Cheyyunu tepasi
15. Yanshao
16. Jarqo'ton
17. Tripolye
18. Sialk

19. Anau
20. Sarazm
21. Moxenjadaro
22. TepaiHisor
23. Obishir
24. Maykop
25. Oltintepa
26. Afrosiyob
27. Yerqo'rg'on
28. Chirikrabet
29. Paziriq qo'rg'oni
30. Panjikent
31. Mas d'Azil
32. Tuproqqa'l'a
33. Le Mustye
34. Dalvarzintepa
35. Tardenuaz
36. Fayoztepa
37. Qalai Qahqaha
38. Eski Xovos
39. Zarautsoy
40. Kaltaminor
41. Ur
42. Uchtut
43. Altamir
44. Iyerixon
45. Suza

#### **4 Mustaqil ish:**

Tlabalaro'zlari istiqomat qila digan hududlaridamavjudar xeologik yodgorliklarga tiborga olinadi.

### 3. GLOSSARIY

<b>Atamaning o'zbek tilida nomlanishi</b>	<b>Atamaning ingliz tilida nomlanishi</b>	<b>Atamaning rus tilida nomlanishi</b>	<b>Atamaning ma'nosi</b>
<b>Abbevil</b>	<b>Abbeville</b>	<b>Аббевиль</b>	Fransiyadagi Sena daryosi bo'yida joylashgan, ilk paleolit qurollari topilgan joy nomi. 1835 yilda M.Pikar tomonidan dastlabki tosh qurollar topilgan
<b>Absolyut yosh</b>	<b>Absolute age</b>	<b>Абсолютный возраст</b>	yer qatlatlamlarining va ularda joylashgan arxeologik topilmalarning absolyut yoshini (yillarda ifodalangan) aniqlash. Ximiyaviy elementlarning va ular birikmalarining vaqt o'tishi bilan izotoplarga va molekulalarga parchalanish xossasiga asoslangan. Arxeologiyada ko'pincha kaliy-argon va radiouglerod metodlari qo'llaniladi.
<b>Avstralopitek</b>	<b>Australopithecus</b>	<b>Австролопитек</b>	lot. <i>australis</i> – janubiy, yunon. <i>pithekos</i> - maymun – odamsimonlar vakillari oilasi (qarang. gominid).
<b>Avtoxton</b>	<b>Autochthonous</b>	<b>Автохтонный</b>	yun. <i>autochthon-</i> mahalliy, tub joy - joylarda vujudga kelgan madaniyatlar
<b>Azil madaniyati</b>	<b>Asilisa culture</b>	<b>Азильская культура</b>	Ispaniya shimoli va Fransiya janubig'arbida vujudga kelgan ilk mezolit madaniyati. Asosiy topilmalari – suyak garpunlar, bo'yalgan toshlar.
<b>Akropol</b>	<b>The Acropolis</b>	<b>Акрополь</b>	(yunon. akros – yuqori, polis-shahar) ark, o'rda, kuhandiz, ichki qal'a
<b>Amrat madaniyati</b>	<b>Amritsa culture</b>	<b>Амратская культура</b>	Misrning m.a. V-IV ming yilliklardagi eneolit davri madaniyati. Badariy va gerzey madaniyatları oralig'ida vujudga

			kelgan. Dehqonchilik va chorvachilik, tosh quollar, mis to'g'nog'ichlar, garpun, munchoqlar
<b>Amir Temur g'ori</b>	<b>Cave Of Amir Timur</b>	<b>Пещера Амира Темура</b>	Surxondaryo viloyati Boysun tog'idagi ibtidoiy odamlar manzilgohi bo'lgan g'or. Bu gorda 1939 y.da A.P.Okladnikov arxeologik qazishlar olib borgan. Unda uchta qatlam bo'lib, yuqoridagi ikkitasi yangi tosh davriga, eng quyisi mustye davriga taalluqlidir. Bu qatlamda o'choq va ba'zi joylarida pista ko'mirning qoldiqlari topilgan. Qo'pol ishlangan yirik qirg'ichlar, plastinalar, lappaksimon nukleuslar va ulardan uchirib olingan tosh parchalari, xilma-xil hayvon va qushlarning suyak qoldiqlari topilgan.
<b>Angob</b>	<b>Engobe</b>	<b>Ангоб</b>	(frans. engobe) — qizil kesakdan tayyorlangan bo'yoq. Angob kulolchilikda keng qo'llaniladi. Sopol idishlar va buyumlar A. surtishdan oldin quritiladi. Notekis joylari maxsus loy (dazmol loy) b-n tekislanadi, so'ng ho'l latta b-n silliqlanadi. Ba'zan A. bir necha qavat surtiladi. Idishlar va buyumlar A.dan keyin naqshlanadi. O'rta Osiyo xalqlari A.ni neolit davri (mil. av. 4 — 3 ming yillik) dan boshlab sopol idishlarga naqsh berishda va bo'yashda ishlatgan.

<b>Andronovo madaniyati</b>	<b>Andronovo culture</b>	<b>Андроновская культура</b>	M.a. II ming yillikning 2-yarmi va I ming yillikning boshlariga oid chorvador va dehqonlar madaniyati. An.m. yodgorliklari Minusinsk, Shim.-sharqiy va Markaziy Qozog'iston, Ob daryosining yuqori oqimi, Chelyabinsk viloyatining o'rmonva dashtlarida, qisman O'zbekiston, Kirg'iziston yerlarida tarqalgan. Bu madaniyatga oid yodgorlikni birinchi bor 1914 y.da Y.A.Tugarinov Achinsk stansiyasi yaqinidagi Andronovo qishlog'ida olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida topgan va 1920—23 y.larda S.A.Teplouxov uni An.m. nomi b-n fanga kiritgan. An.m. ga doir yodgorliklar dastlab S. P. Tolstov tomonidan 1938 y.da qadimgi Xorazmning Ko'kcha daryo sohillaridan topib o'rganildi va unga tozabog'yop madaniyatnomi berilgan. Keyinchalik Y.F.G'ulomov va A.Asqarovlar bu madaniyatga doir yodgorliklarni Zarafshonning quyi oqimidan topib o'rgandilar. Bu davr mozor va manzilgohlari Toshkent atrofida, Mo'minobodda (Samarqand viloyati), Farg'ona vodiysida (Karamko'l, Vodil mozorlari), Qayroqqumda ko'plab o'rganilgan. An.m. aholisi yarim yerto'la shaklidagi kulbalarda yashagan; mozorlari yorma go'r bo'lib, murdalar oyoq-qo'llari bukilgan, chapga yonboshlatilgan, boshi janubi-g'arbg'a qaratilgan holda, ko'pincha kiyim-kechagi, jezdan yasalgan bezak buyumlari b-n dafn etilgan.
<b>Animizm</b>	<b>Animism</b>	<b>Анимизм</b>	lot. <i>anima, animus</i> – ruh, jon – tabiatda g'ayritabiyy mavjudotlar - ruhlar yoki tanada o'rnashgan

			jonning avjudligiga ishonish, e'tiqod
<b>Anov madaniyati</b>	<b>Anouska culture</b>	<b>Анауская культура</b>	Ashxobod yaqinidagi Anov qishlog'i atrofida joylashgan ilk eneolit va so'nggi jez davrlariga oid qad. dehqonchilik manzilgohlari va shahar xarobalari. Eneolit va jez davri manzilgohlari saqlanib qolgan shim. va jan. Anov tepaliklari ayniqsa dunyoga mashhur. An.m. ni dastlab amerikalik geolog R. Pompelli va angliyalik arxeolog Shmidt tekshirgan. An.m. qatlamlaridan xom g'ishtdan qurilgan binolar qoldiqlari, turli mis buyum va zeb-ziynatlar, tosh yorg'uchqolar, sirtiga rang-barang naqshlar ishlangan sopol idishlar hamda ayol haykalchalari topilgan. Arxeologik qazishlar va aeroftosuratlar eneolit davridayoq O'rta Osiyo hududida eng ilk sug'orish inshootlari barpo bo'lganligini ko'rsatadi.
<b>Antropogen</b>	<b>The Quaternary</b>	<b>Антропоген</b>	geologik tarixning so'nggi davri, neogendan so'ng keladi, kaynazoy erasiga kiradi. Inson mavjud bo'lgan davr. Ilgari bu davr to'rtlamchi davr deb atalgan
<b>Antropogenez</b>	<b>Anthropogeneity</b>	<b>Антропоген</b>	(yunon. <i>anthropos</i> – odam, <i>genesis</i> ) – paydo bo'lish – inson jismoniy qiyofasining shakllanishi, mehnat faoliyati, tili, shuningdek jamiyatning dastlabki rivojlanish jarayoni. A. haqidagi ta'limot — <i>antropologiya</i> tarmog'i.
<b>Antropomorf</b>	<b>Antropomorphic</b>	<b>Антропоморф</b>	(yun. <i>anthropos</i> – odam, <i>morphe</i> – shakl)– odamsimon.
<b>Antropologiya</b>	<b>Anthropology</b>	<b>Антропология</b>	одамнинг келиб чиқиши ва эволюцияси, одамзод иркларининг пайдо бўлиши, одамнинг тана тузилишидаги нормал фарқ-тафовут, ўзгарувчанлик ҳақидаги фан. А.

			ижтимоий фанлар гажудаяқын турадыған биология соҳасидир.
<b>Artefakt</b>	<b>Artifact</b>	<b>Артефакт</b>	(lot. <i>arte</i> – sun’iy, <i>faktum</i> – qilingan) – sun’iy yasalган ھар qanday narsa-buyum
<b>Arxantrop</b>	<b>Arhantrop</b>	<b>Архантроп</b>	(yunon. <i>archaios</i> – qadimgi, <i>anthropos</i> ) – odam – eng qadimgi odam.
<b>Arxeologik kuzatish</b>	<b>Archaeological monitoring</b>	<b>Археологич еское наблюдение</b>	археологик jihatdan tekshirilmagan joylarda xo’jalik tashkilotlari ariq chiqarish, bino qurish, yer tekislash va h.k. paytlarida yer tagidagi ba’zi moddiy madaniyat yodgorliklari yo’q bo’lib ketmasligi uchun arxeologlarning o’sha joylarda nazorat qilib turishlari.
<b>Arxeologik madaniyat</b>	<b>Archaeological culture</b>	<b>Археологич еская культура</b>	o’ziga xos etn. xususiyatlari b-n ajralib turadigan muayyan davrga va hududga doir arxeologik yodgorliklar birligi. Ayrim yoki bir qancha belgilarga, xususan, sopol buyumlarning shakli, naqshi, marmumlarni dafn etish tartibi, mehnat qurollari, uy-ro’zg’or anjomlari va b. ga ko’ra belgilanadi. Yodgorliklar qayerdan topilsa, shu joyning nomi b-n yuritiladi (mas, <i>Qovunchi madaniyati</i> ). Ar.m.ni o’rganish b-n ba’zan biror qabila yoki xalqning muayyan tarixiy davrdagi ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlarining darajasi hamda ularda sodir bo’lgan ayrim o’zgarishlar aniqlab olinadi. Moddiy madaniyat elementlaridagi o’xshashlik hamma vaqt ham aholining etnik va kelib chiqish birligini ifodalayvermaydi, chunki bir-biriga yaqin ijtimoiy va geografik sharoitda hamda ibridoiy texnika davrida qabilalar hayoti va madaniyatida o’xshashliklar bo’lishi mumkin. Bundan tashqari, madaniyatning ayrim elementlari shu madaniyatni yaratgan xalq yoki

			qabilalarning bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi natijasida boshqa qabila yoki xalqlarga o'tishi mumkin.
<b>Arxeologiyayodgorliklari</b>	<b>Archaeological sites</b>	<b>Археологические памятники</b>	arxeologik tadqiqotlarning ob'ekti bo'lib xizmat qiluvchi, yerning usti va ostida saqlanib qolgan qadimgi inshootlar va buyumlar. A. yo. moddiy tarixiy manbalar bo'lib, ularni o'rganish b-n kishilik jamiyatining o'tmishi yoritiladi. A.yo. kishilik tarixining yozma tarixgacha bo'lgan eng qad. davrini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Arxeologik davrlar bo'yicha A.yo. quyidagi turlarga bo'linadi: 1) tosh davri yodgorliklari; 2) jez davri yodgorliklari; 3) antik davr yodgorliklari; 4) qad. mudofaa inshootlari; 5) qad. suv inshootlari; 6) qad. mozorlar; 7) qad. me'morlik yodgorliklari; 8) qad. hujjatlar; 9) o'rta asr shahar va rabotlarning xarobalari; 10) zargarlik buyumlari va qad. pullarning xazinasi; 11) qadimgi va o'rta asr pullari, turli arxeologik topilmalar.
<b>Arxeologik sanalash</b>	<b>Archaeological dating</b>	<b>Археологическая датировка</b>	arxeologik yodgorliklarning yoshini aniqlash. Ularning sanasi yil, yuz yillar, ming yillarda mutlaq, aniq ko'rsatilishi hamda boshqa yodgorliklarga nisbatan aniqlangan nisbiy (ilgari, so'nggi) bo'lishi mumkin. Ar. s. arxeologik usullar (stratigrafik, tipologik) va tabiiy fanlar usullari (radio-uglerod usuli b-n sanalash va b.) b-n aniqlanishi mumkin.
<b>Arxeologik sinov</b>	<b>Archaeological exploration</b>	<b>Археологическая разведка</b>	arxeologik yodgorliklarni qayd etish (arxeologik xaritalar tuzish) va qazilma ishlari olib borish maqsadida o'tkaziladigan qidiruv ishlari. A.s.da odatda har bir yodgorlik sinov tariqasida qisman

			qazib ko'rilib, uning bunyod etilgan vaqt, umri, xususiyati kabi tomonlari aniqlanadi.
<b>Arxeologiya ekspeditsiyalariga</b>	<b>Archaeological expedition</b>	<b>Археологические экспедиции</b>	moddiy madaniyat yodgorliklarini dala-tadqiqot yo'li bilan o'rganish uchun tashkil qilinadigan ekspeditsiyalar. Ularni ilmiy-tadqiqot institatlari, oliv o'quv yurtlari, muzeylar va o'lkashunoslik to'garaklari tashkil etadi. Ko'pincha, kompleks ravishda tuzilib, tarkibiga arxeologlardan tashqari etnograf, antropolog, geograf, tuproqshunos, biolog, botanik va b. olimlar kiritiladi. Uzoq yillar ishlashga mo'ljallanib, mustaqil ishlaydigan otryad va guruhlardan iborat qilib tuziladi. Har bir ekspeditsiyaning o'ziga xos nizomi, ilmiy kengashi, maxsus bazasi bo'ladi.
<b>Arxeologik qazish</b>	<b>Archaeological excavations</b>	<b>Археологические раскопки</b>	maxsus ruxsatnomasi asosida yodgorliklar va madaniy qatlarni to'liq o'rganish imkonini beruvchi uslubga (avvalambor stratigrafik uslubga) rioya qilingan hoda arxeologik yodgorliklarni tadqiq etish. A.q. turli arxeologik tekshirishning yakunlovchi bosqichi bo'lib, unda sinab ko'rilgan yodgorlik boshdan-oyoq batamom qazib tekshiriladi, tugallangan tarixiy xulosalar chiqariladi.
<b>Ashel</b>	<b>Acheulean</b>	<b>Ашельская</b>	ilk paleolit madaniyati. Fransiyadagi Sent Ashel joy nomi bilan atalgan. Birinchi marta fanga G. de Mortile tomonidan 1885 yilda paleolitning shell va must'e oralig'ida joylashgan beshinchi davri sifatida kiritilgan.
<b>Badariy madaniyati</b>	<b>Badari culture</b>	<b>Бадарийская культура</b>	Janubiy Misr neolit davri madaniyati. M.a. V ming yillik (m.a. 4500-3250 yy). 1922-1925 yillarda qazib o'rganilgan. Xo'jaligi

			— ovchilik, dehqonchilik, chorvachilik. 40 ta manzilgoh, 600 qabr, tosh, yog'och va suyak quollar, qizil va qora rangli sopol idishlar, tosh tumorlar.
<b>Baza</b>	<b>Base</b>	<b>База</b>	Tagkursi
<b>Dendroxronologiya</b>	<b>Dendrochronology</b>	<b>Дендрохронология</b>	lot. <i>dendron</i> – daraxt, <i>chronos</i> - vaqt – daraxt tanasidagi xalqalar soniga qarab davrlashtirish.
<b>Diastema</b>	<b>Diastema</b>	<b>Диастема</b>	(yunon. <i>diastema</i> – oraliq) – jag' tishlar bilan uchqur tishlar oralig'idagi joy.
<b>Dolmen</b>	<b>Dolmen</b>	<b>Дольмен</b>	(breton. <i>tol</i> – stol va men - tosh) yassi plita bilan yopilgan ulkan tosh quti ko'rinishida barpo etilgan megalit inshoot, tosh qabr
<b>Domestikatsiya</b>	<b>Domestication</b>	<b>Доместикация</b>	lot. <i>domesticus</i> - uyda – o'simlik yoki hayvonning madaniylashtirilishi.
<b>Driopitek</b>	<b>Driopitek</b>	<b>Дриопитек</b>	yunon. <i>drys</i> – daraxt, <i>pithekos</i> – maymun – hozirgi odamsimon maymunlarning qazilma ajdodlari.
<b>Ekogamiya</b>	<b>Exogamy</b>	<b>Экзогамия</b>	Qarindoshlar o'rtasida nikohning ma'n qilinishi
<b>Fayum</b>	<b>Fayum</b>	<b>Фаюм</b>	Misr neolit davri madaniyati, m.a. VI-V ming yillik.
<b>Garpun</b>	<b>Harpoon</b>	<b>Гарпун</b>	(nider. harpoen) – asosanyirikdengizjonivorlariniovlas hgamo'ljallanganuloqtiriluvchiqurol , sanchqi.
<b>Galshtat</b>	<b>Hallstatt</b>	<b>Гальштат</b>	Yevropaning temir davri madaniyati va davri, Avstriyadagi joy nomi bilan atalgan. Yevropa arxeologiyasida galshtat A (m.a XII-X aa.), galshtat V ( m.a. X-VIII aa) va galshtat S ( m.a. VII a.) ajratib ko'rsatiladi. Temir galshtat S da paydo bo'lган.
<b>Gominidlar</b>	<b>Hominides</b>	<b>Гоминиды</b>	lot. <i>homo</i> - odam – odamsimonlarning ajdodlari guruhi. Insonning qazilma va zamonaviy turlarini birlashtiruvchi oila (avstralopiteklar, <i>Homo habilis</i> ,

			Homo erectus, Homo sapiens).
<b>Gominoidlar</b>	<b>Hominidea</b>	<b>Гоминоиди</b>	oliy primatlar, yo'qolib ketgan va hozirda mavjud bo'lgan odamsimon maymunlar (shimpanze, orangutang, gorilla, gibbon, ramapitek va h.k.)
<b>Gomininlar</b>	<b>Hominini</b>	<b>Гоминини</b>	lot. <i>homo</i> – odam – odamlar guruhi.
<b>Gomo sapiens (idrokli odam)</b>	<b>Homo sapiens (thinking man)</b>	<b>Человек разумный</b>	lot. <i>homo sapiens</i> – aqli (ongli) odam. Uning uch turi ajtratiladi6 arxaik, neandertal (paleoantrop) va zamonaviy qiyofadagi odam – neoantrop
<b>Gomo gabilis (ishbilarmon odam)</b>	<b>Homo habilis (tool maker)</b>	<b>Человек умелый</b>	lot. <i>homo habilis</i> – ishbilarmon odam. Dastlab L.Liki tomonidan Oduvayda topilgan.
<b>Gomo erectus (tik yuruvchi odam)</b>	<b>Homo erectus (bipedal walker)</b>	<b>Человек выпрямленный (прямоходящий)</b>	lot. <i>homo erectus</i> – tik yuruvchi odam, turlaridan biri – pitekanthrop. Dastlab 1893 yilda Yavada Y.Dyubua tomonidan topilgan va pitekanthrop deb atalgan.
<b>Iyerixon</b>	<b>Jericho</b>	<b>Иерихон</b>	O'lik dengizning shim.-g'arbida, Iordan daryosi vodiysida joylashgan shahar. Mil. av. 7—2-ming yillikda Falastindagi qadimgi manzilgoh. Neolit va jez davriga oid manzilgoh qoldiqlari, mustahkam qo'sh devori bo'lgan shahar xarobasi (mil. av. 18—16-a.lar), maqbaralar ochilgan. Mil. av. 2-ming yillikning oxirlarida yahudiy qabilalar tomonidan vayron qilingan. Bibliya rivoyatiga ko'ra, Ierixonning devorlari dushman karnaylari sadosidan («Ierixon karnaylari») qulab tushgan.
<b>Joytun madaniyati</b>	<b>Jarunska culture</b>	<b>Джейтунская культура</b>	O'rta Osiyoning neolit davriga oid eng qadimgi o'troq dehqonchilik madaniyati markazlaridan biri (mil. av. 6—5-ming yillik). Ashxoboddan 30 km shimolda joylashgan qadimgi o'troq dehqonlar qishlog'i xarobasi nomidan olingan. 1952 yildan 10 dan ortiq yodgorliklar (Chag'illitepa, Pessejiktepa,

			Chopontepa, Nayzatepa, Joytun va b.) tekshirilgan. Somonli guvaladan qurilgan bir xonali uylar ( $25-45\text{ m}^2$ ) sahni oq ganchli loy bilan suvalgan, ayrimlari qizil va qora rangga bo'yalgan. Har bir xonada o'choq, g'alla o'rasi, supa bo'lган. Ayrim xonalar o'rtasida katta otashkada bo'lib, umumiy sajdagoh vazifasini o'tagan. 3 madaniy qatlamdan iborat Joytun manzilgohning maydoni 0,5 ga, yuqori qatlami 35—40 xonadan, o'rta qatlami 29 xonadan iborat. Manzilgohlardan bolalar suyagi topilgan, kattalar tashqariga ko'milgan. Aholi, asosan, dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik bilan shug'ullangan. Chaqmoqtoshdan qirg'ich, o'roq, randa, pichoq; suyakdan igna, bigiz; tosh o'g'ir va b. buyumlar yasalgan.
<b>Jarmo</b>	<b>Jarmo</b>	<b>Джармо</b>	Iraqning Kirkuk shahridan sharqda joylashgan Zagros tog'laridagi manzilgoh. 1948-1954 yillarda R.Bredvudning qazishmalari 16 qatlamni aniqlagan. Dehqonchilik mayjud bo'lган. 11-5-6 ming yil avval.
<b>Levallua</b>	<b>Levallois</b>	<b>Леваллуа</b>	paleolitning rivojlanish davri, toshbaqasimon nukleuslarning tayyorlanishi va ulardan uzunchoq plastinalar bo'laklab olinishi bilan xarakterlanadi. Levallua texnikasi asheda paydo bo'lib, mustye davrining oxirigacha mavjud bo'lган
<b>Kekkenmeddi nglar</b>	<b>Checkinteger</b>	<b>Къеккенмединги</b>	dan. <i>kokken</i> – oshxona, <i>modding</i> - axlatxona – oshxona chiqindilari sifatidagi chig'anoqlarning to'planishi.
<b>Ko'zaliqir</b>	<b>Kyuzeligyr</b>	<b>Кюзелигыр</b>	Qad. Xorazmda bo'lган shahar-qal'a xarobasi (mil. av. 1-ming yillikning 1-yarmi). Jayhun (Amudaryo)ning ko'hna o'zani bo'yida joylashgan.

			1939 y. S.P.Tolstovboshchiligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasitopgan, 1950, 1953—54 y.larda qazish ishlari olib borilgan. K. uchburchak shaklidagi maydon (1000x400) tevaragi bo'ylab paxsadan qurilgan usti yopiq bir necha qator yo'laklar (umumiylar uz. 6—7 km) dan iborat turar joylar bo'lib, ularning ichkarisiga yuqoridagi tuynuklar orqali kirishgan. Birinchi qatordagi yo'lakning tashqi devori burjlar b-n mustahkamlangan, yuqori qismida qator shinaklari bo'lgan. Yo'laklarning ichi aloqida-alohida turar joylarga bo'linmaganligi ularda bir urug' yoxud o'zaro qarindosh urug'lar guruhi yashaganligini ko'rsatadi. K. aholisi o'sha davrlardagi muttasil bosqinlardan o'zlarini hamda jamoaning asosiy boyligi — chorvani himoya qilish uchungina ana shunday uzundan-uzun, qorong'u yo'laklarda yashashga majbur bo'lgan. K.dan skiflarga xos jez kamon o'qlari, kulolchilik dastgohida yasalgan turli sopol idish va buyumlar topilgan.
<b>Lokomotsiya</b>	<b>Locomotion</b>	<b>Локомоция</b>	lot. <i>locus</i> – joy, <i>motio</i> - harakat – makon yoki manzilgohning o'zgartirilishi, ko'chish.
<b>Maglemoze</b>	<b>Maglemose</b>	<b>Маглемозе</b>	Shimoliy Yevropa (Angliya, Boltiqbo'yi qirg'og'i) mezolit davri madaniyati, m.a VII-VI ming yilliklar. Mikrolitlar va yog'ochga ishlov beruvchi qurollar, garpunlar, qayiq, it suyaklari topilgan.
<b>Madlen</b>	<b>Madeleine</b>	<b>Мадлен</b>	paleolit davri madaniyati, Fransiyadagi joy nomi bilan atalgan. G'arbiy Yevropa paleolitining solyutre va mezolit oralig'idagi yakuniy bosqichi, m.a. XV-X ming yilliklar.

<b>Maykop madaniyati</b>	<b>Maykop</b>	<b>Майкоп</b>	Shimoliy Kavkaz va Kavkazoldining ilk bronza davri madaniyati, m.a. III ming yillik. Mustahkamlangan manzilgohlar, to’rburchak uylar, boy qo’rg’onlar. Maykop qo’rg’oni (11 m) 1897 yilda N.I.Veselovskiy tomonidan ochilgan.
<b>Makrolitlar</b>	<b>Macrolite</b>	<b>Макролиты</b>	yunon. <i>makros</i> – katta, <i>lithos</i> - tosh – yirik va qo’pol tosh quollar.
<b>Matriarxat</b>	<b>Matriarchy</b>	<b>Матриархат</b>	lot. <i>mater</i> – ona, yunon. <i>arche</i> - hokimiyat - jamoa va oilada ayollar hukmronligi.
<b>Megalitlar</b>	<b>Megaliths</b>	<b>Мегалиты</b>	(yunon. <i>megas</i> – ulkan, <i>lithos</i> - tosh) – ulkan toshlardan qurilgan obidalar (mengrlar, tosh halqalar, dolmenlar va h.k.)
<b>Mezolit</b>	<b>Mesolithic</b>	<b>Мезолит</b>	(yunon. <i>mesos</i> – o’rta, <i>lithos</i> - tosh) – o’rta tosh davri.
<b>Mikrolitlar</b>	<b>Microliths</b>	<b>Микролиты</b>	(yunon. <i>mikros</i> – kichik, <i>lithos</i> - tosh) – bir necha qismli tosh quollarning mayda tosh qismlari.
<b>Mustye</b>	<b>Moustiers</b>	<b>Мустье</b>	o’rta paleolit davri madaniyati va davri, Fransiyadagi joy nomi bilan atalgan, (m.a. 80-32 ming yil avval). Neandertallar yashagan davr.
<b>Neoantrop</b>	<b>Neoanthrop e</b>	<b>Неоантроп</b>	(yunon. <i>neos</i> – yangi, <i>anthropos</i> – odam) – zamonaviy ko’rinishdagi odam.
<b>Neolit</b>	<b>Neolithic</b>	<b>Неолит</b>	(yunon. <i>neos</i> – yangi, <i>lithos</i> - tosh) – yangi tosh davri.
<b>Natuf madaniyati</b>	<b>Natufian culture</b>	<b>Натуфийская культура</b>	Old Osiyo mezolit davri madaniyati, m.a. X-Ix ming yilliklar. Iordan daryosi vodiysidagi joy nomidan olingan. Geometrik mikrolitlar, o’qoqla qadama sifatida ishlatilgan mikrolitlar, nisbatan katta o’lchamdagisi doimiy qishloqlar.
<b>Nomozgoh</b>	<b>Namazga</b>	<b>Намазга</b>	Janubiy Turkmanistondagi eneolit davri yodgorligi.
<b>Neolit inqilobi</b>	<b>Neolithic revolution</b>	<b>Неолитическая революция</b>	insoniyatning termachilikdan ishlab chiqaruvchi xo’jalikka (dehqonchilik va chorvachilik) o’tishi.

<b>Nukleus</b>	<b>Nucleus</b>	<b>Нуклеус</b>	tosh quollar yoki qadamalar yasash uchun uchirmalar, plastinalar ajratib olingan tosh o'zak. Mezolitga ko'proq qalamsimon nukleuslar, neolitga prizmatik nukleuslar xos.
<b>Obsidian</b>	<b>Obsidian</b>	<b>Обсидиан</b>	shishasimon vulqon jinsi, tosh va bronza davrida ishlab chiqarish qurollari yasashda foydalanilgan. Dastlabki xalqaro “savdo” buyumi bo'lgan.
<b>Orinyak</b>	<b>Aurignac</b>	<b>Оринъяк</b>	paleolit davri bosqichi, madaniyati. Dastlab Fransiyada aniqlangan. Yoshi 33-19 ming yil avval bilan belgilanadi.
<b>Paleozoologiya</b>	<b>Paleozoology</b>	<b>Палеозоология</b>	(arxeozoologiya) qadimgi manzilgohlardagi suyak topilmalari asosida hayvonot dunyosini o'rganuvchi fan.
<b>Primatlar</b>	<b>Primates</b>	<b>Приматы</b>	odamsimon maymunlar oilasi.
<b>Qadimgi chuqur madaniyati</b>	<b>Old pit culture</b>	<b>Древнеямная культура</b>	Uralbo'yi, Volgabo'yi va Shimoliy Qoradengizbo'yidashtlar ida tarqalgan madaniyat, yana qo'rg'onlar madaniyati deb ham ataladi.
<b>Qorasuq madaniyati</b>	<b>Karasuk culture</b>	<b>Карасуkskaя культура</b>	arxeologik madaniyat (mil. av. 2-ming yillikning oxirgi choragi va 1-ming yillikning boshlari). Janubiy Sibir, Qozog'iston va Ob daryosining yuqori qismida yashagan qabilalarning manzilgoh va mozor-qo'rg'onlari. Arxeolog S.A.Teplokov 20-yillarda Xakasiyaning Qorasuq daryosi bo'yidan topgan. Toshdan yasalgan ma'budalar, turli mehnat vaharbiy qurollar, jimjimador sopol idishlar, dastalariga hayvon suratlari solingan jez pichoq va boltalar, bilaguzuk va b. topilgan. Arxeologik topilmalar Q.m. qabilalarining Mo'g'uliston, Shim. Xitoy, Qozog'iston va O'rta Osiyo aholisi b-n iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lganligini

			ko'rsatadi.
<b>Qo'rg'on</b>	<b>Kurgan</b>	<b>Курган</b>	1) qum, tuproqdan hosil qilingan sun'iy tepa. Q., ko'pincha aylana, oval, to'g'ri to'rtburchak, kvadrat tarqli, atrofi devor b-n o'ralib, ichini qum, tuproq, shag'al b-n to'ldirib sun'iy hosil qilingan. Q.lar uzoq o'tmishda mudofaa maqsadlari uchun xizmat qilgan; 2) o'rta asrlarda qalin va baland mudofaa devori b-n o'rab qurilgan, asosan, bir darvozali shahar qal'a. Tabiiy tepaliklarda, ba'zan baland supa ishlanib ustida bunyod etilgan; 3) qadimgi qabriston turi (mozor-qo'rg'on).
<b>Sopolsiz neolit</b>	<b>Pre-Pottery Neolithic</b>	<b>Докерамический неолит</b>	(so'nggi mezolit) sopol paydo bo'lgunga qadar, ammo qishloq xo'jaligi izlari mavjud bo'lgan tosh davri bosqichi. Boshlanishi – Ierixon.
<b>Sinantrop</b>	<b>Sinanthropus</b>	<b>Синантроп</b>	arxantrop ( <i>Homo erectus</i> ) ning bir turi. Dastlab Pekin yaqinidagi Chjoukoudyandan topilgan.
<b>Solyutre</b>	<b>Solutré</b>	<b>Солютре</b>	orinyakdan keyingi so'nggi paleolit madaniyati, 35-30 ming yil avval.
<b>Stratigrafiya</b>	<b>Stratigraphy</b>	<b>Стратиграфия</b>	(lot. "strato" – qatlam, "grafo" - yozaman) – yodgorliklarda qatlamlarning almashinushi. Stratigrafiyaning o'rganilishi ko'p qatlamlili manzilgohlarning nisbiy yoshini aniqlashda muhim.
<b>Tardenuaz</b>	<b>Tardenois</b>	<b>Тарденуаз</b>	mezolitning so'nggi qismi (m.a. VII- V ming yillik). Fransiyadagi joy nomi bilan atalgan.
<b>Terrakota</b>	<b>Terracotta</b>	<b>Терракота</b>	(lot. terra – yer va cotta - qizdirilgan) – kulollikda ishlatiladigan loy va shunday loydan tayyorlab olovda qizdirilgan mahsulot, sopol. Ro'zg'orda (idish va buyumlar), haykaltaroshlik va qurilishda (sopolak, parchin, arxitektura detallari) ishlatiladi.
<b>Tripolye</b>	<b>Trypillian</b>	<b>Трипольск</b>	Chap sohil Ukrainasi, Moldova

<b>madaniyati</b>	<b>culture</b>	<b>ая культура</b>	eneolit davri madaniyati (Ruminiyada Kuketeni madaniyati deb nom olgan). Kiyev manzilgohi nomidan olingan.
<b>Ubayd madaniyati</b>	<b>Ubaid culture</b>	<b>Убейдская культура</b>	Mesopotamiyadagi ilk sivilizatsiya. M.a VI ming yillik. Hozirgi Bog'dod shimolidagi Al-Ubayd tepaligi nomi bilan atalgan.
<b>Vyurm</b>	<b>Wurm</b>	<b>Вюрм</b>	dastlab Alpda aniqlangan so'nggi muzlik davri. Uning boshlanishini 185 mingdan 70 ming yilgacha avval, tugashini tax. 10-12 ming yil avval davrlashtirishadi.
<b>Xojilar</b>	<b>Hacilar</b>	<b>Хаджилар</b>	Kichik Osiyoning janubi-g'arbidagi (Turkiya) neolit davri manzilgohi. M.a. VIII asr oxiri – VII asr boshi.
<b>Xalaf</b>	<b>Khalaf</b>	<b>Халаф</b>	Suriya va Turkiya chegarasidagi tepalik. 1911-12 yillarda Oppenxeym tomonidan qazish ishlari o'tkazilgan. Xalaf madaniyati m.a. V ming yillikning birinchi yarmida tarqalgan.
<b>Xassun</b>	<b>Hassoun</b>	<b>Хассун</b>	Shimoliy Iroqdagi Mosuda shahri yaqinidagi tepalik. 1943-1944 yillarda Lloyd va Safar tomonidan qazib ochilgan.
<b>Yog'ochband madaniyati</b>	<b>Srubny culture</b>	<b>Срубная культура</b>	Sharqiy Yevropa dashtlari va janubiy o'rmon-dasht hududlarida tarqalgan madaniyat. Rivojlangan bronza, m.a. II ming yillik –I ming yillikning boshlari.
<b>Yanshao</b>	<b>Yangshao</b>	<b>ЯньшАО</b>	Xitoyning neolit davri madaniyati. M.a. III-II mihg yillik.
<b>Shanidar</b>	<b>Shanidar</b>	<b>Шанидар</b>	ko'p qatlamlı manzilgoh aniqlangan Zagros tog'laridagi (Iraq) g'or. Quyi qatlamlari mustye, yuqori qatlamlari so'nggi paleolitga tegishli. Neandertal qabri topilganligi bilan mashhur.
<b>Chopper</b>	<b>Chopper</b>	<b>Чоппер</b>	insoniyatning dastlabki bir tomoni o'tkirlangan qo'pol tosh quroli.

## 5. ILOVALAR

### 4.1. FANNING O'QUV DASTURI

45

#### ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛӢ ВА ЎРТА МАХСУС ТАҶИМ ВАЗИРЛИГИ

Рўйхатга олини  
№ 5120405-3.07  
«7» дикверс 2015.

Олий ва ўрга маҳсус таҷим  
вазирии маданийири «2» «орзгорс  
«32» олий таҷиими  
тасдиқланган



#### АРХЕОЛОГИЯ ВА ЭТНОЛОГИЯ фанинин ЎҚУВ ДАСТУРИ

Бидим соҳаси:	100 000 - Гуманитар соҳа
Гаълим соҳаси:	120 000 - Гуманитар фанлар
Гаълим йўналини:	5120300 - Тарих (жаҳон мамлакатлари бўйича)

Ташкент-2015

Фанинин укув дастури Олдай ва урга маҳсус, касб - хунар таълими укув - методик бирлашмалари фаодиягини Мувоффиклаштирувчи Кенганинин 2015 ийл  
«*7 декабр*» и «*1*» - сон мажлис баёни билан маъқулланган.

Фанинин укув дастури Ўзбекистон Миллый университетида ишлаб чиқилди.

**Тузувчилар:**

Ибрагимов Р.З. - Археология ва этнология кафедраси ўқитувчиси  
Салимов Т.У. - Археология ва этнология кафедраси доценти, т.ф.н.

**Такризчилар:**

- |              |   |
|--------------|---|
| Ходиков З.О. | - Термиз Давлат университети Жаҳон тарихи кафедраси доценти, т.ф.н.   |
| Буряков Ю.Ф. | - Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллый университети "Археология ва этнология" кафедраси академик профессор. |

Фанинин укув дастури Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллый университети укув услубини кенганинда кўриб чиқилип ва тавсия кишинан 2018 ийл  
«*26 декабр*» и и «*6*» - сонги баённомат.

## **Кириш**

Ушбу дастур “Археология ва этнология” предмети, максад ва вазифалари, моддий ва маънавий маданият, ижтимоий-иктисодий, этно-маданий жараёнлар ва ғоявий қарашлар, мамлакатимизнинг демократлаштириш ва иктисодиётни бозор тамойиллари, жаҳон ҳамжамиятига ҳар томонлама интеграциясини чуқурлаштириш, хорижий мамлакатларнинг ижтимоий-иктисодий, сиёсий ва маданий тараққиётини илмий ва амалий аҳамиятини ҳамда фаннинг ривожланиш қонуниятлари ва тамойиллари, фаннинг таркиби ва тузилиши, уни ташкил қилиш ва бошқариш, фаннинг таснифи каби масалалар аҳамияти очиб берилади. Ҳамда, «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури»да кўрсатиб ўтилган талаба-ёшларнинг тарихий дунёқарашини бойитиш, уларда мустақил фикрни қарор топтириш, тарихни мукаммал даражада билиш, инсоният цивилизациясининг ютуқларидан ва тажрибасидан тўла баҳраманд бўлиш, умуминсоний қадриятларни англаб етишга кўмаклашиш ва дунё миқёсида мавжуд бўлган муаммоларнинг тарихий илдизларини излаб топиш каби долзарб масалаларни ўрганади.

Шунингдек, “Археология ва этнология” фани ҳақидаги билимларни қарор топшириш мавжуд илмий адбиётлар ва замонавий назариялар ҳамда олиб борилаётган тадқиқот ишларини ўрганиш, фан бўйича тўпланган илфор тажрибалар, кадрлар буюртмачиларининг фикр, талаб ва таклифлари каби масалаларни ўз ичига қамраб олади.

## **Ўқув фанининг мақсад ва вазифалари.**

Фанни ўқитищдан мақсад—Археология ва этнология фанлари тўғрисида талабаларда холисона илмий дунё қарашни, кўнирма ва малака шакллантиришdir.

Фаннинг вазифаси – моддий ва маънавий маданият, ижтимоий-иктисодий, этно-маданий жараёнлар ва ғоявий қарашлар масалаларини ўргатишдан иборат.

**Фан бўйича талабаларнинг билим, кўнирма ва малакаларига қўйиладиган талаблар**  
“Археология ва этнология” ўқув фанини ўзлаштириш жараёнида амалга ошириладиган масалалар доирасида бакалавр:

- Археология ва этнология фанининг мақсад ва вазифалари, моддий ва маънавий маданият, хўжалик хусусиятлар, этно-маданий жараёнлар, ғоявий қарашлар масалалари ва уларнинг тараққиёт боскичлари улардан илмий мақсадларда фойдаланиши~~билиши~~керак;
- Талаба тарихий маълумотларни илмийлик, тарихийлик, холислик асосида ўрганиш. Музей ашёлари ва интернет маълумотларни, археологик ва этнологик манбаларни мустақил тадқиқ қилиш, ўрганиш **кўникамаларига эга бўлиши** керак;
- Музей экспонатлари, археологик ва этнологик манбалар тавсифлари, илмий тадқиқот институтлари фондлари материалларидан фойдаланиш **малакаларига эга бўлиши** керак.

## **Фаннинг ўқув режадаги бошқа фанлар билан ўзаро боғлиқлиги**

“Археология ва этнология” фани умумкасбий фан ҳисобланиб, 1,2 семестрларда ўқитилади. Даструрни амалга ошириш, ўқув режасида режалаштирилган Ибтидоий жамият тарихи, Ўзбекистон ва Жаҳон тарихи фанларининг қадимги даврларидан **етарли билим ва кўникамаларга эга бўлиши** керак.

## **Фаннинг илм-фан ва ишлаб чиқаришдаги ўрни**

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1998 йил 27 июлда “Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси тарих институти фаолиятини таомиллаштириш тўғрисида”ги қарорида Ўзбек халқи ва унинг давлатчилигини тарихини холисона ўрганишнинг илмий асосларини шакллантириш, тадқиқотларни замонавий талаблар даражасига қўтариш, қадимги даврнинг ҳаққоний тархини тарихий манбалар асосида ўрганиш вазифаси белгиланган..

## **Фанни ўқитишида замонавий ахборот ва педагогик технологиялар**

Талабаларнинг Археология ва этнология фанини ўзлаштиришлари учун ўқитишининг илғор усулларидан фойдаланиш, янги информацион-педагогик технологияларни тадбиқ қилиш муҳим аҳамиятга эгадир. Фанни ўзлаштиришда джарслер, ўқув ва услубий қўлланмалар, маъруза матнлари, тарқатма материаллар, электрон материаллар, виртуал стендлар, жадваллардан фойдаланилади.

Дастурда берилган мавзулар маъруза, семинар шаклида олиб борилади. Шунингдек, фаннинг долзарб масалалари мустақил иш сифатида талабаларга ўзлаштириш учун берилади. Фан замонавий педагогик технологиянинг “Бумеранг”, “кластер” сингари услублари орқали дарслар олиб борилади.

### **Асосий қисм**

#### **Фаннинг назарий машғулотлари мазмуни**

#### **Фаннинг предмети, мақсади ва вазифалари**

Археология фан сифатида. Археологиянинг ижтимоий фанлар соҳасида тутган ўрни. Археологиянинг фан сифатида шаклланиш ва ривожланиш тарихи. Археологик манбалар ва уларнинг маданий-тариҳий жараёнларни ўрганишдаги аҳамияти. Археологик тадқиқот усуллари. Маданий қатлам. Хронология ва даврлаштириш. Археология фанининг ёрдамчи тармоқлари.

#### **Палеолит**

Палеолит даври ва унинг босқичлари: олдувай, ашель, мустъе ва сўнгги палеолит. Инсоният шаклланган худуд. Палеолит даври маданиятлари босқичлари. Осиё, Европа ва Африканинг палеолит даврига оид асосий ёдгорликлари тавсифи. Ўрта Осиёнинг палеолит даври тавсифи. Асосий археологик ёдгорликлари. Инсониятнинг Америка минтақасига тарқалиши. Палеолит даври моддий маданияти. Мехнат қуроллари. Тош қуролларига ишлов бериш техникаси. Ўзлаштирувчи хўжалик хусусиятлари (овчилик ва термачилик) Ибтидоий тасвирий санъат. Ғоявий қарашлар. Сунъий турар жойларнинг пайдо бўлиши.

#### **Мезолит**

Мезолит даври тавсифи Табиий ўзгаришлар ва экологиянинг ўрни. Ёввойи ҳайвонларни хонакилаштириш. Ўзлаштирувчи хўжалик шаклининг ривожланиши ва унинг ишлаб чиқарувчи хўжалик шаклининг шаклланишидаги аҳамияти. Моддий маданият. Микролитлар. Мезолит даври локал маданиятларининг шаклланиши. Олд Осиёнинг мезолит даври хусусиятлари Нутуфий маданияти. Шимолий Ҳиндистоннинг мезолит даври хусусиятлари.. Ўрта Осиёнинг мезолит даври маданиятлари: Шарқий Каспийбўйи, Кўшилиш, Обишир, Мачай ва бошқалар. Локал маданиятларнинг хўжалик ва моддий маданияти. Тасвирий санъат. Ғоявий қарашлар.

#### **Неолит**

Неолит даври тавсифи. Неолит инқилоби. Евросиёнинг жанубий вилоятларида ишлаб чиқарувчи хўжалик шаклининг қарор топиши. Яқин Шарқда илк дехқончилик. Иерихон маданияти. Кичик Осиё марказлари: Чеюнью тепеси ва Чатал Хююк. Кулолчиликнинг пайдо бўлиши. Жармо маданияти ва Загрос маданий бирлиги. Мисдан буюмлар тайёрлаш. Тош қуроллар. Ўрта Осиёда ишлаб чиқарувчи хўжалик шаклининг пайдо бўлиши Жебел ва Жайтун маданиятлари. Илк дехқончилик манзилгоҳлари ва курилиш. Тош қуроллар. Хунармандчилик. Тасвирий санъат, ҳайкалчалар. Ўрта Осиёнинг неолит даври ўзлаштирувчи хўжалик шаклидаги маданиятлари тавсифи (Калтамиор ва Ҳисор). Неолит даври ижтимоий муносабатлари. Евросиё даштларидаги неолит даври ўзлаштирувчи хўжалик шаклидаги қабилалар маданиятлари тавсифи. Ихтисослашган овчилик, термачилик ва балиқчилик. Моддий маданият. Шимолий Белужистонда илк дехқончилик маданияти (Мергар). Ҳинд водийсининг қадимги дехқонлар томонидан ўзлаштирилиши. Хитойнинг неолит даври Яншао ва Люшан маданиятлари тавсифи.

#### **Энеолит**

Энеолит даври тавсифи. Дастрлабки металл - мисга ишлов беришнинг бошланиши инсоният ижтимоий-иктисодий ва маданий тараққиёти бурилишидаги омил сифатида. Месопотамияда шаҳар-давлатларнинг шаклланиши. Эрон энеолит даврида (Сиалк ва Суза комплекси) Афғонистон энеолит даврида (Мундигак). Ўрта Осиёнинг энеолит даври маданиятлари (Анов-Номозгоҳ, Саразм). Манзилгоҳлар, қурилиш ва меъморчилик. Ҳунармандчилик тараққиёти (кулолчилик ва металл). Ҳайкалчалар. Кавказ ортининг энеолит даври маданиятлари Карпатолди (Молдова, Руминия ва Фарбий Украина) ҳудудида Триполье маданияти ва унинг босқичлари. Манзилгоҳлар ва уй-жойлар. Дехқончилик ва чорвачилик. Кулолчилик. ТОш қуроллар. Металларга ишлов беришнинг ривожланиши. Тасвирий санъат Ғоявий қарашларнинг намоён бўлиши. Энеолит даври жанубий ва шимолий ҳудудлари қабилалари маданий-иктисодий тараққиётининг нотекислиги. Евросиё даштларида Майкоп, Древнеям ва Афанаев маданиятлари.

### **Бронза даври**

Бронза даври тавсифи. Бронза даври тарихий-маданий жараёнлари. Месопотамияда шаҳар давлатлар тараққиёти вауларнинг хусусияти. Критдаги мил. ав. III-ІІІІ минг йилларга оид Миной ва Микен маданиятлари Эрон бронза даврида. Асосий археологик ёдгорликлари (Сиалка IV комплекси Тепаи Ҳисор, Шаҳри Сохта) ва уларнинг тавсифи. Ўрта Осиёнинг бронза даври тарихий-маданий жараёнлари. Ўрта Осиёнинг бронза даври маданий марказлари (Копетдоғ олди, Мурғоб, Сурхон ва Ўрта Зарафшон воҳалари) протошаҳар типидаги манзилгоҳлари (Олтиндепа, Саразм, Жанубий Гонур, Тўғалоқ, Сополлитепа, Жарқўтон). Шимолий Афғонистонда Дашли маданияти. Ҳиндистон бронза даврида (Моҳенжадаро ва Хараппа маданиятлари). Шўртўғай. Ихтисослашган ишлаб чиқариш. Тасвирий санъат. Ёзув ёдгорликлари. Евросиё даштларида Котакомба, Ёғочбанд, Андронова ва Карасук маданиятлари. Бронза даврида Уралбўйи ҳудудларида цивилизациянинг шаклланиши Аркаим манзилгоҳи ва Синташта мозори. Ҳўжалик ва моддий маданият. Металларга ишлов бериш тараққиёти. Ижтимоий табақаланиш ва давлатчилик масалалари.

### **Темир даври**

Илк темир даври тарихий-маданий жараёнлари. Этно-маданий миграциялар. Эрон, Кавказорти ва Ўрта Осиё ҳудудларида қадимги давлатларнинг шаклланиши. Шаҳарлар. Ўрта Осиёнинг темир даври тавсифи Ўтрон дехқончилик марказлари ва уларнинг хусусиятлари. қадимги шаҳар шаклидаги манзилгоҳлар (Ёздепа, Афросиёб, Кўктепа, Узунқир, Еркўргон, Қизилтепа, Далварзинтепа, Кўзалиқир, Гяурқалъа ва бошқалар) Курилиш ва меъморчилик. Мил. ав. ІІІІ минг йилларнинг биринчи ярмига оид Скифлар маданияти. Каменск шаҳар ҳаробаси. Қозоқистонда Тосмоли маданияти. Оролбўйи сакларининг моддий маданияти.

### **Антик даври**

Антик даври ижтимоий-сиёсий муносабатлари. Ўрта Осиёнинг антик даври давлатлари. Маданий-тарихий вилоятларнинг йирик шаҳар марказлари. Далварзинтепа, Афросиёб, Еркўргон, Гяурқалъа, Нисо, Тупроққалъа, Қозоқлиётган, ва бошқалар). Сирдарё ҳавзаси ўтрон дехқонлари ва чорвадор қабилалари, Канка ва Ўтрон. Шарқ эллинизми ва шаҳарсозлик, меъморчилик ва моддий маданиятда намоён бўлиши. Чириқработ ва Бабушмулла маданиятлари. Антик даврида Фарғона.. Курилиш ва меъморчилик. Ихтисослашган ишлаб чиқариш (кулолчилик, металлар ишлаб чиқариши, тўқимачилик, заргарлик) Санъат (ҳайкалтарошлик, ҳайкалчалар ва ранг-тасвир). Торевтика. Антик даври маданияти аҳамияти.

### **Ўрта асрлар**

Илк ўрта асрлар даври ижтимоий-иктисодий муносабатлари Ер эгалиги муносабатларининг қарор топиши. Йирик феодал давлатлари (Ҳазар ва Турк ҳоқонликлари) Ўрта Осиё илк ўрта асрлар даврида. Ўрта Осиёда кичик феодал давлатларнинг қарор топиши. Дехқончилик марказлари. Йирик шаҳарлар (Марв, Бухоро, Самарқанд, Панжикент, ва бошқалар) ва манзилгоҳлар. Курилиш ва меъморчилик. Ҳунармандчилик турлари. (кулолчилик, металларга ишлов бериш, тўқимачилик, заргарлик). Ҳайкалтарошлик, ҳайкалчалар ва ранг-тасвир. Ривожланган ва сўнгги ўрта асрлар моддий маданияти

хусусиятлари Қадимги ва ўрта асрлар даври тарихини ўрганишда археология фанининг аҳамияти.

### **Этнологияга кириш ва тарихи.**

Этнология фани предмети. Фандаги маҳсус атамалар. Этносларнинг тузилиши. Моддий ва маънавий маданият. Этносларнинг тарихий турлари. Этногенез ва этник тарих муаммолари. Этник жараёнлар ва унинг турлари.

Этнологиянинг мустақил фан сифатида XIX аср ўрталарида шаклланиши. Унинг вужудга келиши жамиятдаги ижтимоий-тарихий вазият эҳтиёжларига асосланиши ҳақида. Этнологиянинг эволюцион йўналиши, Л.Г.Морган., Эд. Тайлор., Н.Н. Миклухо Маклай. Диффузионизм мактаби: Гребнер ва бошқалар. Функционал йўналиш. Р.Малиновский, А.Р.Радклиф-Браун ва ҳоказолар. Этнологияга оид манбалар ва фаннинг тадқиқот услублари. Манбаларнинг турлари. Этнологик тадқиқотлар. Анъанавий дала экспедициялари. Савол-жавоб ва рақалари орқали этносоциологик тадқиқотлар ўтказиш усувлари.

### **Дунё халқлари классификацияси**

Географик классификация. Тарихий-этнологик вилоятлар. Дунё халқларининг антропологик таркиби. «Ирқлар», «ирқий типлар». Йирик ирқлар ва уларнинг хусусиятлари. Кичик ирқлар.

Тил классификацияси. Морфологик ва гнесологик. Тил оиласарининг генетик алоқалари. Этнос ва тил муносабатлари. Мустақил тиллар ҳақида.

Дин этнос маданиятининг муҳим омили сифатида. Дунё динлари: ислом, христианлик, буддизм. Давлат динлари. Уруғ-қабилачиликка оид диний тасаввурлар. Хўжалик маданий типлар. Хўжалик-маданий типларнинг (ХМТ) асосий белгилари. Ўзлаштириш ва ишлаб чиқариш хўжалик-маданий типлари.

### **Дунё халқларининг этнологик тавсифи. Австралия ва Океания халқлари**

Австралия ва Океания аҳолисининг этногенези ва этник тарихи асосий босқичлари. Австралия ва Таэманияликларнинг келиб чикиши. Полинезияликларнинг шаклланишига оид ғоялар. В.Гумбольд, Те Ранги Хироалар ғояси. Тур Хайердалнинг полинезияликларни Америка аҳолиси билан алоқадор эканлиги ҳақидаги ғояси. Европаликларнинг Австралия ва Океанияга кириши. Янги Гвинея папуаслари. Лингвистик ва антропологик хусусиятлари. Меланезия халқлари. Хўжалиги, моддий ва маданиятларидаги ўзига хосликлар.

Полинезия халқлари. Ирқий хусусиятлари, тиллари. Аҳолининг анъанавий хўжаликлари. Моддий маданиятлари. Диний тасаввурлар. Микронезия халқлари этнологияси. Ижтимоий тузумлари. Анъанавий динлари.

### **Осиё халқлари аҳолиси**

Осиё қитъаси халқларига оид умумий маълумотлар. Ғарбий (Олд), Жанубий ва Жанубий – Шарқий, Марказий ва Шарқий Осиё халқларининг этногенези ва этник тарихи. Замонавий аҳолисининг этник таркиби. Лингвистик ва антропологик классификациясидаги хусусиятлар. Олд Осиё дехқончилик ва чорвачилик ватани сифатида. Хўжалик тараққиёти. Асосий хўжалик маданий типлари. Аҳолининг уй-жойлари, кийим-кечаклари, таомлари.

Осиё халқларининг маънавий маданиятлари. Халқ оғзаки ижоди. Аҳолининг оиласавий турмуши ва ижтимоий, диний муносабатлари.

### **Ўрта Осиё ва Қозогистон халқлари**

Ўрта Осиё халқларининг этногенези ва этник тарихи. Ирқий ҳамда тиллардаги умумийлик ва ўзига хосликлар. Аҳолининг анъанавий хўжаликлари. Хўжалик маданий типлар ва этник чегаралар номутоносиблиги. Дехқончиликнинг вужудга келиши, тараққиёти. Моддий маданияти. Уй-жойларнинг аҳоли хўжалиги билан боғлиқлиги. Анъанавий кийимлари. Ҳунармандчилик. Ўрта Осиё ва Қозогистон халқларининг таомларидаги хусусиятлари. Ижтимоий ташкилотлари. Маҳаллачилик анъаналари. Халқ оғзаки ижоди. «Алпомиш», «Манас», «Кер-Огли». Ислом ва унинг аҳоли маънавий маданиятига таъсири.

### **Африка халқлари**

Африканинг географик ҳолати. Қитъанинг антропогенез худуд эканлиги ҳақида. Ирқий классификация. Катта ирқлар. Кичик ирқий типлар. Бушмен . Пигмей, Койсан, Хабашлар, Мальгашлар.

Лингвистик классификация. Асосий тил оиласлари. Африка ахолисининг замонавий ҳолати. Ал Фарғоний, Муҳаммад Хоразмийлар асарларида Африка халқларига оид маълумотлар. Этник тарихи. Палеолитга оид топилмалар. Неолит. Ишлаб чиқариш хўжалигининг шаклланиши ва кейинги тараққиёти. Дастребаки давлатлар, Гана, Мали, Сонгаи, Аксум ва бошқалар.

Африканинг овчи ва теримчи қабилалари. Готтентот, бушменлар, пигмейлар. Қитъанинг чорвачилик ахолиси. Номадизм. Дехқончилик. Мотига ва омоч дехқончилиги. Африкаликларнинг уй-жойлари, уларга хўжалик фаолиятининг таъсири. Идишлар, таомлар. Аҳолининг анъанавий кийимлари.

Ижтимоий ҳаёт. Фарзанд туғилиши, исм қўйиш билан боғлик удумлар. Тўй ва тўй маросимлари. Халқ оғзаки ижоди. Татиуровка

Диний тасаввурлар. Фетишизм, Анимизм, Тотемизм. Дунё динларининг тарқалиши. Христианлик, Ислом динлари. Жайнизм.

### **Америка халқлари**

Этник тарихи. Ирқий хусусиятлари. Шимолий Америка халқлари. Европаликлар истилоси, туб ахолисининг лингвистик классификацияси. Америка ахолисининг хўжалик маданий типлари. Арктика овчилари ва балиқчилари. Тлинкитлар, ирокез ва алгонкинлар хўжалиги. Ҳиндуларнинг моддий маданиятлари. Дин ва диний тасаввурлар. Американинг замонавий ахолиси. Марказий ва Жанубий Америка халқлари. Тиллари. Хўжалик -маданий типлар. Дехқончилик, овчилик. Илм-фан. Динлари. Қишлоқ жамоалари-айльюлар.

### **Европа халқлари**

Этимологик маъноси. Европа халқарининг этник тарихи ва шаклланиши. Тил классификацияси. Ҳинд-Европа, Олтой, Урал тил оиласлари. Антропологик таркиби. Кичик ирқлар.

Европа ахолисининг хўжалиги ва моддий маданияти. Уй-жойларидағи ўзига хослик. Анъанавий кийимлари. Ижтимоий турмуши ва маънавий маданиятлари. Халқ оғзаки ижоди. Достонлар. Эртаклар.

## **Семинар машғулотларини ташкил этиш бўйича кўрсатма ва тавсиялар**

Семинар машғулотларида талabalар Археология ва этнология асослари фанидан маъруза дарсларида олган назарий билимларини мустаҳлаш билан бирга, семинарлар мавзулари бўйича тайёргарлик кўриш жараёнида қўшимча адабиётлар ва тарихий манбалар билан танишиш орқали қўшимча билим оладилар. Натижада уларнинг билим доиралари илмий жиҳатдан асосланган ҳолда кенгаяди.

Семинар машғулотларининг тахминий тавсия этиладиган мавзулари:

1. Археология фанинг мақсад ва вазифалари
2. Палеолит даври моддий маданияти
3. Мезолит даври хўжалиги ва моддий маданияти
4. Неолит даври маданиятлари хусусиятлари
5. Энеолит даври тарихий-маданий жараёнлари
6. Бронза даври жараёнлари ва моддий маданияти
7. Темир даври хусусиятлари
8. Антик даври маданияти ва санъати
9. Ўрта Осиёнинг ilk ўрта асрлар моддий маданияти
10. Ўрта Осиёнинг ўрта асрлар шаҳарсозлик хусусиятлари
11. Ўрта Осиёнинг ўрта асрлар моддий маданияти
12. Маданий-тарихий жараёнларни ўрганишда археология фанининг аҳамияти

13. Этнологияга оид маҳсус атамалар ва фаннинг тадқиқот услублари.
14. Классификациялар ва уларнинг турлари.
15. Осиё халқлари этнологияси.
16. Австралия ва Океания халқлари.
17. Меланезия ва Янги Гвинея халқлари.
18. Фарбий Осиё халқларининг моддий ва маънавий маданияти
19. Жанубий Осиё халқлари.
20. Ўрта Осиё ва Қозоғистон халқлари.
21. Африка халқлари.
22. Шимолий Африка халқларининг моддий ва маънавий маданияти.
23. Фарбий Африка халқларининг моддий ва маънавий маданияти.
24. Марказий ва Жанубий Африка халқлари.
25. Америка халқлари.

Семинар машғулотларини ташкил этиш бўйича кафедра профессор-ўқитувчилари томонидан қўрсатма ва тавсиялар ишлаб чиқилади. Унда талабалар асосий маъзуза мавзулари бўйича олган билим ва кўнилмаларини янада бойитадилар. Шунингдек, дарслик ва ўкув қўлланмалар асосида талабалар билимларини мустаҳкамлашга эришиш, тарқатма материаллардан фойдаланиш, илмий мақолалар ва тезисларни чоп этиш орқали талабалар билимини ошириш, мавзулар бўйича кўргазмали қуроллар тайёрлаш ва бошқалар тавсия этилади.

### **Мустақил таълимни ташкил этишининг шакли ва мазмуни**

Талаба мустақил ишни тайёрлашда фаннинг хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда қуидаги шакллардан фойдаланиш тавсия этилади:

- дарслик ва ўкув қўлланмалари бўйича фан боблари ва мавзуларни ўрганиш;
- тарқатма материаллар бўйича маърузалар қисмини ўзлаштириш;
- маҳсус адабиётлар бўйича фанлар бўлимлари ёки мавзулари устида ишлап;
- талабаларнинг ўкув-илмий-тадқиқот ишларини бажариши билан боғлиқ бўлган фанлар бўлимлари ва мавзуларини чуқур ўрганиш;
- фаол ва муаммоли ўқитиш услубларидан фойдаланадиган ўкув машғулотлари.

### **Тавсия этиладиган мустақил иш мавзулари:**

1. Олдувай даври археологик ёдгорликлари
2. Ашел даври археологик ёдгорликлари
3. Мустье даври археологик ёдгорликлари
4. Мезолит даври локал маданиятлари
5. Неолит даври локал маданиятлари
6. Месапотамиянинг энеолит даври протоشاҳарлари
7. Ўрта Осиёнинг энеолит даври манзилгоҳлари
8. Эроннинг бронза даври протошаҳарлари
9. Ўрта Осиёнинг бронза даври протошаҳар шаклидаги манзилгоҳлари
10. Мохенжадаро ва Хараппа маданиятлари
11. Ўрта Осиёнинг бронза даври дәҳқончилик манзилгоҳлари
12. Темир даври маданий-тарихий вилоятлари археологияси
13. Ўрта Осиё антик даври шаҳарлари
14. Ўрта Осиё антик даври моддий маданияти
15. Ўрта Осиё антик даври тасвирий санъати
16. Ўрта Осиё илк ўрта асрлар шаҳарлари
17. Ўрта Осиё илк ўрта асрлар моддий маданияти
18. Ўрта Осиё илк ўрта асрлар тасвирий санъат
19. Этнология фани тарихи.
20. Олд Осиё халқлари хўжалиги ва маданияти.
21. Марказий Африка халқлари маънавий маданияти.

22. Шимолий Америка халқлари моддий маданияти.
23. Кавказ халқлари хўжалиги ва маданияти.

Фан ишчи дастурини шакллантириш жараёнида мазкур машғулот учун ишчи ўқув режада кўрсатилган соатлар ҳажмига мос мавзулар рўйхати шакллантирилади.

### **Дастурнинг информацион - услугбий таъминоти**

Мазкур фанни ўқитиш жараёнида таълимнинг замонавий методлари, педагогик ва ахборот-коммуникация технологиялари қўланилиши назарда тутилган.

- Археология ва этнология фанни маъруза дарсларида замонавий компьютер технологиялари ёрдамида презентациян ва электрон-дидактик технологиялардан;

- Ўтказиладиган амалий машғулотларда ақлий хужум, “бумеранг”, гурухли фикрлаш педагогик технологияларини қўллаш назарда тутилади.

### **Тавсия этилган адабиётлар рўйхати**

#### **Рахбарий адабиётлар:**

1. Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Тошкент: “Шарқ” 1998.
2. Каримов И. Маънавий юксалиш йўлида. Тошкент: “Ўзбекистон”. 1998
3. Каримов И. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. Тошкент; “Ўзбекистон”. 1999.
4. Каримов И. Юксак маънавият енгилмас куч. Тошкент: “Маънавият”. 2008.
5. Каримов И.А. Мамлакатни модернизация қилиш ва кучли фуқаролик жамияти барпо этиш устувор мақсадимиз. Т., “Ўзбекистон”, 2010.
6. Каримов И. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. Тошкент. “Ўзбекистон”. 2011.

#### **Асосий адабиётлар:**

7. Кабиров Ж., Сагдуллаев А. Тошкент «Ўқитувчи» 1990
8. Авдусин Д.А. Основы археологии М., «Высшая школа» 1989
9. Джуракулов М.Д. Аванесова Н.А. Историография эпохи бронзы Средней Азии. Учебное пособие. Самарканд: Изд.СамГУ. 1983. pdf.
10. Лунина С.Б. Археология Средней Азии. Учебное пособие. Ташкент. 1986.pdf.
11. Рындини Н., Дегтярева А. Энеолит и бронзовый век. Учебное пособие. М. 2002. Djvu
12. Археология Зарубежной Азии. М., «Высшая школа» 1986
13. Эгамбердиева Н.А. Археология. Ўқув қўлланма. Тошкент. 2011.
14. Жабборов И. М. «Жаҳон халқлари этнографияси асослари» Т. Ўқитувчи 2008.
15. Жабборов И. М. «Жаҳон халқлари этнографияси» Т. Ўқитувчи 1987.
16. Жабборов И. М.-«Ўзбек халқи этнографияси» Т.«Ўқитувчи» 1994.
17. Этнология. Учебник. Под.ред.Г.Е.Маркова и В.В.Пименова М.1994.
18. Этнография Учебник. Под.ред. Ю.В. Бромлея и Г.Е.Маркова М.1982.

#### **Қўшимча адабиётлар:**

19. Народы Мира. Серия. М. 1954- 1966.
20. Аннаев Т., Шайдуллаев Ш. Сурхондарё тарихидан лавъалар. Т., 1997.
21. Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. Л., 1973
22. Брей У., Трамп Д. Археологический словарь М., «Прогресс» 1990
23. Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии. М. «Высшая школа» 1985
24. Еленек Я. Большой иллюстрированный атлас первобытного человека М., 1982
25. Ламберг-Карловски К, Саблов Дж. Древние цивилизации. Ближний Восток и Мезоамерика. М., «Наука» 1992
26. Масон В.М. Первый цивилизация М., «Высшая школа» 1985
27. Сетон Ллойд. Археология Месопотамии М., «Наука» 1984
28. Леви-Стросс К. Структурная антропология. М.1983.

29. Чебоксаров Н.Н. Чебоксарова Н.А. Народы рассы, культуры. М.1984.
30. Морган Л.Г. Лига ходенасауни или ирокезов М.1983.
31. Аверкиева Ю.П. Индейцы Северной Америки. М.1974.
32. Фрэзер Д. Золотая ветвь М. 1989.
33. Аверкиева Ю.П. Индейцы Северной Америки. М.1974
34. Токарев С.А. Основы этнографии. М. 1986.
35. Народы Африки. Под.ред.Э.Г. Львовой М. 1986.
36. Народы Средней Азии и Казахстана. Под.ред. С.П. Толстова. М.1962-1963.
37. Древние обряды и культуры народов Средней Азии. Отв. Ред. В.Н.Басилов. М. Наука. 1986.

**Электрон манбалар**

38. [www.history.ru](http://www.history.ru)
39. [www.natura.com](http://www.natura.com)
40. [www.archaeology.ru](http://www.archaeology.ru)
41. [www.archaeology.com](http://www.archaeology.com)

## **4.2. FANNING ISHCHI O'QUV DASTURI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**“TARIX” KAFEDRASI**

**“TASDIQLAYMAN”**

GulDU prorektori J.H. Qarshiboev  
«\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2022y

---

**ARXEOLOGIYA  
fanibo'yicha**

Ta'lemyo'nalishi: 5120300 – Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha)

### **ishchio'quvdasturi**

Umumiyo'quvsoati	– 93
Shujumladan:	
Ma'ruza	– 26
Amaliyotmashg'ulotlari	– 28
Mustaqil ta'lim soati	– 39

**GULISTON – 2022**

Fanningishchio'quvdasturi 5120300 – Tarix (mamlakatlar va mint aqalar bo'yicha) yo'nalishi uchun ishlab chiqilgan (2022.02.02. № 32) namunaviy o'quv dasturi va o'quv rejasiga muvofiq ishlab chiqildi.

**Tuzuvchi: dotsent Qudratov S.S** – GulDU “Tarix” kafedrasini dotsentii \_\_\_\_\_ (imzo)

**Taqrizchi:** Nazarov O. GulDU “Tarix” kafedrasini dotsent \_\_\_\_\_ (imzo)

Fanning ishchio'quvdasturi “Tarix” kafedrasining \_\_\_\_\_dagi \_\_\_ - sonli majlisida ko'rib chiqilib, fakultet Ilmiy-uslubiyKengashida ko'rib chiqish uchun tavsyaqilindi.

Fanning ishchio'quvdasturi “Tarix” kafedrasining \_\_\_\_\_dagi “Ijtimoiy-iqtisodiy” fakultet ilmiy-uslubiyKengashining \_\_\_\_\_dagi “\_\_\_” - sonli majlisida tasdiqlandi.

**Kafedra mudiri:** B.B.To'ychiboyev

Fakultet Ilmiy-uslubiy  
Kengashi raisi: A.Abdurahmonov

Faning ishchi o'quv dasturi GulDU o'quv-uslubiy Kengashining \_\_\_\_\_yil \_\_\_avgust № \_\_\_\_-sonli majlisida muhokama etildi va tasdiqlandi.

O'quv ishlari bo'yicha prorektor: J. H. Qarshiboev

## **1.KIRISH**

Ushbudastur “Arxeologiya” fanining predmeti, maqsadvavazifalari, moddiyvama’naviyadaniyat, ijtimoiy-iqtisodiyvag’oyaviyqarashlar, mamlakatimizning demokratlashtirishvaiqtisodiyotnibozortamoyillari, jahonhamjamiyatigahartomonlamaintegratsiyasinichuqurlashtirish, xorijiy mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiyvamadaniytaraqqiyotini ilmiy vaamaliyahamiyatini hamda fanning rivojlanish qonuniyatlarivata moyillari, fanning tarkibivatuzilishi, unitashkilqilishvaboshqarish, fanning tasnifikabimasa larahamiyatiochibberiladi. Hamda, «Kadrartayyorlash milliy dasturi» dako’rsatibo’tilgantala bas yoshlarning tarixiy dunyo qarashiniboyitish, ulardamustaqlifkriqarortoptirish, tarixnimukammal darajadabilish, insoniyatsivilizatsiyasining yutuqlaridan vatajribasidanto’labahramandbo’lish, umuminsoniy qadriyatlar niang lab yetishgako’maklashish vadunyomiq yosidamavjudbo’lganmuammo larning tarixiy idzilarini izlabtopish kabidolzarb masalalarinio’rganadi.

### **Arxeologiyafanidanishchi**

dasturdavlatta’limstandartivafandasturidabelgilangantalabalartomonidanegallanishilozimbo’lganbil im, ko’nikma, malakavak kompetentsiyalar ni shakllantirishni, o’quvjarayoninik kompleksloyi halashasosidaka folatlangannati jalarniolishni, mustaqil bilimolishvao’rganishni hamdanazoratni amalgaoshi rishnita’minlaydigan, talabaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishgayo’ naltirilgano’ quv – uslubiy manbalar, didaktik vositalar va materiallar, elektronta’lim resurslari, o’qitish texnologiyasi, baholash metodlarivamezonlarinio’zichigaoladi.

### **1.1. Fanningmaqsadvavazifalari**

Arxeologiyafanijahonxalqlarivasivilizatsiyalarinингtoshasrdanso’nggio’rtaasrlardavrigachaoi dtarixinimoddiy madaniyat qoldiqlari asosidayoritadi. Arxeologiyafani insoniyat ning kelibchiqishimuammolarini oydin lashtiradi. Dunyoda, jumladan, yurtimizda kechgan tarixiy taraqqiyot vamadaniy jarayonlar xususidabayonqiladi.

Fanningmaqsadi arxeologiyafanito’g’risidalabalardaxolisonailmiydunyo qarashni, ko’nikma vamalakashakllantirishdir. Arxeologiyafanining vazifa simoddiyvama’naviyadaniyat, ijtimoiy-iqtisodiy, etno-madaniy jarayonlar vag’oyaviy qarashlar masalalarinio’rgatishdaniborat.

### **1.2. Fanbo’yichatalabalarning bilim, ko’nikma vamalakalariga qo’yiladigan talablar**

“Arxeologiya” o’quv faninio’zlashtirish jarayonida amalgaoshi riladigan masalalar doira si da baka lavr:

1. Arxeologiyafanining maqsadvavazifalari, moddiyvama’naviyadaniyat, xo’jalik xususiyatlar, g’oyaviy qarashlar masalalarivaularning taraqqiyot bosqichlari, ular danilmaymaqsad larda foydalani shni **bilish** kerak;
2. Talabatarixiyma’lumotlarni ilmiylik, tarixiylik, xolislik asida o’rganish, muzeyashyolarivainternetma’lumotlarni, arxeologik manbalarni mustaqiltadqi qilish, o’rganish **ko’nikmalariga ega bo’lish** kerak;
3. Muzeyeksponatlari, arxeologik manbalar tavsiflari, ilmiytadqi qotinstitutlar ifondlarim materiallaridan foydalani sh **malakalariga ega bo’lish** kerak.

### **1.3. Fanningo’quvrejasidagifanlar bilan bog’liqligi**

“Arxeologiya” faniumumkasbiy fan hisoblanib, 1 semestr dao’qitiladi. Dasturni amalgaoshi rish, o’quvrejasidare jalashtirilgan “Ibtidoiy jamiyattarixi”, O’zbekiston va Jahontarixi fanlarining qadimgidavrilaridani yetarlibilim vako’nikmalariga ega bo’lish ike rak.

